

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
SAN'ATSHUNOSLIK FAKULTETI  
«TASVIRIY SAN'AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI» KAFEDRASI

MAVZU: «QADIMIY BUXORO» TARIXIY LAVHALAR KOMPOZITSIYA  
BAJARISH (RANGTASVIRDA).

mavzusidagi

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajardi: Tasviriy san'at va  
muxandislik grafikasi  
ta'lim yo'nalishi bitiruvchi 4-kurs  
talabasi **N.A.Nurmurodova**

**Ilmiy rahbar:**  
Dotsent D.K. Mamatov

---

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.  
\_\_\_\_\_ sonli bayonnomasi «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20.... yil

**BUXORO – 2020 yil**

**REJA:**

**Kirish**

**I. BOB O`zbekistonda rang tasvirning milliy o`ziga xoslik talqini masalasi**

**1.1 Tasviriylar san`atining turi va janrlari**

**1.2 Manzara kompazitsiyasi**

**1.3 Manzara janrida ijod etgan rassomlar**

**1.4 O`zbekiston me`morchilik san`ati**

**II.BOB O`zbekiston rang tasvirida madaniy me`rosning o`ziga xosligi**

**2.1 Buxoro tarixiy yodgorliklari**

**2.2 Buxoro manzara kompazitsiyasini ishlagan rassomlar**

**2.3 Moybo`yoq texnikasida manzara ishlash**

**2.4 Me`moriy obidalar aks ettirilgan kompazitsiya bajarish  
(moybo`yoqda)**

**XULOSA**

**Tarixiy xotira-xalq ma`naviyatining asosidir**

# M u n d a r i j a

Semmery.....	3-4 bet
<b>Kirish.....</b>	<b>5-7 bet</b>
<b>I. BOB O`zbekistonda rang tasvirning milliy o`ziga xoslik talqini masalasi</b>	
1.1 Tasviriylar san`atining turi va janrlari.....	8-22 bet
1.2. Manzara kompazitsiyasi.....	23-26 bet
1.3. Manzara janrida ijod etgan rassomlar.....	27-44 bet
1.4. O`zbekiston me`morchilik san`ati.....	45-52 bet
<b>II.BOB O`zbekiston rang tasvirida madaniy me`rosning o`ziga xosligi</b>	
2.1. Buxoro tarixiy yodgorliklari.....	53-58 bet
2.2 Buxoro manzara kompazitsiyasini ishlagan rassomlar.....	59-66 bet
2.3 Moybo`yoq texnikasida manzara ishlash.....	67-77 bet
2.4 Me`moriy obidalar aks ettirilgan kompazitsiya bajarish ( moybo`yoqda).....	78-80 bet
<b>XULOSA.....</b>	<b>81-83 bet</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....</b> 98 bet	
<b>ILOVALAR</b>	

## **Kirish.**

### **O'zbekistonda rang tasvirning rivojlanish tarixi**

O'zbekiston Respublikasining istiqlolga erishishi xalqimizning tarixiy qadriyatlari, ma'naviy merosi xalq an'analarini qayta tiklashga va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga katta yo'l ochib berdi. Ayniqsa, asriy an'analarga ega bo'lgan tasviriy san'at turlariga o'quvchi yoshlarni jalg etish katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Ta'lim sohasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar ta'limni yanada rivojlantirish, uning darajasini zamonaviy bosqichga ko'tarishdan iborat. Bu borada tasviriy san'atning o'rni ham benihoyat kattadir. Zero, yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda estetik didni shakllantirish bevosita tasviriy san'at ta'limining ham asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Tasviriy san'at asarlari kishilarining histuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga egadir. Ayniqsa, manzara asarlarini tomosha qilish bilan insonlar, unda tasvir etilgan go'zallikni ko'rib, qalblariga go'zallik kirib boradi, tabiatga mehr-muhabbat ortadi.

Tasviriy san'atning manzara janri asarlarida ona-yurtning go'zal va betakror, ulug'vor hamda epik obrazi gavdalanadi. Manzara asarlari inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, ma'naviy ozuqa berish bilan birga, ona-yurtning moddiy boyliklarni asrab-avaylashga o'rgatadi, ularni avlodlarga bekamu-ko'st yetkazish zarurligi g'oyasini singdirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda manzara asarlarining ahamiyati kattadir. Ma'lumki, san'atning turlari nihoyatda ko'p bo'lib, ular adabiyot, musiqa, kino, teatr, me'morchilik, amaliy-bezak, sirk, televideniya, tasviriy san'at hisoblanadilar. "Tasviriy" atamasi "tasvirilash" so'zidan olingan bo'lib, unda turli material, xususan, bo'yoq, tosh, gips, yog'och shuningdek, boshqa badiiy va tashlandiq materiallar yordamida har xil obrazlarni va narsalarning rasmi, haykalini ifodalash tushuniladi. Tasviriy san'at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, halqlar tarixini bilishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi ibridoiy jamoa davriga borib taqaladi.

Bu vaqtda kishilar voqealarni, odam va hayvonlarni toshlarga tasvirini chizib, ularni kesib turli ko'rinish va mazmunda haykallar yasaganlar.

Qadimdan kishilar san'at, tabiat xodisalari va kishilarning o'zaro munosabatlari, faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaganlar. Shu qatori tasviriy san'at asarlari kishilarga katta kuch bilan ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega.

Kishilar tasviriy san'at asarlarini tomosha qilish orqali ularda ifodalangan go'zallikni ko'rish orqali o'z hayotiga ana shunday go'zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonona harakatlarni ko'rib ularga o'xshashga intiladilar. San'at asarlaridagi xunuk voqealar, harakatlarni ko'rish orqali ulardan jirkanadilar. Ayniqsa, tarixiy janrdagi san'at asarlarini tomosha qilganda o'sha davrdagi tabiat manzaralari, narsalar, kishilar hayoti, mehnat va jang qurollari, ularning kiyimlari, urf-odatlari bilan tanishadilar, qurilishlar, binolar haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar o'shanday emas, balki undagi harakterli ko'rinishlarni tanlab oladilar, kerakmas ikkinchi darajali ko'rinishlarni tushurib qoldiradilar, muhimlarini bo'rttirib ko'rsatadilar. Tanishish va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va xodisalarni kishilarning tafakkuri va xissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishga erishadilar. Rassom borliqni shunchaki biladigan shaxs emas, balki u boy tasavvur va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lган kishidir.

U o'z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'ylab topadi, tasavvur etadi va to'qiydi. Eng muhim san'at asarlari o'z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, u rassomning g'oyalarini ifodalaydi, uni boyitadi, Shu bilan birga bunday asarlar tomoshabinga emotSIONAL ta'sir ko'rsatish kuchiga ham egadir.

Tasviriy san'atda manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy animal, afsonaviy, marina, nyu, interer janrlari mavjud. Janr rassom nimani tasvirlayotganligiga qarab belgilanadi. Masalan, odam rasmini ishlansa "Portret" tabiat va shahar ko'rinishlari tasvirlansa "Manzara", hayot va mehnat jarayonlari tasvirlansa "Turmush" janriga xos bo'ladi. Shuningdek, tarixiy voqealarni tasvirlash

tarixiy janrga, xayvonlarni tasvirlash, animal janr deb yuritiladi. Afsonaviy, marina, natyurmort nyu janrlari ham bo'ladi. "Animal" janri lotincha "anima" so'zidan kelib chiqan bo'lib xayvon ma'nosini anglatadi. "Batal" janri esa fransuzcha "batay" so'zidan kelib chiqan bo'lib jang,"nyu" janri franstuzcha bo'lib yalang'och ma'nosini bildiradi. Ayrim asarlar ikki va undan ortiq janrlarga mansub bo'ladi. Masalan, portret va nyu marina va manzara v. b. Har bir janr o'z o'rnida yana bir qancha janrlarga bo'linishi mumkin. Masalan tabiat manzarasi janri, shahar manzarasi janri, industrial manzara janri, dengiz manzarasi (marina) janri yoki portret janrini tantanavorlik, ishqiy, guruhli janrlarga bo'lish mumkin. Vaqt o'tishi bilan janrlar tabaqalashib, mustaqil tus oladilar. Masalan, manzara janridan marina, tarixiy janrdagi batal janri ajralib chiqganlar.

**Mavzuning dolzarbliji:** Milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiligi tasviriy va amaliy san'atining rivojlanishini oshirish, usta hunarmandlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1997-yil 31-martdagi PF-1714 sonli badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab - quvvatlash chora tadbirlari to'g'risidagi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1977-yil 4-iyun 282 – sonli qarorida o'z aksini topgan. Farmon hunarmandlar va amaliy san'at ustalari uchun o'z vaqtida qabul qilingan eng muhim xujjat va kelgusi ishlarni yanada rivojlantirishga dastur amal bo'ldi. Shuningdek farmonda yana "san'atning noyob turlarini va buyumlarining yuksak badiiy nusxalarni tayyorlashda an'analarni saqlab qolish, hamda bu ish ko'nikmalarini yoshlarga singdirish masalalari ko'rildi. Mohir ustalarni tayyorlash bo'yicha maxsus "Ustoz - shogird" maktablarini tashkil qilish" bayon etilgan. Shu qatorda amaliy san'at bo'yicha badiiy to'garaklar tashkil etib, amaliy san'atimizga qiziqqan yoshlarni jalb qilib o'rgatish ustuvor vazifa bo'ldi. Hozirgi kunda tasviriy san'at turlarigan manzara janrida, rassomlar va pedagog rassomlar tomonidan bir qator ijodiy ishlar olib borilmoqda. Bitiruv malakaviy ishi mavzusini o'rganish jarayonida, bir qator ijodkor ustalar qoldirgan ijodiy ishlardan namunalar, san'atshunos-metodistlar qalamiga mansub adabiyotlar bilan tanishib chiqdim.

Bunda tasviriy san'atning barcha janrlarini yanada rivojlantirishda, to'garaklarni qaytadan yo'lga qo'yib, tashkil qilishning o'rni haqida aytib o'tilgan.

Haqiqatdan ham bu to'garaklarni qaytadan to'liq yo'lga quyish va shu orqali O'zbekistonning buyuk pedagog - rassomlari olib borgan ish texnikasini asos qilib olish, mavzusini tanlashimga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda mamlakatimizda va undan tashqarida xalqimizning boy va betakror badiiy boyligiga va milliy qadriyatlariga, qolaversa o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy hayotida, hozirgi madaniyatning rivojlanishi uchun asos bo'lgan. Tanlangan mavzuning muhimligi shundan iboratki, mashhur manzarachi rassomlarning sirlarini mukammal o'zlashtirib, bu hunarni san'at darajasiga ko'tarishdir.

**Tadqiqot maqsadi: va vazifasi:** Mazkur bitiruv malakaviy ishi tasviriy san'at janrlaridan biri hisoblangan "Manzara" janri haqida bo'lib, barcha "Tasviriy san'at" fani o'qituvchilari, kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablari va to'garak o'quvchilarining ushbu san'at sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, kelajakda yoshlarni avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy an'analar asosida voyaga yetkazishni maqsad qilib qo'yadi. Bitiruv malakaviy ishning yozilishidan asosiy maqsad – tasviriy san'at janrlarini o'rganib chiqib, kerakli ma'lumotlar olishdir.

**Tadqiqot vazifasi:** Maqsaddan kelib chiqqan holda bir qator aniq vazifalar qo'yilgan :

- Manzara chizishning nazariy asoslari;
- Manzara chizish jarayonida perspektiva;
- Manzara kompozitsiyasi;
- Manzara janrida ijod qilgan rassomlar;
- Tasviriy san'atda manzara janrining ahamiyati;
- Manzara chizish jarayonida rang xususiyatlaridan foydalanish.
- Ijodiy ishning bajarilishiga ham tavsif berish.

**Tadqiqot ob'yekti:** Oliy ta'limda tasviriy san'at faninig o'rganish jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** Tasviriy san'at turlaridan rangtasvirdagi manzara janrida ijod qilayotgan rassomlar ishlarini o'rganish va tahlil qilish va amalda qo'llash.

**Tadqiqotning metodlari:** Mazkur vazifani hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim va'zirligining oliy ta'limga dahldor quyidagi hujjatlari o'rganildi: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".

Mavzuga oid psixologik –pedagogik adabiyotlar tasviriy san'at ga oid o'quv qo'llanmalar o'rganildi va tahlil qilindi.

**Tadqiqotning ilmiy fazasi:** Manzara janrida ijod qilgan va qilayotgan rassomlar ishlari orqali tasavvur, idrok, manzara chizish texnikasi texnologiyasini organish mumkin.

#### **Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:**

1. Manzara chizish orqali fazoviy tasavvur, estetik didni rivojlantirish usullari;
2. Manzara chizishda manzara kompozitsiyasi, manzarada ranglar uyg'unligi, idrok qilish.

#### **Ilmiy yangilik:**

1. Manzara kompozitsiyasi, manzara janrida ijod qilgan rassomlar, tasviriy san'atda manzara janrining ahamiyati o'rganildi;
2. Manzara chizishning nazariy asoslari, manzara chizish jarayonida perspektiva ko'rsatildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** Nazariy tadqiqot natijalari tasviriy san'at ta'limi uchun uchun yangi materiallar ishlab chiqishga imkon beradi. Natijalardan o'rta maxsus ta'lim jarayonida foydalanish mumkin.

**Bitiruv ishining tuzilishi va hajmi:** Kirish, ikki bob, bo'limalar, xulosa, adabiyotlar ro'yxati, ilovalar mavjud.

## Introduction

**Peyzazh** (fr. Paysage, from pays - a country, terrain) - a genre graphic arts (as well as separate product of this genre), in which main subject of the scene is primordial, or in one or another degree transformed person a nature. The Modern beliefs about landscape ed on length century with development artistic acceptance for his(its) scenes. In landscape product special importance is added building of the prospect and compositions of the type, issue of the condition of atmosphere, air and light ambience, their variability.

**The Landscape** - relatively young genre painting. The Age images natures appeared only as scene of the ambience of обитания personages, as window dressing for icons, for scenes genre plot and portrait subsequently.

**THE LANDSCAPE** - a word, which marks, except the general type of terrain and descriptions of the nature in literature, one of the genres graphic arts. The Subject of the landscape - terrain (from fr. landscape - "terrain", "country"), surrounding ambience, natural or transformed person nature (the land with her(its) landscape, type of the mountains, rivers, flap, wood), city and rural terrain. Accordingly distinguish natural, rural and town (architectural, industrial and others) landscapes. In natural select the seascape ("марина", but artist, expressing sea, name "painter of seascapes") and cosmic, astral - a scene celestial space, stars and planets. The Special place in town landscape occupies ведута - a documentary exact scene. In narrow and строгом sense follows to distinguish the landscape and landscape scene. The Landscape - "portrait" scene натурного type, that that there is that real exists. This as it were picturesque or graphic "фотоизображение". It individually and inimitable, his(its) possible, deform, but it is impossible придумать, сочинить. Unlike it landscape scene - any written by means of imaginations landscape types. The Term "landscape" usually means either or both of them.

The Landscape - not simply scene, but always artistic image natural and town ambience, her(its) determined interpretation that finds its expression in historically being replaced style landscape art.

## **I BOB. Kompozitsiya tarixini rivojlanishiga qisqa izoh.**

### **1.1 Rangtasvirda manzara kompozitsiyasining ahamiyati.**

Kompozitsiya so'zi lotinchadan kompositio-yani predmetlarini bo'laklarini solishtirib, ma'lum tartibda yaxlit joylashtirish, g'oyaga muvofiq ijod qilish, bayon qilish, kompozitsiya tuzish demakdir. Kompozitsiya, san'atning hamma turlarini negizida mavjud: adabiyot, teatr-kino, musiqa, tasviriy va amaliy san'at, arxitektura va hokazo. Kompozitsiya o'quv predmet sifatida, qalamtasvir, rangtasvirdan keyin paydo bo'ldi va hozirda kompozitsiya kursi oliy ta'lim kasbhunarları o'quv rejalariga kiritilgan. Tasviriy san'atda kompozitsiya fani talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga kompozitsiya qonun-qoidalarini, haqiqatni to'g'ri shaklda ifodalash usullarini o'rgatadi. Tasviriy san'atda kompozitsiya qalamtasvir, soya-yorug', rang, havo va chiziq perspektivasi kabi tasviriy vositalar bilan yaratiladi. Kompozitsiya kursi talabalarni mustaqil ijodiy va pedagogik faoliyatida obrazli fikr yuritishda katta ahamiyat kasb etadi. Kompozitsiya fani suhbat, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardan iborat.

Kompozitsiyani asosiy qonun qoidalari, usul va vositalari, talabalar tomonidan amaliy mashg'ulot va suhbatlar jarayonida mukammal o'rganiladi. Kompozitsiya-o'quv predmet sifatida, haykaltaroshlik, me'morchilik, grafika, qalamtasvir, rangtasvir, san'at tarixi kabi mutaxassis fanlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Qalamtasvir va rang tasvirda rassom bevosita kompozitsiya asoslariga murojat qiladi, uning qonun-qoidalari bilmay turib kompozitsiya, qalam tasvir, rang tasvir moxiyatini tushunib yetmaydi. Ushbu kompozitsiya o'quv qo'llanma predmetining moxiyati, uning tasviriy san'atda rivojlanish tarixi, badiiy ijodning asosiy qonun qoidalari, vositalari va ularni pedagogika universitetlarining Badiiy-grafik fakultetlarida o'qitish metodlari hakida tavsiyalar tushunchalar beradi. Shuning uchun rassom –o'qituvchilarni tayyorlashda kompozitsiya fanining eng murakkab va muxim fan sifatida o'rganish tavsiya etiladi.

Tasviriy san'atda kompozitsiya qonun va qoidalari insoniyatni ibtidoiy taraqqiyot davridan boshlab shakllana boshlagan. Lekin ibtidoiy davr odamlari hayotni zexn bilan kuzatsalarda, kompozitsiya sezgisi juda bo'sh rivojlangan. Bunday xolatni odam gavdasi va hayvon podalarini tartibsiz aloxida tasvirida kurishimiz mumkin. Qadimgi sharq san'atidagi kompozitsiya ibtidoiy davrdan aloxida farq qiladi. Qadimgi sharqda kompozitsiya mavzusi tekislikda qat'iy ma'lum tartibda tasvirlanib, quldorlik jamiyatning (marosimlari) Qonunlariga bo'ysundirilgan. Qadimgi Misr san'atida kompozitsiyani dastlabki yangi usullari paydo bo'la boshlagan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy hayotni ongli rivojlanishi natijasidir. Tasvirga chizg'i, o'lcham, rang va tus munosabatlari yuqori darajaga ko'tarildi. Qadimgi dunyo rassomlari tabiat yaratgan o'simlik, barg va gullarni tuzilishida, yil faslini ketma-ket kelishida simmetriya va ritm tushunchalarini anglab, o'z ijodiy asarlarida, kompozitsiyada qo'llay boshladilar. Shuning uchun qadimgi greklar relef, fronton kompozitsiyalarida ritm va simmetriyadan unumli foydalanganlar. Uygonish davrigacha kompozitsiya faniga bag'ishlangan biror bir nazariy qo'llanma yaratilmagan. Uygonish davri renessans insoniyatga ulug' san'at allomalarini yetkazib berdi. O'sha davr rassomlari estalik, kundalik, ilmiy maqolalarida kompozitsiya haqida qimmatli fikr, xulosalarni yozib qoldirdilar. Erta uyg'onish davrining vakillari Djotto va Mazachcho o'z ijodlarida perspektiva, plastik anatomiya, geometriya qonunlarini amalda qo'llab, kompozitsiya fanining bilimdoni ekanliklarini misolda ko'rsatdilar. Yuqori uyg'onish davri rassomlari san'atning har xil turlarini bir-biri bilan bog'lab, uning nazariyasini ilmiy asoslagan xolda rivojlantirdilar. Ular perspektiva yordamida kartinada chukurlik, masofani tasvirini haqqoniy namoyon etishga erishishdi. Ko'p yillik kuzatuv va analiz natijasida ko'zga ko'rigan rassomlarning asarlarini g'oya tuzilishi, rang yechimidagi uslub, amaliy tajribalarini umumlashtirib Alberti "Rang tasvir haqida uch kitob" ilmiy nazariy meros yozib qoldirdi.

Leonardo da Vinci va Alberti o'z maqolalarida badiiy asarlarida statik (harakatsiz) va dinamikaga (harakat) aloxida axamiyat bergen edi. Franstuz rassomi E. Delakrua o'z kundalik va ilmiy maqolalarida Leonardo da Vinci, A. Dyurer, P.

Rubenslarni kompozitsiyaga oid traktlarini kengaytirib chuqur ma'nolar bag'ishlab davom ettirdi.

Osmon yulduzlarini shu'lasi ta'sirida inson jismiga Ollohdan in'om etilgan g'o'zallik va qobiliyatni o'ziga mujassam etgan allomalarni yer yuziga kelishini insoniyat bir necha bor guvoxi bo'lgan qobiliyatni Leonardo da Vinchi go'zal qiyofasida har qanday mushkul ishlarni osonlik bilan uddasidan chiqadigan odil inson shaklida ko'ramiz. Vinchi shaxridagi janob Peroning o'g'li Leonardo, shunday iloxiy kuch-qudratga ega ediki, u bir necha oy lab, matematika bilan shug'ullanar, lirada musiqa chalar qushiq aytib malakasini oshirardi. Shunday bo'lsada asosiy qiziqishi bo'lgan rasm chizish va haykaltaroshlikni tashlamadi. Xudo bergen betakror aql-zakovatli, xotirasi kuchli buyuk alloma chizgan tasvirlari bilan insonni xayratga solar, fikr-muloxaza kuchi bilan lol qoldirardi. U Milan shaxrida Dominikanlik aka – ukalar uchun "Maxfiy kecha" nomli go'zal asar yaratdi. Avliyolarni chexrasiga husn qushib, ulug'vor qilib tasvirlanadi. Faqat Iisusni yuz qiyofasini tasvirlashda ilohiy qudrati yetmaydi chala qoldirgan va umrini oxirigacha bitira olmagan edi. Leonardo odam anatomiyasini Galena ta'limotiga asoslangan chuqur o'rgandi, murdalarning suyak muskullarini pero va qizil qalamda sinchiklab chiza boshladi va odam anatomiyasi tasvirlari kitobini yaratdi. Otlarning suyaklari anatomiyasi kitobini ham yaratgan. Bu anatomiyaga oid chizgilarning ko'p qismi Leanardoning avtoportretlari bilan bir qatorda bizlargacha yetib kelgan. Leonardo Franchesko del Djokondo uchun uning xotini Liza portretini 4 yil mobaynida ishladi, ammo shunday bo'lsada portretni oxiriga yetkazaolmadı. Portretda ayolning hamma go'zal xislat, fazilatlari, yarqiragan nam ko'zlari kipriklarigacha jonli odam nigoxini ko'rinishida qilib tasvirlagan. Tasviriy san'tda bunday toj asarning mavjudilgini dunyoda eng qobiliyatli, zexnli olim, alomma musavvir qalamiga mansub bo'lishi xaligacha insonlarni beixtiyor hayratga soladi. XVI asr oxirida kompazistiya o'quv fani sifatida shakllana boshladi. Buni V. Neleng, S. Vasil'ev kabi metodistlarning Fransiya safaridan so'ng o'qitish sistemasi hqidagi xisobotlari orqali bilish mumkin. 1882 yili tanikli pedagog – rassom Violie Le Dyukani «Tarixchini tarixi» kitobi rus tiliga tarjima qilgan edi. Bu kitob shaxsiy

ish tajribasidan kelib chiqib, tasviriy san'atni o'qitish metodikasidan suhbat tarzida berilgan. Bu kitobni «Sochinenie» qismida, fantaziya, perspektiva ma'lum qonunlarga tayanishini uqtirib o'tilgan. Tasviriy san'atda kompazistiya masalalari haqida dastlabki metodik bayonnomma muallifi amerikalik pedagog –rassom A. Doudir. Bu o'quv qo'llanmada tasvirda har xil shakl, tuslarni qog'oz va matoga to'g'ri joylashtirish, qog'oz hajmi va formatiga alovida axamiyat bergen. Tasviriy san'atda yangi impressionizm oqimining paydo bo'lishi – rang tasvirda yangilanishga vosita bo'ldi, san'atni oldinga rivojlanishiga turtki vazifasini o'tadi. Impressionistlar rang politrasini boyitdi. XX asr boshlarida g'arbiy Yevropa davlatlarida va Rossiyada har –xil badiiy oqimlar paydo bula boshladı: futurizm kubizm, ekspressionizm, dadaizm, syurealizmlar shular jumlasidandır. Tartibsiz muloxaza, karama - karshi fikrlarni kurashi tasviriy san't va kompazistiyani o'qitish metodikasiga chalkashlik va tartibsizlik olib kirdi. XX asrning birinchi chorasida tasviriy sanat g'arbiy Yevropa va Amerikada berk ko'chaga kirib qolgan edi. Shu bilan birga ko'p san'at mакtabalarida rassomlar realistik san'at yo'lida kompozitsiya nazariyasini o'rganishni davom ettirdilar. Rossiya tasviriy san'atida XVIII asrgacha ikona rangtasviri taraqqiy etgan edi. Eng qobiliyatli rus ikonachi rassomlardan biri Andrey Rublev edi. Uning mashxur «Troista»si ikona janridagi qadimgi klassik kompozitsiya namunalaridan biri xisoblanadi. Kompozitsiyada bu rassom gavda xolatinig aniq tasviri, rang garmoniyasi va yaxlitligiga erishdi. XVIII asr Rus tasviriy san'atida, realistik badiiy mакtabning asoschilari A. P. Losenko, G. I. Ugryumovlar xisoblanadilar. Rossiyada Peterburg Badiiy akademiyasini bitirgan A. Ivanov, A. Egorov, V. Shebuev, A. Venestyanov, K. Bryullovlar uz jodiy va pedagoglik faoliyatlarida kompozitsiya muammolariga kuprok axamiyat berib, tasviriy san'atni yangi pog'onaga ko'tardilar. 1757 yili tashkil topgan Peterburg Badiiy akademiyasida mutaxasislik fanlarini uqitishni muntazam tarzda yulga kuyilishi, Rossiya tasviriy san'atini rivojlanishiga o'z ta'sirini kursatdi. Mashxur rassom va pedagog A. P. Losenko o'z faoliyatida ijodiy yondoshib kompozitsiya masalalari ustida ishladi. U xamma tasviriy vositalar asar g'oyasiga, mazmuniga qaratilgan bulishini ta'kidladi. Losenko o'z vaqtida akademik ta'lim metodini

yangilashni angladi va yangi uslub-metodikasini ishlab chiqdi. Chunki Bolon maktabi tizimida bo'lib, birinchi navbatda ulug' rassomlarga taqlid qilinar edi. Uning yaratgan Akademiya uqitish nazariyasi XIXasr o'rtalarigacha davom etdi. Losenko davridayoq Rossiya Badiiy Akademiyasi dovrig'i va obro'yи dunyoga tarqaldi. A. P. Losenko yuqori saviyali kompozitsiya ustasi edi. Buni «Vladimir pered Rognedoy» kartinasi misolida ko'rish mumkin. Losenko dars bergen tarixiy janr sinfida kartina tuzilishi masalalariga ko'p e'tibor berilar edi. P. I. Sokolov, G. I. Ugryumov, O. A. Kiprenskiy, K. P. Bryullov kabi ulug' rassom pedagoglar A. P. Losenko o'qib ta'lim oldilar. Losenko boshlagan ishni Akademiyadagi pedagogik faoliyatini G. I. Kozlov, P. I. Sokolov (1782 y)kabilar davom ettirdilar. Ayniksa Ugryumov, Losenko boshlagan tarixiy janr sinfida kompozitsiyani davom ettirdi, kompozitsiya nazariyasini mukammallashtirdi. Uning o'quvchilaridan A. Ivanov, A. Yegorov, V. Shebuevlar xam ustozning uslublarini davom ettirdilar.

Shunday qilib rassom-pedagog va metodistlar XVIII va XIX asr boshlarida tasviriy san'at va kompozitsiyani o'quv predmet sifatida rus badiiy maktabda o'qitilishni mumkiligini isbotladilar. Bu yo'nalish rangtasvir kompozitsiyasi ustasi K. Bryullov tomonidan qullab quvvatlandi.

K. Bryullov o'zining pedagogik va ijodiy faoliyatida gavdaning plastik tuzilishiga, asarda kompazistiya muvozanatini haqqoniy tasvirlashga axamiyat berdi.

«Pompeyning oxirgi kuni» asari bunga yorqin misol bo'la oladi. Asarda insonni xayotda sodir bo'ladijan xavfli, fojiali dramatik daqiqalardagi xolati, tabiatda chaqmoq natijasidagi kuchli yorug' nurlari ostida bo'layotgan t'sirchan voqeа kontrast ranglarda tasvirlangan.

Odamlar ko'zidagi qurqinch, ularning go'zal nigoxi, xatti harakatlari, shijoatli onalar badiiy yuksak moxorat bilan, yuqori darajada jozibali tasavvur etilgan. Bryullov bu asarida badiiy Akademianing yuksak ananalarini davom ettirdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ilg'or ma'rifatli rus rassomlari tashqi dunyoni xayotda to'g'ri tasvirlash uchun kurash olib bordilar. Realistik san'atning rivojlanishiga I.N. Kramskoy boshliq sayyor rassomlar katta ta'sir ko'rsatdilar.

Asosan xalq manfaatini ko'zlab, xayotdagi muxim voqealarni kuzatib, ijod qildilar, asarni g'oysiga axamiyat berdilar. Ko'plab rus rassomlarining ustozi P.P. Chistyakov mutaxassislik fanlarni o'qitishning yangi tizimini yaratdi.

Realistik san'atning buyuk namoyondasi I.E.Repin kompazistiyani nazariy va amaliy rivojlanishiga muxim xissa qushdi. Shuningdek tarixiy janrda har tomonlama yangi novatorlik vositalari bilan V.Surikov rus rassomlariga o'z ta'sirini o'tkazdi. U kompozitsiya eskizini bajarishga aloxida e'tibor berdi. O'ylagan mavzu rassom tasavvurida tiklansa u darrov qo'liga qalam, ko'mir, mo'yqalam olib eskiz bajarishga kirishardi. Ayniksa «Boyarina Merozova» kartinasi uchun, o'nlab, yuzlab qalamlavxa, ranglavxa, eskizlar bajargan. U mavzuga oid bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni sinchiklab o'rghanadi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya san'atida va uqitish tizimida ilg'or – progressiv yo'nalish bilan bir katorda reakstion kuchlar ta'sirida, burjua falsafasiga taqlid qilgan yangilik – «novizma» oqimi xali paydo bo'la boshladi.

Maishiy janrdagi kartina mazmuni, kompozitsiyaning badiiy yuksak yaxlitligi asta – sekin o'z kuchini yo'qota bordi. Buyuk pedagog rassom D.N.kardovskiy bularga qarshi murosasiz kurash olib bordi va realizm pozistiyasida turib ximoya kildi.

D.Kardovskiy xam P.Chistyakov kabi tasviriy san'atdagi ardoqli pedagog – rassomlardan edi.

V. Efanov, D.Shmarinov kabi ko'plab Rossiya rassomlari uning ustaxonasida yaxshi ta'lim oldilar.

Ko'p yillik pedagoglik faoliyati mobaynida qalamtasvir va kompozitsiyadan mukammal o'quv tizimi shakllandi. Kompozitsiya xayot xodisalarini obrazli aks ettiruvchi vosita bulib talabalardan ma'lum formatda, oddiydan murakkab eskizlar bajarishga o'tish prinstiplarini qo'ydi. Keyinchalik kompozitsiyani nazariyasi, amaliyoti va ularni o'qitish metodikasini asosiy prinstiplarini ishlab chiqishda V. Favorskiy, A. Deyneka, K.Yuon, E.Kibrik, A.Alpatov, G.Nisskiy, F. Reshetnikov, D. Shmarinov kabi ulug' rus rassomlari uz xissalarini qushdilar.

Bularning ichida K.Yuon, A. Deyneka, E. Kibrik, M. Alpatovlarning qoldirilgan ijodiy va ilmiy nazariyasi tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish o'rini.

Kompozitsiya nazariy asoslarni rivojlantirishda salmoqli xissa qo'shgan rassomlardan yana biri Konstantin Yuondir.

Ulug' rassomlarni asarlari misolida kompozitsiya tuzilishini taxlil qilib: kontrast, vertikal, gorizontal, diogonal, simmetriya, assimetriya, aylana, uchburchak, muvozanat, ritm yaxlitlik, dinamik, statik xolat, yorug', rang koloriti, ko'rish nuqtasi, gorizont, kompozistiya plani, maxobatlilik, dekorativlik kabi tasvir uslublarini ko'rsatib berdi. K.Yuon kompazistiyani o'qitish metodikasi saviyasini yuqori darajaga qo'yish kerak deb xisoblardi.

Har xil mavzudagi kompozitsiya eskizini bajarish jarayonida xomaki tasvir, yorug' va ranglarni har xil xolatida perespektiva qoidalarini ishlata bilishni tavsiya qilardi. Qo'shimcha xayot taassurotlarini, gavdani turli xolati, gurux odamlarni harakatdagi ko'rinishi, tipaj, liboslar, xona, bino burchaklaridan chizgilar chizib, ulardan unumli foydalanishni tavsiya etardi.

Kompozitsiya masalalaridan takomillishtirishga munosib xissa qo'shgan buyuk rassomlarda biri E. Kibrikdir. U o'z asarlari bilan grafika san'atini yuqori cho'qqilariga olib chiqqan san'at ustalaridan biridir. U o'zining «Kompozistiya masalalariga doir» (1961y) kitobida kompazistiyani tasviriy san'tdagi ob'ektivqonunlarni, kompazistiyani o'qitish soxasidagi metodik qo'llanmadagi kamchiliklarni uqtirib o'tdi. Kompazitsiya qonun- qoidalarini chuqr bilish, qobiliyatli ijodkor ongiga sayqal beradi. Yetuk rassomlarning ijodiy tajribasiga va kompazistiyani o'qitish uslubiyatiga asoslanib Badiiy Akademiya tomonidan 1960-64 yillari nashr etilgan 8 jildli «Shkola izobrazitelnogo iskustva» nomli metodik kullanma tasviriy san'at manbaini boyitdi.

Tasviriy san'atda kompazistiyani rivojlantirish tarixi bilan tanishib, imkoniyat darajasida mavjud fanga tegishli ma'lumotlarni tartibli ravishda o'rganib, kompozitsiya nazariyasi xaqida xulosaga ega bo'ldik.

### **Kompozitsyaning asosiy qonunlari.**

Har qanday ijodkor o'tmishdagi rangtasvir sana'ti ustalarini merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir , kompozitsiya qonun uslubiyatini xam o'rganadi.

Amaliyotda kompozitsyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrast qonun vositalarini mazmuni va g'oyaga bo'yish kompozitsiyani asosiy qonunlari deb xisoblanadi.

Kompozitsiyadagi omma – xaloyik tasviri dioganal joylashgan bo'lib, kartinani to'rt burchagini bog'lab turadi. Nixoyatda ko'p sonli xaloyiq jamoa tasvirlangan bo'lsada, har bir kishi harakteri, nusxasi salbiy, ijobiy obrazlar, sinfiy qarama - qarshiliklar, xullasi rus jamiyati uz ifodasini topgan. Xaqiqat qonuni – asosan uchta belgi bilan ifodalanadi. Birinchi belgi bu badiiy asarda sodir bo'layotgan voqeani vaziyatning o'ziga xosligi. A. Savrasovning «Qora qarg'alar uchib keldilar», I. Levitaning «Oltin kuz», A. Kuindjining «Qayinzorda», A.Rilovning «xavo rang kenglikda» manzaralarida mazmun, nafosat, bilan birga rus tabiatini o'ziga xos obrazi tasvirlangan. Tipizastiya qonunining ikkinchi belgisi – bu sodir bo'layotgan voqeа mavzusini, harakat xolatini vaqtini tasvirlaydi.

Badiiy obrazdagi estetik sifatlar, kompozitsiya yechimidagi yangiliklar rassom tomonidan kashf etiladi.

Estetik kashfiyotlarni Mikelanjelo, Tistian, Rembranatning o'lmas asarlarida, A. Deyneka, A. Plastov, K.Yuon Asarlarida kompazistiya tuzilishini badiiy vositalaridan mavzuda yangilik tushunchasini ko'ramiz. «Novizna» - yangilik oqimini biz A. Kuindjining «Qayinorlar», V.Polenloning «Moskvadagi xovli», manzarasida ko'ramiz. Kompozitsyaning asosiy qonunlaridan biri kontrastlik qonunidir. Leonardo da Vinchi «Rangtasvir xaqida trakt» ilmiy asosida katta – kichik, past – baland, yupka - qalin, harakter, faktura, materiallar kontrasti to'g'risida yozadi. Mikelanjelo tekisligidagi xajm kontrastlariga ko'p axamiyat beradi. Inson predmetlar shaklini faqat soya va yorug' kontrastlik orkali sezadi va o'z ongiga singdiradi. Portret janrida rassomlar kadimdan «ton kontrasti»dan

foydalanib, yorug' figurani tasvirlashda to'q fondan foydalanganlar. XIX asarda san'at ustalari portretni yorug' fonda tasvirlay boshladilar. V. Serovning «Shaftolilik qiz» portretida, yuzi to'q tusdagi qiz, yengil yorug' deraza fonida tasvirlangan.

Rangtasvirda kontrast qarama - qarshi issiq va sovuq ranglar mavjud. qarama - karshi ranglar bir – biriga yonma – yon tursa, ranglar kuchi kupayadi: Kizil – yashil, kuk – zargaldok, ok - kora va xakozo.

Kompazistiyaning tuzilishida «Psixologik kontrastlar» xam mavjud. Iogansonning «Eski Ural zavodida» kartinasida erga egilib utirgan ishchini yangi kimmattaxo libosda turib, sinchiklab kuzatayotgan fabrika egasiga qarama - qarshilik qonuni kuchli tasvirlab berilgan.

### **Kompozitsiyaning qoida, usul va vositalari.**

San'at asarlarini taxlil kilganimizda, kompazistiya koida va usullari uz moxiyatini asta – sekin yukotib, yangi kompazistiya koidalari paydo bula boshladi. Badiiy asar yaratishda rassomlar tabiiy va ongli ravishda kompozitsiya qonunlariga rioya kilishadi. har bir ijtimoiy – jamiyat san'at oldida yangi zamonaviy vazifalarini kundalang kuyadi. Hozirgi vaqtida biz kompozitsiyani nazariy asoslarini ikki guruxga ajratamiz. 1. Kompazistiya qonunlari. 2. Kompazistiya koida va usullari.

**Kompozitsiya usul (yullari).** Kompozitsiyani asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompazistiya mavzusi markazini aniklash, simmetrik yoki assimetrik xolati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy kurilmasini joylashtirish. Ritm xayotda va san'atda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositadir u bir elementni oralikda galma –gal kaytarilishidir. Asar goyasini kompozitsiya tuzilishini idrok etishda ritm estetik obrazli tasavvur rolini uynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi.

### **Kompozitsiya usullari.**

Kompazistiyani paralel, vertikal yo'nalishda bo'lishi tantanali ulug'vor, ko'tarinki rux xolatini anglatadi. Bunga L. Abdullaevaning «Kurik yer ochuvchilar», kartinasi misol bo'lishi mumkin. Dioganal yunalishi esa harakat xolatini kuchayishi yoki susayishini ko'rsatadi. V. Surikovning «Boyarina Morozova» kartinasida chananining harakatdagi yonalishi, chopib borayotgan bola, xayajon bilan kuzatib turgan turli libosdagi xaloyiq-omma pastki o'ng burchakdan, yuqori – chapburchakka dioganal yo'nalishida tasvirlangan. Asarda harakat yo'nalishini o'ngdan chapga susaygan xolati masofani chuqurligini ifodalashga imkoniyat beradi.

**Kompozition vositalar.** Chiziq, shtrix, rangli va tusli dog' (surtma) chizma perespektiva, soya – yorug', rang, xavoli va rangli prespektivalar kompozitsyaning vositalaridir.

Chiziqni esa tasviriy san'atning asosiy vositalaridan biri deyish mumkin. Undan uzoq muddatli, qisqa muddatli chiziqlar bilan kompozitsiya eskizlarida foydalilanildi. Rassom qog'oz tekisligida predmet shaklini ochroq, to'qroq chiziqlar orkali ifodalashi mumkin. Kompozitsiyani amalda dastlab chizik tasvirda bajariladi. Keyingi boskichda shtrix chiziklarni kalinligi orkali predmetlarni soya, yorug joylariga shakl berib, chukurlik, masofani ifodalashga beradi. Rang va tusli dog kompozitsiya mashgulotida muxim rol uynaydi. Asarda plastik xajm, chizikli, xavoyi, rangli perspektivalarni roli kattadir. Kompozitsiya kursini asosiy vazifasi talabalarda ijodiy fikrlashni, san'atni idrok etishni va taxlil kilishni, xayotni kuzatish va obrazli tasavvur etish, badiiy estetik did va madaniyatni shakllantirish, ularni badiiy – pedagogik faoliyaiga tadbik kilishdir.

**Kompozitsiya amaliy xamda nazariy kismdan iborat.** Nazariy ma'ruzalar auditoriyadagi amaliy mashgulotlarni, uy vazifalarini ongli ravishda bajarishni idrok etadi. Kirish kismida kompozitsyaning asosiy qonun – koidalari, usul va vositalarini uz ichiga oladi. Tasviriy san'atni janr turlaridagi kompozitsiyani uziga xos muammolarini, san'at asarida mavjud qonun talablarini ifodalaydi. Kompozitsiya nazariyasidagi bilimlarni chukur uzlashtirishda, maxsus seminarlarni roli katta. Bulardan tashkari talabalarni mavzular asosida referat yozib

ma’ruzalar bilan chikishlari, ularni muxokama kilish yaxshi natija beradi. Amaliy kismida asosiy maksad talabalarada ijodiy kobiliyatni shakllanishiga, xayotni kuzatish, uni tasviriy vositalar bilan aks ettirish, boskichma – boskich eksizini oxirigacha etkazishdan iboratdir. Amaliy mashgulotlarda kompozitsiya eskizini mazmun goyasini maksad va vazifalarini ongli ravishda idrok etish muximdir. Bajarilgan amaliy vazifalarni kamchilik va sabablarini muxokama kilib tushuntirib ijodiy fikrlashni shakllantirish lozim. San’at muzeylari, badiiy kurgazma zallariga, ekskursiya, etuk rassomlar bilan uchrashuvlar tashkil etish, ular bilan suhbatlar utkazish, talabalarda badiiy ongni boyitadi. Berilgan mavzu buyicha eng «yaxshi kompozitsiya eskizi uchun» talabalar urtasida konkurs e’lon kilib yaxshi eskizlardan kurgazmalar tashkil kilishi, goliblarni ragbatlantirish ijodiy samara beradi.

Qalamtasvir yoki rangtasvir asarining kompozisiysi «struktura» siga aloqador tushuncha mohiyatini qisqacha tarzda ko’rib chiqaylik. Buning uchun kompozisiyaning son bog’liqligi munosabatlarini birma-bir keltirib o’taylik: bu chizilayotgan narsaning absolyut o’lchamining uning asliga nisbati, chizilayotgan o’lcham tomonlarining o’zaro nisbatlari, predmetlarning masshtabi, ular orasidagi masofalar, narsalarning qanday burilib turganligi, ufq sathi darajasi, yorug’lik manbaining holati, soya-yorug’ning taqsimlanishi, tusi, soya va yorug’ning nisbiy muvozanati, shuningdek asosiy rang dog’lari muvozanati, tasvirlanayotgan ob’yektlar bo’laklarining o’zaro joylashishi, qiyofalar va fonga nisbatan «kontrast»lar farqi (rang, soya-yorug’, o’lcham) kompozisiya unsurlarining fazodagi ko’rinishini tashkil qilish (metr, ritm) va boshqalar.

Yuqorida keltirib o’tilganlarning barchasi predmetlarning sondagi belgilaridir. Ularni o’lchash va sanab ko’rsatish mumkin. Kompozisiyada qancha narsa ishtirok etayotganini aniqlash imkoniyati aniq. Shunday qilib ko’rish orqali qabul qilish mumkin bo’lgan belgilarni kompozisiyaning vositalari deb atashimiz mumkin. Bu asosda esa rassom ularning bevosita yordamida o’z fikrini ifodalash imkoniyatiga ega bo’ladi. Xuddi musiqa yaratayotgan kompozitor notalardan foydalangani singari rassom ham yuqorida sanab o’tilgan vositalardan

foydalanim, o'z asari g'oyasini yuzaga chiqaradi, tasvirlarda ko'rsatib beradi. Sondagi kompozisiya sifatini ta'minlovchi, fikrni to'liq ifoda etishga xizmat qiluvchi belgilarni jamlovchi holat mazmunikompozisiya tamoyillari deyiladi. Ular: yaxlitlik, mutanosiblik, o'lchamlar muvofiqligi muvozanat, birlik va uzviylikdir. bular orqali rassom ishning sifat darajasini ta'minlaydi. Natijada asar kompozisiyasi yuzaki emas, balki chuqur ma'no kasb etadi, tafakkurlash natijasida tushuniladi. Rassom kompozisiya tamoyillarini ustalik bilan qo'llab, har tomonlamayutuqqa erishadi, kompozisiya bekamu-ko'st bo'ladi. Ma'lumki, kompozisiya tamoyillari uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ular quyidagicha: frontal, hajm-fazoviy va chuqurlik-fazoviy kabilardan iborat. Bulardan birinchisining belgisi – kompozisiyaning ikkita koordinat orqali (vertikal va gorizontal) riaojlanishini bildiradi.

Unda uchinchi koordinat chuqurlik qolgan ikkisiga bo'ysungan holatda ishtirok etadi. Bunday kompozisiya amaliy – bezak kompozisiyalarida ko'p qo'llaniladi, hajm-fazoviy kompozisiyalarida esa shakllar uch o'lchamli holatlarda yaratiladi. Ular har tomondan turib, aylanib ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, haykaltaroshlikda qo'llanadi. Chuqurlik-fazoviy kompozisiya predmetlarni kartina teksligida tasvir etishda qo'llanadi va dastgohli rangtasvida foydalaniladi.

Tarixdan ma'lumki o'tmishning ulug' rassomlari kompozisiya masalalariga juda jiddiy yondoshganlar va o'z asarlarini yaratishda umumqoida bo'lib qolgan tamoyillarga amal qilganlar. Kompozisiyaning «vertikal», «gorizontal», «doiraviy», «kvadrat», «burchak» va boshqa ko'rinishlarini qo'llab, yuksak natijalarga, go'zal ifodaviylikka erishganlar. «Oltin kesim» kompozisiya usulidan unumli foydalanish har sohada qo'l kelgani ham ma'lum.

Kompozisiya tuzishga mohir bo'lgan va uni o'z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo'yqalam ustalari ko'p, ularga misol qilib quyidagilarni qisman atab o'tsak o'rini bo'ladi. Bunday o'tmish tasviriy san'ati ustalari: Leonardo da Vinchi. Mikelanjelo, A. Dyurer, J. D. Engr, P. Rubins, Rafael, Tintoretto, A. Ivanov, K. Bryullov, I.YE. Repin, YA. Mateyko va boshqalardir.

O'zbek rassomlaridan tasviriylar san'atning turli tur va janrlarida ijod qilgan va hozirgi paytda ajoyib asarlar yaratib kelayotgan musavvirlardan nomlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. U. Tansiqboyev, I. Ikromov, Z. Inag'omov, CH. Axmarov, X. Husniddinxo'jayev, A. Abdullayev, R. Axmedov, R. Choriyev, I. Jabborov, A. Boymatov, J. Umarbekov, SH. Abdurashidov, A. Mirzayev, S. Abdullayev, A. Ikromjonov, B. Jalolov, A. Nuritdinov, O. G'oziyev va boshqa ko'plab ijodkorlarni bemalol kompozisiya ustalari deb atashimiz, ularning asarlarini ijobiy jihatlarini tahlil qilib, ibrat olishimiz mumkin, bu albatta o'quv-mashqlarni bajarishda nazariy asos vazifasini o'taydi.

### **Interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt kompozisiyasining faktorlari.**

Ma'lumki tasviriylar san'atni o'rgatish tajribasi, ayniqsa, kompozisiya masalalarini hal etish jarayonida interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt faktorlarini to'g'ri ochib berish uning ifodaviyligini ta'minlashda kata ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Ma'lumki, interyer ko'pchilik kompozisiyalarning muhim qismi sifatida foydalaniladi. U ayniqsa, natyurmortlarni ishlashda ko'p qo'llanadi. Keng qamrovli mazmun mohiyatga ega bo'lgan natyurmort kompozisiya asarlarida va shuningdek o'quv mashqlarida ham xona ichi tasvirlanadi. Unda esa albatta kompozisiyaning barcha qonun-qoidalari va amallariga rioya qilinishi taqoza etiladi. Bunda uning chiziqli perspektiva qurilishi, fazoviy holatlari, atrof-muhit ko'rinishi realistik tarzda, metodik izchillikdan bilimdonlik bilan aks ettirilishi lozim.

Agar kompozisiyaning biror- bir unsuri e'tiborsiz qoldirilsa, unda umum tasviriylar jixatlari bo'sh, ta'sirsiz chiqib qolishi mumkin. Masalan, natyurmort kompozisiyalaridan atrof-muhit, fazo holatlari muhim hisoblanib, ularni ifodali tasvirlash orqali mavzuni belgilovchi zamonaviylik hamda vaqtni, asar ishlangan paytdagi fasl xususiyatlariga dovr aniq, tiniq ko'rsatib berishi mumkin. Mazmuni chuqUr va qiziqarli chiqishi natyurmort qo'yilib tasviri etilayotgan xona ichi ya'ni interyerning qanday yoritilganligi, undagi buyumlarning qanday joylashganligiga ham bog'liqdir.

Chunki ular orqali kompozisiya g'oyasini yanada teranroq ochib berish imkoniyati tug'iladi. O'sha har biri o'zicha muhim bo'lgan narsalar orqali vaqt

mezonlarini, davr xususiyatlarini ham to'liq badiiy tarzda ifodalash mumkin. Odam qiyofasini interyerda aks ettiradigan kompozisiyalarda ham vaqt, fazoviy holatlar, atrof-muhit tasviri orqali ko'rsatib beriladi. Chunki ular kompozisiyadagi rangdorlik tus-rang munosabatlarini, ta'sirchanlik va mazmunni belgilovchi komponentlar sifatida yuzaga chiqadi. Ma'lumki o'quv mashqlaridan, kompozisiya chizish jarayonlarida bu muhim omillar aslo unutilmasligi lozim.

Chunki ular kompozisiyaning o'lchamini, tomonlarining rang va to'q - ochlik, demakki, tus munosabatlarini, yaxlitlik va muvozanatlarini belgilab, muallif o'z oldiga qo'ygan g'oyatasvirini yuzaga chiqarishda yordam beradi. Mazmunning tushunarli, lo'nda, qiziqarlichiqishida xizmat qiladi.

Xona ichini kompozisiyaning bir komponenti sifatida tasvirlash ham oson emas. U ko'pincha tasvir etilayotgan voqelikning yordamchi bir foni vazifasini o'tasada, unga muhim bo'lak sifatida yondoshilishi kerak. Masalani, interyerni chiziqli perspektiva holati to'g'ri topilmas ekan kompozisiyaning fazo viy o'lchamlari va ifodaviyligining haqqoniy aks etishi mumkin bo'lmay qoladi. O'z navbatida atrof-muhit ham kompozisiyaning umumiyy g'oyaviy mazmunini belgilovchi unsurlardan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan shu narsa ayon bo'ladiki, demak – interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt kompozisiyasining mazmunli chiqishida muhim rol o'ynovchi, o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda tasvirlanadigan zarur kompozisiyaning faktorlari ekan. Shu sababdan ularning tasviriga katta e'tibor bilan yondashish zarur. Interyerda aks ettiriladigan har turli kompozisiyalarni bajarishdan avval albatta ko'plab yordamchi eskizlar, qoralama-lafha suratlar ishlanishi kerak. Ulardan foydalangan holda kompozisiyada xonaning qanday qismi tasvir etilishi topiladi. Perspektiva ko'rinishining qurilishi tahlil etib belgilab olinadi. Bunda albatta rang, fazoviylik holatlari tus, soya-yorug'lik munosabatlari orqali ifodalanadi. Evropada manzara tarixi XVI – XVII asrlarda tarakkiy etdi. Gollandiya manzarachi rassomlari tabiatni uxshatib xakkoniy tasvirlashda katta muvaffakiyatlarga erishdilar.

Rossiyada manzara janrining rivojlanishi XVIII asrga tug'ri keladi. Moskva, Peterburg arxitektura yodgorliklari F.E. Alekseev tomonidan maxorat bilan tasvirlangan. Manzara san'ati tashki dunyoning guzalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta'sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun rassom tabiat olamini eng nozik, tipik xolatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bulgan estetik munosabatini bildiradi. Manzara asarida inson shaxsi, akl zakovatini, ichki tuygularini tasvir orkali kushik kilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. Misol tarikasida I.Levitanning «Vladimirka», «Abadiy sokinlik uzra», I.Shishkinning, «o'rmon yiroqliklari», V.Meshkovning «Ural xakida uylar» asarlarini keltirish mumkin. Tasviriy san'atdagi manzara janriga oid asarlari insonda tabiatga va guzallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga xam murojat kiladilar etyud, eskizlar yozadilar. Bu xolda manzara kartinada kushimcha fon vazifasini utaydi. V. Vasnestovning «Alyonushka» asari bunga misol bula oladi. Tabiiy guzaligini, zamonasiga xos yangilik uzgarishlarni K. Yuon, G. Nisskiy kabi rassomlar xam uz asarlarida tasvirlab namoish etdilar. 50-70 yillarda uzbekistonda manzara janrida ijod etgan rassomlar U. Tansikboev «Issik kul», «Ona o'lka», qayroqqum suv ombori, N. Qoraxon «Nanay yo'li», Sijjakda baxor, R. Temurov Samarkand arxitektura manzaralari turkimini yaratdilar. 70-80 yillarda Abduraxmonov, F.Toxirov, R. Choriev, K.Bogaduxov, M.Esin, Pudovkin kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qildilar. xozirgi vaktda ko'plab izlanuvchi iqtidorli rassomlar, A. Nuritdinov, O.Qozoqov, Z. Islomshikov, A. Mo'minov, A. Mirsoatov kabilar mustaqil O'zbekiston go'zal tabiatini madh etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.

**Manzaraning bir necha turlari mavjud:** Shahar (Arxitektura), qishloq (tog') manzara, sanoat (zavod, fabrika, inshoat qurilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (ko'rinishida) manzaralari shular jumlasidandir. Bularni har biri negizida ifodalovchi mazmun, g'oya yotadi. Shahar manzarasida shahar xayoti bilan bog'liq, arxitektura, transport vositalari, odamlar, oromgoh bog'lar xamda yer osti o'tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo'la oladi. Qishloq manzarasi, bepoyon

kenglik, tog' manzarasi, yaylovlar, qoya tosh, o'simliklar, vodiydagи jilvakor suvlar tasviri kompozitsiya negizini tashkil etadi. Sanoat manzarasi katta zavod xovlisi, suv ombori, ko'prik, metro qurilishi, texnika qurilish vositalari bilan bog'langan. Lirik manzarada tabiatni «Erta tong», «Baxor» kabi mavzudagi tabiatni nozik, sokin go'zalligini, uning uyg'onish xolatini ettiruvchi, insonga olam – olam quvonch baxsh etuvchi asarni kuz oldimizga keltiramiz. Manzaraning kompozitsiya vositalari (belgilari): joyni tanlash, ko'rish nuqtasi, ko'rish chizig'i, fazoviy masofa, format, perespektiva, ritm, kolorit, yorug', refleks, kompozitsiya markazi shular jumlasidandir. Bu janrda kompozitsiya yaratish uchun, qalamtasvir rangtasvir soxalarida mukammal bilimga ega bo'lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizgi rangli etyudlar manzara kompazistiyasini tuzishda asosiy mavzu bulishi mumkin. Qishloq manzarasini kompazistiyasini tasvirlamoqchi bo'lsak avval tabiatda kuyoshli, bulutli kunlar,, peshin, oqshom xolatini harakterli joylarini sinchiklab kuzatish kerak. Formatni aniqlab, ufq chizig'i, ko'rish nuktasini belgilab olish kerak. Sungra xavo va erni tekislikda nisbatlarni belgilab, oldingi, keyingi, orka planni va predmetlar masshtabini topish darkor. Kompozitsiyani bir necha variantlarini sangina, ko'mirda bajarish tavsiya etiladi.

Mukammal bajarilgan, ko'mirda bajarish tavsiya etiladi.

Mukammal bajarilgan xomaki eskiz variantni rang koloritini aniqlash lozim.

Sifatli bajarilgan eskiz asosida qishloq manzarasi kompozitsiyani yakuniy nusxasini amalda bajarish kerak. Uni bajarish shartlari qogoz, karton, xolst, akvarel, guash, moybo'yok orqali amalga oshiriladi.

Bo'lajak rassom uchun xayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizgi va etyndlarni bajarish mashqlarni qilishga kirishsa maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

Manzara janridagi asarlar inson uchun ma'naviy ozika beradi, uni ruxlantirvdi, xayotga shodlik va kuvonch bagishlaydi.

har bir san'at asarini yaratishda mazmun va goyani asosiy echimi eskizda uz aksini topishi lozim.

Keyinchalik eng yaxshi bajarilgan eskiz tanlab olinadi. Izlanish jarayonida kompozitsiyaga kerakli detallarni, predmetlarni aniklab bilish lozim, mavzuda sodir bulayotgan vokeaning markaziy kismini topish kerak.

Eskiz bajarish jarayonida yaxlitlik, masofa, keyinchalik, xavo perespektivali qonunlarga, asosiy va ikkinchi darajali gurux xususiyatlariga, kolorit tanlashga alovida axamiyat berish urinlidir.

Kompozitsiya tuzilishini tugri topish uchun naturadan – odamlar guruxidan tezkor chizgilar, eskizlar bajarish zarur, Chunki utkir kobiliyatni ijodiy tasavvur, «fantaziyani» shakllantirish aynan shu jarayonda sodir buladi. Bu ijodiy jarayondagi uziga xos kunikmalarni xosil kilish uzok vakt mashk kilib ishlashni talab etadi.

Kompozitsiya - bu muallifning ijodiy, badiiy irodasi, maxsuli xisoblanadi.

Shunday ekan tasviriy san'atning barcha janrlarida kompozitsiya yaratish yuksak darajada bilim, kunikma, malaka xamda kobiliyat, saloxiyatni talab etadi.

## **1.2 Rangtasvirda moybo'yoq texnikasi**

Tagromning mato tortiladigan tarafi iya ilinadi, chunki mato tortilganda ozro masofa salansa, keyinchalik matoga yelim surtilganda tag rom taxtachaga yopishib olmaydi. Bundan tashari, ar bir tag romning ichki tarafi burchaklarida pona bo'lishi kerak (rasmdagi shakldagiday). Buning uchun pona eni ajmida kesim shakli


o'yiladi, tag rom burchaklariga vatincha DSP dan uchburchak oiladi va mato tortiladi. Shundan so'ng vatincha oilgan uchburchak yechib olinadi va burchaklarga atti yoochdan yasalgan pona yengil oiladi. Tag romga ziir ipli mato tortish uyidagicha amalga oshiriladi. Tag rom taxtachalari bir-biriga ulanib, to'ri burchaklari 90°C ni tashkil etgandan so'ng, mato tag romdan 5 sm katta ajmda kesiladi va uning o'rta ismiga bir mix urila- di (mixning nomi «teks») va matoni tarang tortib, ara- ma-arshi tarafiga am mix uriladi. To'rt tarafiga matonitarang tortib mix urgach (mix oralii 4 sm dan oshmasligi kerak), burchaklariga arab matoni tarang tortiladi va mix urib boriladi. So'ngra burchaklariga am mix urib, uchbur- chaklarni vatincha yechib, pona oiladi. Chunki pona matoni yanada tarang ilib tortadi.

### Taxta

XVI—XVII asrlarga adar taxta atti asos turi bo'lib, tag asos uchun asosiy material isoblangan, amalda yooch- ning barcha turlari o'llanilgan. Pliniyning yozishicha, Misr- da yono, kinaris, kestr daraxtlari ishlatilgan. Leonardo da Vinci o'z asarlarida kiparis, lipa, nok, Rembrandt esa izil daraxt, kranax, eman, buk daraxtlaridan foydalanganlar. Ita- liyaning janubidagi rassomlar terak, kashtan, yono; Ni- derland rassomlari eman, buk, araay; Rossiya rassomlari lipa, o ayin, olxa va yoochning bosha turlarini o'lla- ganlar.

### Yog'och tuzilmasi va tarkibi

Yoochning o'zak ismi va po'stlo tomoni yarosiz isoblanadi. Yoochni ko'ndalang ilib bir xilda arrada kesil- gan ismi keyinchalik iyshayadi, egik olat paydo bo'ladi. Yoochning o'rtasidan kesish masadga muvofil isoblanadi.



Yochoga ishlov berishdan masad:

1) iyshayib ketmasligi uchun; 2) yorilib ketmasligi uchun tabiiy ravishda uzo urutiladi; 3) chirimasligi uchun yoochni asalari mumiga shmdirilgan.

Yoochning ikki-uch taxtasi bir-biriga yopishtirilgan, bunda ayvon yelimlari o'llanilgan, ko'pro kazeinli yelim ishlatilgan.

XV asrda Shimolda Gildiyalar (uyushma) tashkil etilgan, yaxshi ishlov berilgan taxtaga Gildiyaning muri bosilgan.

Rassom ishini tugatgandan so'ng ikkinchi mur o'yil-gan.

Yoochga ishlov berish

Shimoliy iyalikda o'sgan va ishda kesilgan daraxtdan yaxshi taxta olingan.

Daraxt suvda ushlab turilgan, keyin suvda va moyda ( $300^{\circ}\text{C}$ ) aynatilgan. Taxtalarning ajmi tez isaradi, shuning uchun yaxshi uritish shart. Keyingi retseptlardan taxtani moyda va olifda aynatilgan, keyin turli kimyoviy eritmalar bilan shmdirilgan.

*Ijobiy tomoni:* agar taxta-yooch kichik ajmli va yaxshi ishlov berilgan bo'lsa, u uzo vat salangan bo'ladi.

*Salbiy tomoni:* uning o'lchami chegaralangan. Misol: Rubens ishlarining vertikal tarafi 5 metrgacha bo'lган. Yooch o'pol va oir, ishlov berish murakkab, chirish va yooch o'niz-lariga yem bo'lish etimoli bor. Salbiy olatlarni e'tiborda tutib, imoya choralarini o'llash zarur bo'ladi.

Fanera

Hech qanday fanerani rangtasvir uchun tag asos sifatida ish-latib bo'lmaydi, agar u bakelitli bo'lsa am. Chunki u iyshayadi va do'ppayadi, keyinchalik ta'mirlash am juda murakkab. Zamонавиъ atti tag asos turlari.

Yog'och ipii plitasi (DSP)

DSP ning o'lchami 5 metrgacha, alinligi 2—3 sm dan 1,5—3 sm gacha bo'ladi. Uning afzal tomoni parketaj am kerak emas. U arzon, destruktiv material, namlikka va issi-sovua chidamli, ishlov berish am kerakmas, ajmi katta.

*Kamchiligi:* 1. Burchaklari kutilmagan zARBAGA chidamsiz. DSP taxtani chetlariga yoochdan imoya sifatida xoshi- yalash kerak. Namlikdan salash uchun: asalari mumi erit- masi, ayno olifa, izdirilgan moy surkab, shmdirish kerak.

Orgalit yoki presslangan karton

Plitaning o'lchami: alinligi 3x5 mm, kattaligi 3x1 metr bo'ladi. Rangi och kulrang, jigarrang bo'ladi. Rangtasvir uchun yaxshi tag asos isoblanadi. Rossiyada rassomlardan: D. Ji-linskiy, T. Fyodorova va boshalar uni 30—40 yildan beri tag asos sifatida ishlatib kelyaptilar.

*Ijobiy tomoni:* DSP — bauwat, yengil arralanadi, yaxshi salanadi, yengil gruntlanadi, iyshaymaydi.

*Kamchiligi:* iroini sinishdan salash uchun tag rom tayyorlab, uni mato bilan orgalitga yopishtirib o'rnatiladi. Namlikdan salash uchun: moy, mum, asalari mumi va olifa surkab, shmdiriladi, universal imoya — bu asalari mumi.

Karton

Karton o'shimcha material isoblanadi. Uni etud, eskiz uchun ko'pro ishlatiladi.

*Ijobiy tomoni:* yengil, ixcham, arzon material, yengil gruntlanadi, eng yaxshisi flnlar kartoni.

*Kamchiligi:* grunt surtganda egilib iyshayadi, burchaklari sinadi, suvda bo'kadi, kichik o'lchamda bo'ladi.

Karttonni yetuk rassomlar yordamchi sifatida o'llagan- lar, bular I.Y. Repin, S. Gerasimov, N. o'ziboyev va bosh- alar.

Salash natijasi juda past, namlikdan salash uchun maxsus asalari mumi (vosk) o'llaniladi. Agar o'lchami katta bo'lsa, maxsus tag asos zarur bo'ladi.

Qog 'oz

Qog'oz latta va daraxtdan tayyorlanadi, ooz moyli rangtasvir uchun XVIII asrdan boshlab, asosan, eskizlar va etudlar uchun ishlatilgan. Amalda rassomlardan A. Ivanovning etndlari, K. Korokorin, I. Levitan va boshalarning ishlarini misol ilib ko'rsatish mumkin.

*Afzalligi:* Kartondan puxta, bauwat, o, yengil material grunt ilmasa am bo'ladi, arzon, kartondan yaxshi salaydi.

*Kamchiligi:* o'lchami chegaralangan, mexanik zARBAGA chi- damsiz. oidaga ko'ra ooz matoga yoki kartonga dubilla- nadi.

### Mato

Rangtasvir uchun mato o'simlik poyasi va tola yigirilgan ipdan to'iladi. Asosan, yigirilgan ipning mustakam va chidamliligi rangtasvir uchun to'ri keladi. adimdan ishlatib ke- lingan, yigirilgan ip matosining turlari: ziirli, penkali, jutli (indiston kanopi). Rossiyada va o'zbekistonlik rassomlar asosan, ziirli matodan foydalanishadi. Chunki ziir tolsi juda am bauwat bo'ladi, jutli matoni Gogenni asarlarida ko'rishingiz mumkin. To'ilishi — to'ri, sarjali, figurali bo'ladi. Rassomlardan Tintorato, Veroneze o'z asarlarida figurali mato ishlatganlar.

Ziirli matolar o'zining yupa-alinligi bilan far iladi, Bunga sabab ziirli matolar ikki va uch ipdan yigirilgan. Ba- diiy fond rangtasvir uchun ziir tolasidan uyidagi matolarni ishlab chiaradi: 3-artiklli, panarama uchun uch ipli, Repin- niki №09132 deb nomlangan (eni 2 metr 12 sm) mayda ipli №09132 (eni 2 metr 12 sm) va teatr sanasi uchun. Ziir- poya tolasining tarandisidan tayyorlangan matoni tortganda bir xilda tekis tortilmaydi, ipda tugunlar am ko'p, teatrda ora ko'rinish uchun mo'ljallangan, dastgoli rangtasvir uchun uni ishlatmagan ma'qul.

### **1.3 Akvarelda ishslash texnologiyasi va usullari.**

Akvarel-lotincha so'z bo'lib, suvgga qoriladigan bo'yoq, shuningdek, akvareldan ishlangan rasm degan ma'noni bildiradi. Akvarel qadimgi Misr, Yaponiyada keng qo'llanilgan, XXI asrdan akvarelda yirik san'at asarlari ishslash juda taraqqiy etgan. Akvarel bilan ishslash bundan bir yarim asr avval Angliyada rivojlangan edi. D.Kozens, Tyorner, D.Konstabel, R.Bonington, G.Gyorten kabi rassomlar o'zlarining akvarelda ishlagan asarlarida Angliyaning go'zal tabiatini mohirlik bilan tasvirlaganlar. Rossiyada esa akvarel bilan ishslash san'ati XVIII asrdan e'tiboran keng yoyila boshladi. O'rta asrlarda Rossiyada bo'lganidek, G'arbiy Yevropada ham akvareldan Cherkovga qarashli bo'lgan diniy

kitoblarni naqsh va illyustrasiyalar bilan bezashda foydalanildi. Lekin bu vaqtarda akvarel oq bo'yoq moddasi qo'shilgan holda ishlatalilar edi.

O'rta Osiyoda akavrelda kitoblarni chiroyli qilib bezash maqsadida qo'llanildi. O'rta Osiyo rassomlari ichida, ayniqsa, Kamoliddin Behzod kitoblarga akvarel bilan miniatyura hamda illyustrasiyalar ishlashda shuxrat qozondi. XIX asrning oxirlarida akvarelda I.YE.Repin, V.A. Serov, M.A.Vrubel, kabi rassomlari o'z asarlarida yangicha sifatlarini namoyish qildi. Rus tasviriy san'ati namoyondalari A.M.Grasimov, S.V.Gerasimov, O.G.Vereyskiy, Kukrinskiylar N.N.Volkov, YU.I.Neprensev va boshqalar ham akvarelda ko'plab qiziqarli asarlar yaratdilar. Ular yaratgan asarlarning ko'pchiliginini kitoblarga ishlangan illyustrasiyalar tashkil etadi.

O'zbekistonda esa akvarelda ishslash san'atining rivojini B.Hamdamiy, O'.Tansiqboyev, G. Shevyakov, G.Siganov, K. Cheprakov va ayniqsa CH. Ahmarovning ijodida ko'rish mumkin.

Akvarel bilan ishslash usullarining murakkablash uvi, takomillashuvi uning turlarini ko'payishiga va xilma – xillashuviga olib keldi. Hozir akvarelning bir qancha turlari mavjud.

Chunonchi qattiq, yumshoq va xamirsimon xoldagi akvarellar. Bu bo'yoqlar badiiy bilim yurtlarida, ayniqsa amaliy va dekorativ san'at o'kuv yurtlarida kompozisiyalar, eskizlar tuzishda qo'llaniladi. Akvarel bo'yoqlari ikki qismdan: bog'lovchi element hamda bo'yoq kukinidan tarkib topadi. Bog'lovchi emulsiya tayyorlanadigan moddalarni tanlashda bo'yoq rangini o'zgartirmaydigan, qog'ozga surtilganda tekis yotadiganlaridan foydalanadi.

Bog'lovchi moddalar asosan gummi arabika, olcha, olxo'ri va boshqa daraxtlarning shiralaridan tayyorlanadi. Daraxt shirasidan, masalan, olcha shirasidan juda osonlik bilan eritma tayrlanadi. Shuningdek, bo'yoqning tez-qotib qolmasligi, pishiqligini va suvda eruvchanligini oshirish uchun unga asal, glisirin, dekstrinlar qo'shiladi. Bog'lovchi modda tayyorlanayotganda har bir element ko'rsatilgan miqdorda olinishi lozim. Har bir akvarel uchun bog'lovchi emulsiya turli miqdorda tayyorlanadi.

Taxtacha ko'rinishdagi akvarel uchun emulsiya shiraning dekstrining suvdagi eritmasi meva shakari, ho'kiz o'tidan tayyorlanadigan aralashmadan iborat bo'ladi. Dastavval shiraning hamda dekstrining suvdagi eritmasi tayyorlanadi.

Meva shakari suv bilan aralashtirilib sirobsimon eritma hosil qilinadi. Ana shu uch xil eritma birgalikda to'xtovsiz aralashtiriladi. Hamda unga o'tdan tayyorlangan aralashma va fenaldan keraplicha tomiziladi. Chinni idishlardagi yumshoq akvarel uchun emulsiya tayyorlashda esa yuqoridagi moddalar ko'proq miqdorda oshrib meva shakari o'rniga asalari mo'mi va glisirin qo'shiladi.

Tyubiklarda chiqariladigan akvarel tarkibidagi bog'lovchi elementining ko'pchilik qismini asal tashkil etadi. Glisirin va shira ozroq miqdorda qo'shiladi.

Akvarel tayyorlashda qo'llaniladigan bo'yoq kukunlari tabiiy yoki sun'iy kukunlar bo'lishi mumkin. Ayrimlari o'simliklar yoki hayvonlarda o'raydigan pigmentlardan masalan , jigar rang , qarminli bo'yoqlardan tayyorlanadi.

Bo'yoq kukunlarini tanlashda va tayyorlashda ularning tiniqligiga, bir-biriga yaxshi aralashishiga e'tibor berish lozim. Masalan, qo'yidagi bo'yoq kukunlardan foydalanish tavsiya etiladi. Sariq kukunlar tabiy,jigar, rang, sariqmars, zarg'aldoq mars va hakozolar.

Qizil kukunlar: qizil tusli mars, qirmizi.

Binafsha: binafsha tusagi kukun.

Yashil kukunlar: zumrad rang, yashil rangli ranglar.

Zangori: zangori laklar.

Jigarrangli kukunlar : kuydirilgan jigar rang, jigar rang mars.

Qora kukunlar : -uzumdan olinadi.

Akvarel tayyolash uchun bo'yoq moddasi tayyor emulsiyaga aralashtiraladi tosh plita yoki mahsus xovonchada yaxshilab ishlanadi. Agarda sinash uchun olingan bo'yoq suvda yaxshi erishsa, aralashtirish hamda ishlov berish uchun tayyor bo'lgan xisoblanadi. Shuni esda tutish lozimki, qo'yilgan akvarel bo'yog'i qurilganidan keyin o'z rangini biroz o'zgartirib olishadi. Bunga bo'yoq qavatidagi suvning bug'lanishi, qog'ozga singishi ta'sir etadi. Endi akvarel, tush va ularni ishlatishda qo'llaniladigan ba'zi qurol va vositalar haqida to'xtalib o'tamiz:

ir akvarel mo'yqalamda oson olinishi, suvda yaxshi eriydigan bo'lishi kerak. Akvarel boshqa bo'yoqlardan qog'ozga yubqa qalam tarzida o'tishi tekis, silliq surkalishi, qo'yilib va bir joyga qatlam tarzida yig'ilib qolmasligi bilan ajralib turadi. Akvarelga ko'p vaqt suv tegmasa,<sup>26</sup> xaddan tashqari qUzbekiston Respublikasiqshab ketib, uni ishlatish qiyin bo'lib qoladi. Shuning uchun chinni idishlar va tyubiklardagi akvarelni qorong'u va slqin joylarda saqlash lozim. Agar tyubikdagi akvarel qotib qolsa tyubikka mris bilan suv yuborish yoki uni suvli idishga biror soat solib qo'yish tavsiya etiladi. «Leningrad» markali akvarel sifatlari akvarellardan xisoblanadi va u plastmassa idishlarda ishlab chiqariladi.

Unda bo'yoqlarning 24 hili mavjud bo'lib, plastmassadan tayyorlangan palitra ham joylashtirilgan.

2. Tush asosan yozish-chizish, bezak va boshqa ishlarda kenqo'llaniladi. Ularning xillari juda ko'p. Tushlar suyuq holda shisha idishlarda va taxtacha hamda qalamcha shaklida qattiq holatda ishlab chiqariladi.

Kerakli tushlar maxsus idishlarda suyultiriladi. Ulardan axromatik ranglarning har xil tuslari xosil qilinadi. Tushni juda quyuq ishlatilmaslik lozim. Ular etyudlar uchun muljallangan bo'lib, 20-30 donasi kerakli o'lchamda bir-birlariga yelimlab qo'yilgan bo'ladi. Qog'ozlarni bir-birlaridan ajratib olishda birorta uchi o'tkirroq asbobdan foydalaniladi. Orqasiga qo'yilgan karton esa uni g'ijim bo'lishidan asraydi.

3. «Stirator» bittasi kattaroq, ikkinchisi kichikroq o'lchamga ega bo'lgan va bir-birini ichiga kirib turadigan ikkita ramkadan iborat ishlatishda qo'llangan qog'oz ikkala ramka orasiga qo'yilib siqib jipslashtiriladi. Stirator bundan tashqari ramka va planshetdan iborat bo'lishi ham mumkin. Bunday stirator ikki oyoqli qilib yasaladi. Qog'oz stiratorga tortilganidan keyin uni tizza ustiga g'o'yan holda ishlatish mumkin. Shuningdek stirator oyog'siz holda ishlatilganda esa mahsustutqichga o'rnatiladi. Stiratorga tortiladigan qog'oz oldin suvga ho'llab olinadi. Qog'ozni ho'llash uchun yumshoq lattadan foydalaniladi. Burchaklarida 1,5-2 smgacha joy quruq qoldiriladi. Qog'ozni ikki tomoni ham xuddi shu zaylda

qo'llaniladi, so'ng ramkaga tortilgan qog'oz o'zgarmas temperaturali joyiga qo'yib quritiladi. Stirator asliga qarab rasm ishlashda va manzaralarni tasvirlashda qulaydir.

4. Planshet tasviriy san'at darslarida keng qo'llaniladi. Planshetga qog'oz tortishida uning to'rttala tomoni 1,5-2 sm buklanadi. Qog'ozning teskari tomoni jiqqa ho'l latta suvini o'ziga shishib olguncha surtiladi. Chetga qayrilgan burchaklari eng quruqligicha qondiriladi. So'ngra qog'ozning old tomoni aylantirib g'o'yiladi va u ham chetki tomonlariga tekkizmasdan ho'llanadi. Undan keyin burchagidan bir tomoni, so'ngraqaramaqqarshi turgan tomoni bosib tortilishi lozim. Qolgan ikki tomoni ham xuddi shunday diogonal bo'yicha yelimlanadi yoki knopka bilan qistiriladi.

Qirralari esa barmoq yordamida tekis qilib yopishtirib chiqiladi. Yelimlangan tomonlarida xech qanday tirishgan va qabariq joylar bo'lmasligi lozim. Qo'l planshet mo'tadil temperaturali joyga qo'yib quritiladi. Shundagina u ishga yaroqli bo'ladi.

5. Yig'ma qopchiq ham etyudlar ishlashda ekskursiyalarga chiqqanda juda as qotadi. Uni brezent matodan ixchamgina qilib tikib olish mumkin kerakli jixozlarni yig'ma qopchiqqa tartib bilan joylashtirish lozim. Uning yuqori qismiga tasmalar tikib qog'oznimaxkamlab qo'yish kerak. Pastki qismiga esa har-xil o'lchamdag'i cho'ntaklar tikiladi. Cho'ntaklarga esa maxsus idish, katta akvarel va xakozolar solib olinadi. Materialni tikayotganda orasiga karton bo'laklarini kerakli o'lchamlarda qo'yish tavsiya etiladi Qo'yilgan karton bo'laklar qog'ozlarni buklanib qolishidan saqlaydi.

6. Mo'yqalamlar. Akvarel bilan ishlayotganda foydalanish lozim, mo'yqalamlar ikki xil bo'lib, ularning bir xillari moyli bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvayerel bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvarel bo'yoqlarga muljallangan (yelimlash uchun mo'ljallangan mo'yqalamlar uchun mustasno). Ularni ko'rinishiga qarab quyidagicha farqlash mumkin. Yalpoq (moyli bo'yoqlar uchun muljallangan mo'yqalamlar kurakcha va dumaloq shaklda bo'ladi). Akvarel uchun ishlatiladigan

mo'yqalamlar yumaloq bo'lib uch tomoniga qarab ingichkalashib boradi va bu juda mayda detallarni ishlash uchun qulaylik tug'diradi. Rasm ishlaganda qog'ozni yuzi buzilmaslik uchun bu mo'yqalamlar maxsus yumshok yunglardan yasaladi. Akvarel mo'yqalamning kolonok, olmaxon, savsar yungidan yasalgan turlari mavjud.

Mo'yqalamning ishga yaroqli yoki yaroqsizligini bilish uchun uni toza suvgaga tiqib olib silkitish kerak. Agar shunga mo'yqalamning uchlari to'planib qolsa-yaroqli, to'zib tursa-yaroqsiz bo'ladi. Mo'yqalamningt bandida nomeri bo'ladi. Bu nomer mo'yqalam mo'y qismining kengligini bildiradi. Nomerdagi sonlar ortib borishi bilan yung qismining kengligi ham ortib boradi.

Shuning uchun akvarel bilan ish ishslashda mo'yqalamning kerakli nomeri yuzaning katta yoki kichikligiga qarab tanlanadi. Tasviriy san'at darslarida ingichka mo'yqalamlardan kam foydalaniladi, chunki ular bilan katta rasmlarni bo'yab bo'lmaydi. Bu xildagi mo'yqalamlar ko'proq mayda detallarni hamda dekorativ bezash ishlaridagi naqshlarni bo'yashda ishlatiladi. Yuqorida nomeri ko'rsatilag yo'g'on xajmdagi mo'yqalam bilan katta rasmlarni bo'yash mumkin, uning ingichka uchi esa suratning mayda detallarini ishlash imkonini beradi. Umuman olganda butun ishni bitta mo'yqalamda bujara olish imkoni tug'iladi. Shunda ko'z hamda qo'l harakati uyg'unlashadi. Tajribali rassomlar ko'pincha ikki tomonida ham mo'yi bo'lgan mo'yqalamlardan foydalanadilar. Ularga maxsus buyurtma berish tayyorlatish mumkin.

Bulardan tashqari, har-xil o'lchamdagisi kurakchasimon, yalpaq mo'yqalamlar ham ishlatiladi. Endi mo'yqalamlarni ishlatishning bir qator usullari haqida gapirib o'tamiz. To'g'rirog'i, bu usullar, tavsiya etilayotgan yo'llanma bo'lib, ular umumiy qoida tarzda qo'llanilmaydi. Chunki ba'zi mo'yqalamni boshqacharoq vaziyatda ishlatishga to'g'ri kelib qoladi. Bordiyu, mo'yqalam bilan keng yuzalarni bekitishga to'g'ri kelsa uni burchak ostidan ushslash hamda ishni qog'ozning tepe qismidan uzib-uzib bo'yoq berishdan boshlash zarur. Bunda mo'yqalam qog'ozning chap tomonidan pastka va ayni vaqtida o'ng tomonga qaratib tez-tez

harakatlantiriladi. Agar yupqa va tirnoq bo'yash kerak bo'lsa, mo'yqalam tik ushlanadi, hamda ohistagina qog'oz bo'ylab yurgiziladi.

Kuchli mazok hosil qilish (uzib-uzib bo'yoq berish) uchun mo'yqalam kerakli joyga qattiqroq bosiladi va darhol ko'tarib olinadi. Oqib ketayotgan bo'yoq esa toza mo'yqalamga shimdirib olinadi. Xomaki rasm ishlashda kerakli bo'yoqni o'z ichida birndaniga qo'yish aloxida maxorat talab qilinadi. Lekin mo'yqalam qog'ozga oxirigacha bosib yuborilsa, hamma bo'yoq birdaniga oqib tushib ketishi mumkin.

Qo'yilgan mazoklarni harakterli bo'lishi muxim axamiyat kasb etadi. Mo'yqalamlarni ishlatayotganda ayniqla uning mo'y qismi tez ishdan chiqishini unutmaslik kerak. Bo'yoq olinayotganda mo'yqalamni xaddan tashqari ko'p ishqalash tavsiya etilmaydi, sababi mo'y qismi tez to'kilib keatdi. Bunda mo'yqalam bo'yoq ustida oldinga va orqaga hamda chapga va o'nga tomon tez-tez, yengil-yengil yurgiziladi.

Bir marta bo'yoq olinganidan so'ng, ikkinchi olishga mo'yqalam dastavval tozalab yuviladi va latta bilan siqib tashlanadi. Toza suvga botirib olinganidan keyingina navbatdagi bo'yoq olinadi.

Dastlab sakkiz nomerlaridan to o'n, o'n ikkinchi nomergacha bo'lган mo'yqalamlarni ishlatish mumkin. Keyinchalik esa, o'n ikki, o'n turt nomergacha, balki undan kattaroq nomerli mo'yqalamlar ham ishlatiladi.

Mo'yqalam ishlatilib bo'lingach, tozalab yuviladi va latta bilan siqilganidan so'ng tirgakka solib qo'yiladi yoki mo'y qismi yuqoriga qilingan holda stakanda saqlanadi. Ba'zan mo'yqalamni yung qismini stolning chetidan bir oz chiqarib qo'yish ham mumkin.

7. Palitra. Tasviriy san'at darslarida oddiy, oq rangdagi yassi laganchadan palitra sifatida foydalanish mumkin. Etyud ishlash paytida metalldan yasalgan va sirlangan yoki plastmassadan yasalgan palitralardan foydalangan ma'qul. Palitraning eng yaxshi tomoni shundaki, unga qo'yilgan bo'yoqlar aniq va ravshan, tiniq bo'lib ko'rinish turadi. Shuningdek uzoq vaqtgacha qurilmasdan saqlanadi. Palitraning rangi oq bo'lганligi sababli bo'yoqlarni tuslari

o'zgarmasdan ko'zga tashlanadi. Palitradan foydalanish usullari va unga bo'yoqlarni joylashtirish tartibi ko'rsatilgan. Bo'yoqlar ko'zga qanchalik yaqin bo'lsa ularni birlarini ajratish ham shunchalik oson va qulay bo'ladi. Politraga ranglarni joylashtirishda muayyan tartibga rioya qilish taldabalarning sifatli ishlashlariga, ko'zları va qo'llarining avtomtik ravishda harakat qilishga, ishni tez bajarishlariga yordam beradi va ularni ortiqcha qiynab qo'y maydi.

Politraga oldin iliq ranglardan sariq bo'yoqlar, keyin zarg'oldoq qizil, rang yoki jigar ranglar va nihoyatda zangori, binafsha ranglar (bular sariq ranglar jumlasidandir) qo'yiladi. Politraga qo'yilgan bo'yoqlarni bir-biri bilan aralashtirishda iflos mo'yqalamlardan qat'iyan man qilinadi. Shu tariqa politradagi bo'yoqlar toza saqlanadi. Ish tamom bo'lgandan so'ng politra yaxshilab tozalab qo'yiladi, ayniqsa politraning suv tekkan joylari yaxshilab artiladi.

Stakan suv olish uchun eng yaxshi idish hisoblanadi. Ekskursiyalarda, etyud ishslashda metal yoki shishastakanlar bankalar juda qo'l keladi.

Akvarel bilan ishslashda suv olish uchun qo'llaniladigan idishlarning turlari har-xil bo'lishi mumkin.

Qalamlar akvarel bo'yog'ida ishlangan rasmlarning yaxshi chiqishida muxim rol o'ynaydigan vositalardan biridir. Tasviriy san'at darslarida asosan o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlardan foydalaniadi."TM" markali qalam chizish uchun juda qulaydir. Qalamlarning tomonida nomi, so'ngra esa qattiqroq yoki yumshoqlik darajasi yozib qo'yiladi. «T» qattiqlik ma'nosini anglatadi, uning yonidagi son qattiqlik darajasini ko'rsatadi. «2T» belgili qalam «T» belgili qalamdan qattiqroqdir. Tasviriy san'at darslarida qattiq qalamdan nafis joylarni shtrixlashda foydalaniadi. Ular chizmachilik darslarida ham qo'llaniladi. Yumshoq qalamga «M» belgisi qo'yilib, yumshoqlik darajasi sonlar bilan ko'rsatiladi.

Rasmning sifati ko'pincha qalam o'zining yechilishiga bog'luq bo'ladi.

Rasm chizish uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish maqsadida qalam uchini dars yoki mashg'ulot boshlanishidan oldinroq qo'ygan ma'qul.

Qalamni ish joyida ochmaslik lozim, chunki grafitning ko'zga ko'rinxmaydigan zararlari rasmni iflos qilib yuboradi. Eng yaxshisi qalamni quticha yoki qog'oz parchasi ustida ochishdir. Bunda chiqindilarni maxsus yashikka tashlash oson bo'ladi. Qalamni haddan tashqari bosib chiqish yaramaydi. Chunki uning uchi sinib qolishi mumkin.

O'quvchilarni qalamni ochilgan yeridan uzunroq ushslashga o'rgatish yaxshi natija beradi. Qalam umuman uchta barmoq bilan ushlanadi va unchalik qattiq siqib olinmasdan erkin yuritiladi. Uzunroq qalamlardan foydalangan ma'qul. Chunki kalta qalamlarda naturaning o'zaro nisbatlarini o'lchab chizish qiyinlashadi. Siyoh rangli qalamlarda rasm chizish mumkin emas: chiziqlar suv tegsa, bo'yalib ketadi. Qalam bilan chizishda aniqlik, puxtalik va malakali bo'lish talab etiladi.

O'chirg'ich.

O'chirg'ichlar ikki xil: qalamda chizilgan chiziqlarni o'chirishga mo'ljallangan hamda idoralar uchun chiqarilgan bo'ladi.

Noto'g'ri chizilgan tasvirni o'chirishdan oldin to'g'rilib chizib olish lozim. Shunday qilingan xato yaqqol ko'rinish turadi. O'chirg'ich bilan o'chirishdan qo'l faqat chizish bo'ylib bir tomonlama harakatlantiriladi. Shuningdek, o'chirg'ichni hadeb ishlatherish ham yaramaydi. Unda qog'oz yuzasiga bo'yoq yaxshi yotmaydigan bo'lib qoladi. O'chirg'ichni qo'lda uzoq ushlab turish mumkin emas. Chunki o'chirg'ich qo'lda ter bosib, qog'ozni kir qilib qo'yish mumkin.

Tasviriy san'at darslarida rangli tasvirlarning muvaffaqiyatli chiqishida akvarel bilan ishslashda orttirilgan tajribalar muhim rol o'ynaydi. Chunki bo'yoq bilan ishslash qanchalik puxta o'rganilgan bo'lsa rangli tasvirlar shunchalik yaxshi chiqadi.

Akvarel bilan ishslashda talabga javob beradigan qilib jixozlanish kerak. Shuningdek, planshet hamda molbertdan to'g'ri foydalanishni o'rganish, qog'oz yuzalarini har xil shikastlanishlардан ehtiyoq qilish lozim. Akvareldan foydalanishda uning sifatiga e'tibor berish darkor. Bo'yoqlarni maxsus idishlarda suv bilan aralashtirish va qog'oz bo'lagida sinab ko'rish tavsiya etiladi. Topilgan

rang tusi kerakli darajaga yetgandagina undan foydalanish lozim. Akvarel bilan ishslash texnikasini puxta o'zlashtirish uchun dastlabki mashqlarni qora, to'q jigarranglarda bajargan ma'qul. Bu usulda ishslash monoxrom yoki grizayl metodida ishslash deb ataladi.

Akvarel bilan ishslashda quyidagi izchillikka rioya qilinsagina bo'yoqda ishlangan tasvirlar talabga javob bera olishi mumkin:

1.

K

erakli bo'yoq maxsus idishda suv bilan aralashtirilib tayyorlanadi hamda qog'oz bo'lagiga surtib, sinab ko'rildi.

2.

Q

og'oz sirtiga bo'yoq berayotganda mo'yqalam hamisha eritmagan rosmana botirib olingan bo'lishi kerak.

3.

O

stki qavatdagi buyoq qurimaguncha, navbatdagi bo'yoq qavati yotqizilmaydi. Keyingi qavat tez qo'yilishi lozim, aks holda ostki qavat yuvilib ketishi mumkin.

4.

A

kvarel bo'yoqlari bilan ishslashda oq bo'yoqdan foydalanilmaydi, chunki oq bo'yoq rolini oq qog'ozning o'zi bajaradi.

5.

Q

o'yilgan bo'yoq qavati ostidan qog'ozning sirti sezilib turishi lozim.

Agar taxtacha ko'rinishidagi akvarel ishlatilsa, bo'yoq tez-tez ho'llab turiladi, hamda toza mo'yqalam bilan olinadi.

Akvarel bilan ishslashni o'rganishda amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bir rangning ustiga ikkinchisini qo'yib yangi tus hosil qilish mashqni olaylik. Bunda qo'yilgan har ikkala rang ostidan ham qog'ozning sirti sezilib turmog'i darkor. Shuningdek, sovuq tusli rang ustidan iliq tusli rangni qoplash orqali yangi rang tusini hosil qilish yo'llarini puxta o'rganish kerak.

Bundan tashqari iliq rang ustidan sovuq tusli rangni qoplash yo'li bilan ham qo'shimcha rang tusini topish mumkin. Ayrim hollarda qo'yilgan ranglarning

yorug'lik darajalari bir-birlariga tenglashtirish uchun ularning ustidan biror rangning suyuq, kuchsiz eritmasi bilan qoplab tavsiya etiladi. Shuni esda tutish lozimki, muayyan rang ikkinchi bir rang bilan qoplanganda yorug'likning qaytarish xususiyatidan mahrum bo'ladi. Lekin oldin qo'yilgan bo'yoq qavatining ravshanlik darajasi hamda to'yinganligi muhim axamiyatga ega. Ustki qo'yiladigan qavati esa doimo oxangdor, juda tiniq bo'lishi va ostidagi rang tusini bo'g'masligi shart.

Rang tuslarini haddan tashqari to'q tusda olish yaramaydi. Aks holda rangli tasvirlarda keskin ko'zga tashlanadigan rang dog'chalari hosil bo'lishi mumkin.

Akvarel bilan ishlatishda bir rangning o'zidan har hil rang tuslarini xosil qilishni yaxshilab mashq qilish kerak.

O'quvchilarga yorug' , oq tusdagi rangni hosil qilish uchun suvni, tuq tusdagi rangni hosil qilish uchun esa bo'yoqni ko'proq qo'shish kerakligini o'rgatish kerak. Och tusdagi rangning hosil bo'lishini amalda ko'rsatish uchun suvli stakanga qizil rang aralashtiriladi. Stakanda hosil bo'lgan aralashmaga suv qo'shishni davom ettirsak, bu rang tusining ochlanib borishining guvohi bo'lamic. Aksincha, aralashmaga qizil rang qo'shishni davom ettirsak, mazkur rang tusining to'qlashib borishini ko'ramiz. Bu xildagi mashqlarni faqat ranglar yordamida bir necha marta bajarib ko'rish mumkin.

Ranglar to'yinganligini asta-sekin o'zgarib borishi haqida alohida to'xtalib o'tish kerak. Agar xromatik ranglar tarkibiga axromatik ranglar qo'shilsa, ularning tiniqligi pasayadi.

Natijada rangning to'yinganligi o'zgarib,boshqa rang tusi hosil bo'ladi. Kul rang qanchalik ko'p qo'shilsa, xromatik rang shunchalik axromatik bo'lgan kul rangga yaqinlashib boradi. Bu xildagi yorug'lik kuchlarini kamaytirish natijasida ranglarning tiniqligini yo'qotish hamda xira ko'rinishdagi ranglar olish mumkin. Rang tuslarini bir-birlaridan farq qilishni o'rgatishda bir rangning har-xil tuslari orqali naqsh kompozisiyasini ishlash kerak.

Akvarel bilan ishlash malakalarini oshirishda asosiy va qo'shimcha ranglar ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Rang ustida ishlash usullari ikki

qismga: asosiy ranglar va qo'shimcha ranglarga bo'lib o'rganiladi. Olingan rang tuslari esa o'zaro solishtirish yo'li bilan aniqlanadi.

Qo'shib topiladigan ranglar aralashtirish yo'li bilan hosil qilinadi. Buning uchun dastlabki mashqlarni nabordagi tayyor bo'yoqlarni qo'shib topishdan boshlash lozim. Bunga quyidagi jadvalda ba'zi bir misollar keltiramiz. Asosiy hamda qo'shib topiladigan ranglar ustida mashq qilinayotgan paytda naturaga yaqin bo'lган rang tuslarini topish kerak.

Bundan tashqari, pardozlangan siliq sirtlarga, oynaga, metall shartlari atrofdagi buyumlarning tasvirlari tushadi va ularning ranglari ham boshqacharoq ko'rinishda bo'ladi.

Akvarel bilan ishslashda bu xildagi usullardan ham foydalana bilish lozim. Ranglarning bu xususiyatlari refleks taassurotini paydo qiladi hamda ishlanayotgan naturaning eng muhim qismini tashkil etadi. Akvarel va mo'yqalamlar bilan ishslashni o'rganishda dastlabki mashqlar muhim rol o'ynaydi.

#### **1.4 Tasvirlashning asosiy qonun –qoidalari**

Ijtimoiy ong shakllaridan biri san'at - tabiat va jamiyatda bo'lган, bo'layotgan va bo'ladigan voqeа-hodisalarni badiiy tasvirlarda ifodadanishidir. San'at o'zida moddiy olamning umumiyligi holatini va rivojlanishini aks ettirib, odamlarga uni bildiririshda muhim vosita bo'ladi va ularni siyosiy, ahloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo'lib xizmat qiladi. San'at voqelikning o'zida ifodalash uslubi va harakteri, mazmuniga ko'ra tasviriy san'at, me'morchilik, adabiyot, musiqa, stirk, teatr, kino, radio-televiedeniya kabi turlarga bo'linadi.

San'atning eng ijobiy va muhim xusueiyati shundaki, u fandan farqli o'larоq voqeа va hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik-badiiy obrazlarda ifodalaydi.

Ma'lumki, har bir jamiyat formasiyasini san'at rivojiga o'zining ma'lum iqdisodiy-siyosiy pozistiyasida turib, ma'lum darajada sharoit yaratadi. Shu boisdan har bir jamiyat san'ati o'sha o'z davri talabida xizmat qiladi. San'at qaysi jamiyatga,

kaysi sinfga va millatga xizmat qilishi va bu sinf va millatning iqtisodiy va siyosiy yo'lida xizmat qilishiga qarab, uni sinfiy va milliylik xususiyati belgilanadi.

Har bir jamiyatdagi san'at erkin, xalqchil, insonparvar, mehnatsevar va boshqa yuksak insoniy g'oyaviyligi asosida vujudga kelsa, bu san'at o'zida xalqparvar, insonparvar, vatanparvarlik va milliylik kabi ilg'or g'oyalarni ilgari surishga xizmat qiladi. Bu san'at keng mehnatkashlar ommasiga xizmat qiladi. Bu san'at xalqining maqsadi, vazifalari, orzu-umidlarini siyosiy va iqtisodiy yo'lini ifodalaydi.

Bu san'at har qanday shovinizm, byurokratizm, egionizm, molparastlik, irqchilik, zo'ravonlik, fohishabozlik, ayshi-ishratbozlik va man-manlikning barcha ko'rinishlariga qarshi kurashadi.

Bu talablar bugungi jahon taraqqiyot insoniyatining ezgu niyatlarini, ularning orzu-umidlarini ham to'la ifoda etadi, Shu boisdan xalqimiz o'z san'atini qanchalik ardoqlab, unga hurmat va ehtirom bildirsa, jahon xalqlari ham bugungi o'zbek san'atiga ana shunday hurmat va ehtirom bilan qaraydilar.

O'zbek rassomlari ana shu talablardan kelib chiqqan holda o'zlarini qiziqtirgan, hayajonga solgan narsalar, voqealarni milliylik ma'naviyati asosida o'z asarlari syujetiga mavzu qilib oldilar. Chunki, ilg'or san'atkor rassomlarning dunyoqarashi keng, progressiv, ilg'or bo'dganidek, ularni qiziqtiradigan, hayajonga soladigan, o'ziga tortadigan vqkea va hodisalar ham ilg'or va progressiv bo'ladi. Ma'lumki, o'zbek rassomlari mamlakatimizning keng mehnatkash xalq ommasidan etishib chiqqanki, ular ana shu mehnatkash xalqning orzu-umidi, his-tuyg'usi, milliy qadriyatlarini va manfaatlarini himoya qiladi va ularni ifoda etadilar.

Mustaqil O'zbekiston tasviri san'atini milliyligi undan eng avvalo realistik pozistiyada turishni, moddiy olamning ob'ektiv qonuniyatlarini e'tirof etilgan holda tasvirlashni talab qiladi. Bu o'z o'rnida rassomdan narsa va voqealarni aniq, o'ziga o'xshatib, real holda ifodalashni va jamiyatning muhim masalalarini aniq maqsad sari yo'naltirilgan holda, badiiy jihatdan yuksak talablarda bo'lgan va ijodiy ishlangan san'at asarlari yaratilishini talab qiladi.

Jahon realistik tasviriy san'ati - jahon xalqlarining o'tmishi, hozirgi kuni va kelajakdagi hayotini ifoda etuvchi, shuningdek, tabiat va jamiyatni tasvir etuvchi haqiqiy ko'zgu bo'lib qoladi. Biz undan o'tmishni bugunni va kelajakni ko'ramiz. Shu boisdan ham realistik tasviriy san'ati uetalari o'tmish tarixini ham, maeriya va taraqqiyotni ham, matematika va tabiyotni ham, geografiya va biologiyani ham yaxshi bilishi lozim.

Mustaqil O'zbekiston xalqining estetik falsafasi, go'zallikni-san'atning ajralmas qismi va kategoriyasi, shakl va mazmuni, uning zaruriy sharti deb ko'rsatadi

San'at juda qadimgi tarixga ega bo'lib, u jamiyatning mehnat faoliyatini rivojlanishi, takomillashuvi va ijtimoiy faoliyatining taraqqiyoti asosida shakllandi. U moddiy ishlab chiqarishni jamiyatning iqdisodiy tuzumi va mehnat munosabatlari, quollarini takomillashuvidan, jamiyat ongining evolyustion taraqqiyoti jarayonida vujudga keldi va rivojlandi.

Sinfiy jamiyatning vujudga kelishi bilan sai'at ham sinfiy harakterga o'tdi. Har bir jamiyatda turli sinflar mavjud bo'lganidek, o'sha jamiyatning san'atida ham turli sinflar manfaati, siyosati, dunyo qarashi va ahloqini himoya qildi yoki uni rad etdi.

San'atni sinfiy harakteri-uning qaysi sinf vakilini qanday mazmunda ifodalashga va qaysi sinfning iqtisodiy va siyosiy manfaatini, hayotini himoya qilishiga qarab belgilanadi. I.Repinning «Volga Burlaklari» asarini kuzatar ekanmiz, unda mehnatkashlar ommasining hayoti, ularning og'ir turmushi va mehnati ifodalanadi va ular manfaati himoya qilinadi.

Tasviriy san'atning muhim xususiyatlaridan biri - inson uchun faqat borliqni, tabiat va jamiyatdagi voqealari-hodisalar va narsalarni bildiribgina qolmay, odamlarga yangi bilim, tasavvur va tushunchalar berib, ma'naviy boyituvchi, ijodiy yuksalishga boshlovchi qudratli faktor bo'lib, xizmat qiladi. Yoki bir so'z bilai aytganda, «San'at, - V.G.Belinskiy ta'rificha, - obrazli tafakkurdir».

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda, qalamtasvir mashg'ulotlarining, amaliy jihatlarini o'rgatish bilan bir qatorda, uning nazariy

asoslari ham puxta o'qitilishi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun qalamtasvir mashg'ulotlari qator aniq predmetlar asosida olib boriladi. Ulardan asosiysi – perspektiva va plastik anatomiyadir. Bularsiz talaba eng oddiy vazifani ham to'g'ri bajarishi mushkul. Perspektiva qonuniyatlarini bilmay turib, u buyumning fazoviy holatini aniq topa olmaydi yoki odam plastik anatomiyasini borasida aniq bilimga ega bo'lmasdan, inson qomati va portretini chiza olmaydi.

Yorug' va soya qonuniyatini yaxshi tushunib yetmagan talaba tasvirlanayotgan buyum tusi, hajmi va materiallik xususiyatlarini aniq tasvirlashning uddasidan chiqa olmaydi.

Buyumlarni tasvirlash san'ati, boshqa aniq fanlar kabi, fikrlab chizilayotgan narsani chuqur tahlil etib, uni so'z orqali emas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishni taqozo etadi.

Tasviriy san'at ustasi va rus pedagoglaridan biri P.P.Chistyakov aytganidek, tasvirlash – fikrlash demakdir. U shogirdlariga doimo bunday deb ta'kidlagan: "Hech qachon fikrlamay rasm chizmang, har doim oldingizga maqsad qo'ygan holda gapirib tasvirlang, bu yerdan–bu yergacha".

So'z – tasvirlanayotgan buyumni tahlil qilib, to'g'ri chizishda eng muhim jihatlardan biridir. U chizuvchida fikr yuritib tasvirlash odatini shakllantiradi. Ma'lumki, tasviriy san'at atrof–muhitni keng va atroflicha o'rganish natijasida, aniq fanlar kabi, tabiatni ilmiy jihatdan tahlil etish orqali o'rganiladi. Shuning uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tabiatni qanchalik ko'p sevsaga va kuzatib o'rgansa, u tasvirlash sohasida shunchalik yuksak natijalarga erishishi mumkin. Uyg'onish davrining buyuk rassomlari tabiatni ilmiy tahlil qilib, uni asosli o'rganganlar va o'z asarlarida ishonarli tasvirlaganlar. Jumladan, Leonardo da Vinci, Alberti va Dyurerlar inson tanasi a'zolarining har bir bo'lagini aniq o'lchamlarda o'rganib, o'z tasvirlarida amalda qo'llaganlar.

Ular inson qomati yoki portretini tasvirlashdan oldin uning tuzilish xususiyatlarini, xuddi anatom tadqiqotchidek, asosli o'rganganlar va natijada jahonga mashhur san'at asarlarini yaratganlar. Qalamtasvir mashg'ulotlarida buyumlarning hajmini to'g'ri va haqqoniy tasvirlash,

oddiy qalamda amalga oshiriladi. Rangtasvirdan farqli o'laroq, bu vazifa ancha mushkul bo'lib, talabalardan qalamtasvir borasida ko'plab amaliy mashqlar bajarishni talab etadi. Shuning uchun, talabalar turli hajm va shaklga ega buyumlarning yorug' va soyalarini tasvirlayotganda buyumlarning hajmi va shakli asosida ish yuritishi taqozo etiladi. Bunda talaba buyumga tushayotgan yorug', soya, yarim soyalarni, yengil chiziqlar bilan bir tekisda chizishga va chiziqiar tortishda ularni dona–dona bajarishga e'tibor berishi kerak. Buyumga yorug'lik qanchalik tik tushsa, uning tasviri shunchalik yaqqol ko'rindi.

Aksincha, chetdan tushayotgan yorug'lik buyumga umumiylar tarzda urilib, bajarilayotgan tasvir xiraroq bo'lismiga olib keladi.

Yorug'lik bir buyumdan urilib (sinib), ikkinchisiga va uchinchisiga tiishishi mumkin. Bu hol tasvirlanayotgan buyumlardagi yorug' va soyalar majmuasini tashkil etadi. Ular quyidagilardan iborat:

- a)yorug`lik,
- b)soya,
- s)yarimsoya,
- d)aks,
- e)yaltiroqlik.

**Yorug`lik**– quyosh yoki sun'iy yoritgichning buyum yuzasiga tik tushuvchi nuridir.

**Soya** – buyumlarning yoritilgan qismining orqa tomoni (teskarisi), yorug'lik nurlari tushmagan yeri.

Bunday soyalar **shaxsiy soya** deb ham yuritiladi. Tasvirlashda tushuvchi soyalar ham kuzatiladi. Ushbu soyalar buyumlarning biri ikkinchisini to'sishi natijasida hosil bo'ladi.

Bunday soyalar buyum tekisligiga, (stol, pol, yer va hokazo) hamda buyumlarning biridan ikkinchisiga ham tushishi mumkin.


Buyumga qiyaroq tushuvchi yorug'lik, ularda **yarim soyalarni** tashkil etadi. Yarim soyalar, asosan, yorug'lik va shaxsiy soyalar oralig'idagi qismda joylashadi.

Shuning—uchun soyalar bir xil to'q tusda bo'lmaydi. Buyumlarning hajmlarini soya va yarim soyalar orqaligina to'g'ri tasvirlash mumkin. Buyumlarga urilish natijasida qaytib, boshqasiga tushuvchi yorug'liklar **aks yorug'likni** hosil qiladi.

Aks yorug'lik predmetlarning bir—biridan qanday masofada joylashganiga ko'ra kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. Lekin hech —qachon aks yorug'lik buyumlarga tik tushuvchi yorug'likka nisbatan koichli bo'lmaydi.

Buyumga yorug'likning tik tushishi natijasida esa **yaltiroqlik** hosil bo'ladi. Bu holat shisha, chinni, temir, sopol va yorug'likni qaytarish xususiyatiga ega bo'lgan boshqa ko'pgina buyumlarda kuzatiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, o'quv qalamtasvirida yorug' va soyalar qalamda yengil chiziqlar (shtrix) bilan amalga oshiriladi. Yorug' va yarim soyalarda chiziqlar tasvirlanayotgan buyumning harakteri va yorug'likning tushish yo'nalishi bo'yicha dona—dona, aniq bo'lishi kerak. Bunday ishlangan tuslar buyumlarning konstruktiv tuzilishini yanada yaqqol ko'rsatadi. Aksincha, buyumning soya qismlarida chiziqlar quyuqroq, bir—biriga yaqin (birlashib ketgan) bo'lishi kerak. Geometrik shakllarni tasvirlashda ularning tuslariga e'tibor berish darkor. Oldingi qatordagi buyumlar aniq chiziqlar bilan chizilsa, 2— va 3— qatordagi buyumlar chizuvchidan uzoqroqda joylashganligi hisobiga umumiy tarzda tasvirlanadi. Bu, o'z navbatida, buyumni haqqoniy (fazoyiy perspektiva qonuniga asosan) tasvirlashda g'oyat muhimdir. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, buyumning hajmi asosida ishlash – buyumni to'laqonli hajmli tasvirlash omilidir. Pala—partish, duch kelgan tomonga chiziqlar tortish qo'yilgan maqsadga erishishga to'sqinlik qiladi. Buyumlarning hajmini chizishda chiziqlarni tortish ketma—ketligiga riosa qilish kerak.



- 1 – yorug'lik.
- 2- yaltiroqlik.
- 3- yarim soya.
- 4- shaxsiy soya
- 5- reflex.
- 6- tushuvchi so

Qalamni qog'oz sirtida bir xil kuch bilan bosganda chiziqlar orasidagi masofalarning teng bo'lishiga e'tibor berish – buyumni to'g'ri chizishda katta ahamiyatga ega. Dumaloq (sferik) hajmga ega bo'lgan buyumlarni chizishda chiziq tortish ellips shaklida bajariladi. Sferik buyumning eng quyuq soya joylari uning ekvatoriga yaqinlashgan joyida bo'ladi. Shuni doimo yodda tutish kerakki, shakllarning yorug' va soya uchrashgan(yaqinlashgan) qismida soyalar to`q bo`ladi.

Yorug' - soya qonuniyatlari tasvirlashchda anqlikni talab etadi.

Fizik olimlarning tadqi–qotlari shuni ko'rsat–diki, yorug'lik buyum va narsalarga rna'lum hajmlar qonuniyati asosida tushadi. Talaba quyida– gilarni doimo o'z tasviriy faoli– yatida bilishi va qo'llashi lozim:

- a). yorug'hk manbaiga yaqin turgan buyumda yorug' va soyalar har doim kuchlidir; aksincha, buyum yorug'lik manbaidan uzoqlashgan sari, soya – yorug' kuchlari ham umumiylashib,xira ko'rindi. Buyumlar tasvirda aniq bo'lishi uchun yorug'lik manbaiga yaqin turganlarini keskin yorug' soyalar orqali bajarish, uzoqda joylashgan buyumlarni esa umumiylar tarzda chizish tavsiya etiladi;
- b) buyumning turni to'sishi natijasida u yoki bu tekislikka tushuvchi soya har doim shu buyumning o'z soyasiga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Shuning uchun tus jihatdan to'q bo'lgan buyumni yorug'likning to'silishi natijasida tushuvchi soya bilan solishtirish va tushuvchi soyani to'qroq tasvirlash kerak.

Yuqoridagilardan ko'rinish turib– diki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituv– chishish tasvirlashning texnik jihatlari bilan bir qatorda, uning nazariy tomonlariga ham e'tibor berishi lozim. O'tmishta usta rassomlar tabiat– dagi yorug'–soya qonuniyatini izchil kuzatganlar va o'zlarining amaliy ishlarida muvafaqqiyat bilan qo'llay bilganlar. Jumladan, Leonardo da Vinchi shunday deydi: «To'q tusli buyumda hosil bo'luvchi aks yorug'lik doimo ochroq tusdagiga nisbatan aniq va yaqqol ko'rindi».

Ba'zi tasviriy san'at amaliyotchilarining fikricha, tasviriy faoliyatdagি ilmiy asoslar talabaning ijodiy yo'nalishiga to'sqinlik qilar va salbiy ta'sir ko'rsatar emish.

Ularning ta'kidlashicha, agar talaba tasvirlashning ilmiy jihatlari asosida ma'lum vazifani bajarsa, tasvir ham bir xil darajada bo'lar ekan.

Ushbu tushuncha noto'g'ri  
ekanligini quyidagi misolda ko'rsatib o'taylik. Talabalar natyurmort qalamtasvirini

boshlang'ich bosqichidan to oxirigacha pedagog nazoratida, uning bevosita ko'rsatmalari orqali bajarsalar ham, vazifa tugal holatga kelganda har bir ish chizish uslubi va emotSIONAL jihatlari bilan bir-biridan keskin farq qiladi. Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qalamtasvir mashg'ulotlarini o'tishda ayrim pedagoglar qalamtasvirning ilmiy asoslariga, perspektiva qonunlariga, plastik anatomiya va yorug'-soyalar nazariyasiga yetarli e'tibor bermaydilar. Oqibatda talabalar ushbu qonun-qoidalardan bexahar qoladilar va amaliy vazifalar puxta bajarilmaydi.

## **II Bob. Manzara kompozitsiyasini bajarish.**

### **2.1 . Manzara janri xususida.**

Tasviriy san'atda manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy animal ,afsonaviy, marina, nyu, interer janrlari mavjud. Janr rassom nimani tasvirlayotganligiga qarab belgilanadi. Masalan, odam rasmini ishlansa “Portret” tabiat va shahar ko’rinishlari tasvirlansa “Manzara”, hayot va mehnat jarayonlari tasvirlansa “Turmush” janriga xos bo’ladi. Shuningdek, tarixiy voqealarni tasvirlash tarixiy janrga, xayvonlarni tasvirlash, animal janr deb yuritiladi. Afsonaviy, marina, natyurmort nyu janrlari ham bo’ladi. “animal” janri lotincha “anima” so’zidan kelib chiqan bo’lib xayvon ma’nosini anglatadi. “Batal” janri esa franstuzcha “batay” so’zidan kelib chiqan bo’lib jang, ”NYu” janri franstuzcha bo’lib yalang’och ma’nosini bildiradi. Ayrim asarlar ikki va undan ortiq janrlarga mansub bo’ladi. Masalan, portret va nyu marina va manzara v. b. Har bir janr o’z o’rnida yana bir qancha janrlarga bo’linishi mumkin.

Masalan tabiat manzarasi janri, shahar manzarasi janri, industrial manzara janri, dengiz manzarasi (marina) janri yoki portret janrini tantanavorlik, ishqiy, guruhli janrlarga bo’lish mumkin. Vaqt o’tishi bilan janrlar tabaqalashib, mustaqil tus oladilar. Masalan, manzara janridan marina, tarixiy janrdagi batal janri ajralib chiqanlar.

Manzara janri.

Tasviriy san'atda tabiat, shahar, industrial, interer ko’rinishlarin tasvirlanishi manzara janrga taaluqlidir. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiat manzarasini haqiqiy ko’rinishini tasvirlasa, boshqalari ijodiy tarzda xayolan ifodalangan bo’ladi. Ba’zan bu ikki hol bir asarda bo’lishligi ham mumkin. Manzara janrini paydo bo’lishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarining keng tarqalishini qadimgi Sharq va Krit orollari misolida ko’rish mumkin.

Masalan, eramizdan avvalgi asr Beni-Xasandagi qabr tasvirida yovvoyi mushik ovi tasvirlangan. Bu janr esa mustaqil ravishda Xitoyda 6 asrda paydo bo'lgan.

Evropa san'atida esa O'yg'onish davrida ilmiy asosda ya'ni chiziqli va xavo (rang) perespektivasi asosida shakllangan.

Manzara janrini ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil turi bo'lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinci turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretni orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin.

Manzara janrida samarali ijod qilga rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, O'.Tansiqboev, I.K.Ayvazovskiy, N.Karaxan kabilarni ko'rsatish mumkin. Manzara janrining ko'rinishlaridan biri bu interer hisoblanadi. U binolarning ichki qism ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi Misr, Xitoy rassomchiligidagi uchraydi. Ular o'z ishlarida aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perespektiva qonunlari asosida intererni tasvirlay olganlar. Bu janrda ijod qilib Jotto, A.Verrokko, Leonardo do Vinchi, Rembrantlar shuxrat qozonganlar.

Manzara janirining ikkinchi bir ko'rinishi bu marina janridir. Unda asosan dengiz ko'rinishlari va undagi xodisalar tasvirlanadi. Marina janrini shakllanishida I.Ayvazovskiyning xizmatlari katta bo'lgan. U o'zining umrini faqat dengiz ko'rinishlarini tasvirlashga bag'ishladi. Uning "To'qqizinchi val", "Chesmen jangi", "qora dengiz", "To'lqinlar orasida" kabi asarlari jaxon tasviriy san'atida munosib o'rinni egalladi. Marina janridagi asarlar boshqa janrdagi asarlar bilan birgalikda ham ifodalanadi. Masalan, portret, manzara, tarixiy, turmush v.b. Manzara janri ko'proq rangtasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo'llaniladi. Xaykaltaroshlikda manzara asosan uning relef turida ishlatiladi. Xaykaltaroshlikda manzara ko'rinishlari asosiy emas, to'ldiruvchi, qo'shimcha ahamiyat kasb etadi

Manzara tarixi.

Barcha san'at turlarida bo'lgani kabi tasviriylar san'at ham, (rangtasvir, qalamtasvir, haykaltaroshlik) o'z ichida har xil janrlarga ajraladi. Janrlarga ajratish rangtasvirda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Tasviriylar san'at asarlarini janrlarga ajratishda, odatda, rasmida nima tasvirlanganligi asos qilib olinadi. Shunga ko'ra, rangtasvir asarlarini peyzaj (tabiatni tasvirlash), natyurmort (narsabuyumlar tasviri), portret (inson tasviri), syujetli-mavzuli kartina (hayotiy voqealarni tasvirlash) kabi janrlarga ajratish mumkin. Tasviriylar san'atning qalamtasvir (grafika) turi ham shu tarzda janrlarga ajratiladi.

“Peyzaj” franstuzcha so’z bo’lib “tabiat” degan ma’noni anglatadi. Tasviriylar san'atda tabiatni real yoki xayoliy ko’rinishlarini aks ettirishga bag’ishlangan asar peyzaj yoki manzara deyiladi. Manzara qalamtasvir yoki haykaltaroshlikda ham yaratilishi mumkin. Biroq, manzara janrining imkoniyatlari rangtasvir san'atida har tomonlama, to'laligicha o’z ifodasini topadi Manzara janrining paydo bo’lishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarining keng tarqalishini qadimgi Sharq davlatlari hududida va Krit orollarida olib borilgan arxeologik qazishmalarda topilgan buyumlar misolida ko’rish mumkin. Tabiat manzaralarini aks ettirish Xitoy rassomlik san'atida VI asrda paydo bo’lgan. Evropa san'atida manzara janri mustaqil janr sifatida XVII asrdan boshlab rivojlandi. U, ayniqsa, golland rangtasvir san'atida keng tarqaldi. Shuni qayd etib o’tish kerakki, to XVII asrgacha tabiat manzarasi ko’rinishlari faqat mavzuli surat yoki portretlar uchun fon vazifasini o’tagan. Manzara janri mustaqil janr sifatida shakllangan bo’lsa-da, unda ba’zan inson obrazini ham uchratish mumkin. Biroq, manzara kompozistiyasida inson tasviri, shuningdek, kichik voqeaviy sahnalar hal qiluvchi rol o’ynamaydi, balki manzarani to’ldirish, tasvirning jonli chiqishi uchun xizmat qiladi. Kamil Koroning “Pichan tashish”, A. Plastovning “Birinchi qor”, O’. Tansiqboevning “Issiqko’l oqshomi” kartinalarida shu holni kuzatish mumkin. Tasviriylar san'at asarlarida, jumladan, manzara janrida yaratilgan asarlarda rassomning borliqdan olgan taassurotlari, voqealikka g’oyaviy-hissiy munosabati ham aks etadi.

Tabiat manzaralari tasvirida rassomning dunyoqarashi, tabiatni idrok etishining ijtimoiy-tarixiy, milliy va uslubiy xususiyatlari o'z ifodasini topadi. Shunga ko'ra, mashhur rassomlarning asarla-rida manzara motivlarining ulug'vor-romantik Shishkinning "O'rmon uzoqliklari" kartinası), lirik (A.Savrasovning "Qora qarg'alar uchib keldi" kartinası) yoki ijtimoiy-falsafiy (I.Levitanning "Mangu uyquda" kartinalari) talqinlarini uchratish mumkin.

Peyzaj janri o'zining ichki bo'linishi – janr ko'rinishlariga ham ega bo'lib, bular qishloq manzarasi, shahar manzarasi, industrial peyzaj va peyzaj-marina ko'rinishlarida bo'lisi mumkin.

## **2.2 Manzara ishlash texnologiyasi.**

### **Manzara chizish jarayonida perspektiva**

Manzara ishlash texnikasini egallash bo'lajak rassomdan juda katta qunt va mehnatni talab qiladi. Kuzatuvchidan tabiat manzaralarini katta masofa ajratib turishi, yorug'lik va soya reflekslarining xilma-xilligi va ko'pligi, yorug'-soyalarning tez o'zgaruvchanligi, ob-havo va fasllarning o'zgarishi – bularning barchasi manzara ishlamoqchi bo'lgan rassom mehnatini qiyinlashtiradi. Shuningdek, qiziqarli motivlarni paydo bo'lismiga olib keladi ham. "Perspektiva" so'zi lotinchada "aniq ko'raman" ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda perspektiva qisqarish hamda narsalarning kuzatuvchidan uzoqlashgan sari o'zgarib borishi ma'nosida ishlatiladi. Perspektiva rassomga manzarani naturada qanday ko'rilsa, kartinada shunga mos tasvirlash imkonini beradi. Perspektiva qoidalarini o'zlashtirish manzara chizish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Peyzaj asarlarining muvaffaqiyati ularda

tasvirlangan predmetlarning o'zaro uyg'un o'lchovlarda aks ettirilishiga ham bog'liq, albatta. Buning uchun bo'lajak rassom naturani diqqat bilan kuzatishi, narsa va buyumlar, jonivor-larning bir-birlariga nisbatan o'lchovlarini, ularning ufq chizig'iga

nisbatan joylashishi kabi jihatlarini tasvirlash bilan ularda manzara chizish malakasi shakllanib boradi. Perspektiva ufq chizig'i bilan bog'liq holda belgilanadi. Ufq chizig'i deyilganda osmon bilan erni ajratib turadigan chiziq

tushuniladi. Ufq chizig'i rassomlikda kuzatuvchining yoki rasmchizuvchining ko'zi balandligida tasavvur etiladigan epik (gorizontal) suvrat tekisligiga yondosh (parallel) chiziqdir. Ufq chizig'i odatda tasvirlanadigan manzaraning mazmunidan kelib chiqib belgilanadi.

Ufq chizig'ini qog'oz betiga uch xil: qog'oz betining yuqorisidan, o'rtasidan, pastidan o'tkazish mumkin.

Bu, asosan, kuzatuvchi egallab turgan ko'rish nuqtasiga bog'liq bo'ladi. Perspektivaning chiziqli perspektiva, rang perspektivasi va hajm perspektivasi ko'rinishlari mavjud. Chiziqli perspek-tivaning muhim tomoni shundaki, u narsa va buyumlarning kuzatuvchiga nisbatan o'z shakli va o'lchovlarini o'zgartirib bori-shini ifodalaydi.

Narsalar kuzatuvchidan uzoqlashib borgan sari ularning o'lchovlari kichrayib boradi. Aksincha, kuzatuvchiga yaqin-lashgan sari narsalarning o'lchovlari ham kattaroq ko'rindi. Perspektiv qisqarishni qog'ozda tasvirlashda quyidagi qoidaga amal qilinadi. Birinchidan, kuzatuvchiga yaqin turgan manzara qog'oz betining pastki qismida tasvirlanadi va aksincha, kuzatuvchiga nisbatan uzoqda ko'rindigan narsalar qog'oz betining yuqori qismiga joylashtiriladi. Kuzatuvchiga nisbatan juda uzoqda ham, yaqinda ham joylashmagan ob'ektlar qog'oz betining o'rtasida tasvirlanadi (1-rasm). Perspektiv qisqarishni qog'ozda aks ettirish ko'rish nuqtasiga nisbatan olinadi. Ko'rish nuqtasidan xayolan chiqarilgan chiziqlar manzaraning yuqorisi va pastki qismidan o'tkaziladi (2-rasm). Manzaradagi boshqa pred-metlarning perspektiv qisqarishini belgilashda ko'rish chizig'ini o'zgartirmaslik talab qilinadi. Xudi shu usulda har qanday narsalarning rasmini perspektiv qisqarish qoidasiga ko'ra ishslash mumkin. Perspektiv qisqarish usulida narsalarning o'lchovlarini haqiqatga yaqin va to'g'ri aks ettirish mumkin bo'ladi. Manzara chizish jarayonida yorug'-soyalar va ranglar munosabatini kuzatish, har bir ko'rinishning xususiyatlarini idrok etish bilan chegaralanib qolmay, naturani yaxlit holda ko'ra olish malakasini ham shakllantirish zarur. Manzara rangtas-virida bir vaqtning o'zida barcha manzarani ko'ra olish, oldingi, o'rta va orqa

planni yaxlit ko'rish maydoni sifatida idrok etish zarur bo'ladi. Manzaradagi turli holatda joylashgan manzarani alohida emas, yaxlit birlikda, bir-biriga bog'langan bitta asar sifatida idrok etish muhimdir. Rassom rang perspektivasi xususiyatlarini ham puxta o'zlashtirishi talab etiladi. Rang perspektivasi deganda borliqdagi barcha narsalar kishi ko'zidan uzoqlashib borgan sari o'z rangini o'zgartirishi tushuniladi. Bizdan uzoqlashgan sari narsalar havoga "singib" borayotgandek ko'rindi. Agar predmet aniq belgilari bilan tasvirlansa, u bizga yaqin turgandek taassurot tug'iladi.

Predmet belgi-xususiyatlarining xirala-shishi esa uni bizdan uzoqlashtiradi. Oldingi planda joylashgan narsalardagi yorug'-soyalarning keskinligi kuzatiladi. Tuman, chang yoki tutun bilan qoplangan joydagi narsalar ko'rinishi xiralashadi. Uzoqlashgan sari narsalarning rangi havorangga moyillashib boradi, ularning rangidagi farqlar kamayib boradi. Shuningdek, manzara ishslash jarayonida hajmlilik yoki yorug'lik perspektivasini ham e'tiborga olish zarur.

Narsalar yorug'lik manbaidan uzoqlashgan sari o'zining yorqinligi, rangi, shakli aniqligini yo'qota boradi. Barcha narsalar bizdan uzoqlashgan sari yoki unga nur yorug'lik tushgan sari shakl va rang aniqlashib, manzaraning xajmli ko'rinishi aniqlashadi. Yorug'lik perspektivasi, ayniqsa, oqshom manzarasi tasvirlangan karti-nalarda alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, U.Tansiqboevning "Tog' qishlog'i" kartinasida manzaralarning barchasi quyoshning kechki nurlariga chulg'angan holda, ko'kish rangda tasvirlangan va shakldagi aniqlik real rang yo'qolib borgan.

Har doim yilning turli fasllaridagi jonli tabiatning rang-barangligi bizlarni o'zgacha quvontiradi. Har bir yil fasllariga taa'lluqli bo'yoqlarning aralashgan palitrasи mavjud. Sizlar o'z tanlovingizni bahorgi nozik va yozgi tiniq bo'yoqlari, yorqin kuzgi va qishki xiralashgan tuslariga qaratishingiz mumkin. Albatta, ijodiy ishlarda ranglarning monandlik prinsiplariga asoslaning, o'shanda bajarilgan suratlar haqiqatdan ham jozibali chiqadi.



Yorulik rangiga boliq holda osmon, yer va suv rangdorligining o'zgarishi.

**Yoz.** Yozgi bo'yoqlar tiniq, ravshan va jozibalidir. Palitrasi o'tsimon yashil, qizil(alvon), malina rangi, ko'k, to'q-sariq va zaraldoq ranglardan iborat. Har bir lokal ranglarga turli murakkab nozik rang turlaridan jozibali gammasi tuziladi.

**Bahor.** Bahor tabiatni nozik, juda ham yorqin bo'limgan ranglardan hosil bo'ladi. Shuning uchun bahorgi palitra yumshoq pastel tuslaridan: kreml, pushti rang, o'rik rangi, havorang, och-sariq va oxradan iborat bo'ladi. Kontrast uchun – yashil o't rangi, ko'knori-qizil va xiralashgan jigarranglar qatnashadi.

**Kuz.** Kuzgi palitrani iliq, asosiy tusli bo'yoqlar tashkil qiladi, go'yoki yorulik nurini tarqatayotgandek. Ko'k va zaraldoq, sariq va siyohrang, qizil va sariq kontrast ranglardan tuzilgan kompozitsiya, shuningdek, to'q qizil – jigarrang, to'q qizil va siyohranglar och oxra tuslari bilan aralashmasida ham yorqin, ko'rinarli va samarali bo'ladi. Asosiy ranglar gammasini ignabargning yashil rangi to'ldirishi mumkin.

**Qish.** Qish palitrasi uchun och havo rang, siyohrang, muzning yaltiragan ko'kimtir tusi, oq va qora ranglarning kontrastidagi ranglar tashkil etadi. Odatda, kompozitsiyalar toza, ochiq-oydin, aniq, lo'nda-ixcham bo'ladi. Qishning romantik ko'rinishlari neytral, nozik kulranglar bilan muvaffaqiyatlari birikuv orqali noaniq ranglarni yaratishga yordam beradi.

Yaponiyada, masalan, «Kabuki ranglari» – qaraay ignasining to’q yashil rangi, tolarning jigarrangi, sakuraning pushti rangi hisoblanadi – arb ranglari bilan solishtirganda yorqin emasdek tuyuladi.

Biroq bir-biri bilan aralashtirilganda Yaponiyaning o’ziga xos boy jozibali ranglari hosil bo’ladi, arbning standartiga ko’ra bu ranglar hamohang emas (uyunlashmaydi).

Ranglar insonni nafaqat xursand qiladi, ayrim holda azablantirishi (achchiqlanish), tashvish solishi (vahima), qo’msashi (soinish) yoki xafalik (qayu) keltirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, rang emotsional ta’sir etadi.



Yapon manzarasi.

Ayrim ranglar asab sistemasini tinchlantirsa, boshqalari, aksincha, asablantiradi. Tinchlantiruvchi ranglarga yashil, havorang, ko’k kirsa, qirmizi, qizil, zaraldoq, sariq ranglar to’lqinlantiruvchi hisoblanadi. Odamlar qadimdan ranglarga alohida ahamiyat berishgan. O’rta asrlarda qirmizi ranglar – kuch, qudrat, qadr-qimmatni; lojuvard(havorang) rang esa – go’zallik, uluvorlik, muloyimlikni; qora-qizil rang bilan aralashmasi – o’lim va h.k.ni bildirgan. Marosim va to’y-shodiyonalikdagi ranglar katta ahamiyatga ega. Masalan, qizil rang – tantanavorlik, uluvorlikni; qora esa – kulfat, o’lim, qayuni; oq esa – tozalik, aybsizlikni; yashil esa – umidvorlikni va shu kabilarni

anglatgan. Qizii shundaki, turli xalqlarda bir xil rang turli ramziy ahamiyatga egadir.

Masalan, Xitoyda va ayrim Osiyo va Afrika mamlakatlarida oq rang motam rangi hisoblanadi. Slavyan xalqlari esa o'liklarga oq kiyim kiydirishgan.

**Manzarada kompozitsiya** “Kompozistiya” so’zi lotincha compositio so’zidan kelib chiqqan bo’lib, qismlarni ma’lum bir tartibda joylashtirish degan ma’noni anglatadi. Tasviriy san’at asaridagi kompozistiya kartinada tasvirlangan barcha elementlarning rassom g’oyasiga muvofiq joylashtirilishini bildiradi. Tomoshabin e’tiborini jalg qilish va uni hayajonga solish uchun rassom tasvirlashning kuchli ifoda vositalarini izlab topishga harakat qiladi. O’z maqsadini ifodalashda barcha ortiqcha narsalarni chiqarib tash-laydi, ikkinchi darajali narsalar asosiga bo’ysundiriladi. Mato sirti, o’lchami ko’zlangan maqsad yoki ko’rish nuqtasi, ufq chizig’ini belgilash, rang berish, kompozistiya markazini belgilash - bularning barchasi kompozistiyaning elementlari sifatida xizmat qiladi. Manzara asarining mazmuni, tanlangan motivning hayotiy-ligi kartinaning kompozition qurilishi bilan yuzaga chiqadi. Manzara motivlarini tanlash, kompozition uyg’unlikni topa bilish har bir rassomning o’ziga xos ijodiy did va mayliga bog’liq bo’ladi. Manzara etyudlarini ishlash bilan avvalo kom-pozistiyaning dastlabki detallari oldingi, o’rta va orqa planni tanlashdan boshlanadi. Bunda ko’rish nuqtasini, qog’oz yoki mato o’lchamini belgilab olish muhimdir. Manzara etyudi kompozi-stiyasida osmon, er va boshqa ko’rinishlar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni topishga ham e’tibor berish kerak. Tasvirlanayotgan obrazning ta’sirchanligi tanlab olingan naturaning qiziqarli tomoni bilan ham belgilanadi.

Shuning uchun rassom naturaning eng ta’sirli jihatlarini topa bilishi, buning uchun naturani har xil holatlarda, kunning turli vaqtlarida diqqat bilan kuzatishi kerak. Zarur ufq chizig’ini belgilash, o’ng va chapdan, yaqin va uzoqdan qarab, shunday bir nuqtai nazarni - ko’rish nuqtasini topish kerakki,

toki natura o'zining ifodaviyligi bilan rassom niyatini optimal darajada amalgamoshirish uchun xizmat qilsin. Kartinada barcha narsa rassomning istagini, g'oyasini ifodalashga bo'ysundiriladi. Kompozistiyaning mukammalligi asosiy manzara ko'rinishlarning ikkinchi darajalilaridan farqlay olishda ko'rindi.

Har bir detal o'z o'rni va mazmuniy vazifasiga ega. Kompozistiyadagi ikkinchi darajali, uncha muhim bo'limgan narsalar darhol ko'zga tashlanmasligi, asosiy ko'rinishga alohida urg'u berilishi kerak.

Asosiy manzara kartinada alohida diqqat va e'tibor bilan ifodalanishi zarur. Biz atrofni kuzatganimizda ko'p hollarda bitta muhim deb hisoblagan narsamizga diqqat bilan qaraymiz.

U bizning ko'rish maydonimizdagi markazga joylashgan bo'ladi, uning mayda-chuyda belgilarigacha e'tibori-mizdan chetda qolmaydi. Ko'rish markazidan chetda turgan boshqa narsalar esa umumiy tarzda, yaxlit holda qabul qilinadi. Karti-naning kompozition qurilishi ko'p jihatdan insonning ko'rish sezgisidagi ana shu o'ziga xoslikka asoslanadi. Rassom kartinada asosiy manzarani rang, tus, shaklining aniqligi bilan ajratib ko'rsatishi lozim. Kartinada muvozanatni saqlash uchun rassom naturani kuzatish jarayonida zarur rakursni belgilab olishi kerak. Aks holda tasvir xuddi bir tarafga og'ib ketayotgandek, kartinaning bir tomoni bo'sh qolgandek taassurot berishi mumkin. Muvoza-natni saqlash tasvirlanayotgan manzara ko'rinishlarining miqdori va qanday joylashganligi bilangina emas, balki ularning rang-tusi bilan ham bog'liq.

Kartinaning bir tomonidagi yorqin rang-larni ikkinchi tomonida ham ma'lum bir xolatda qo'llash kerak yoki kartinaning bir tomoniga alohida e'tibor berib, boshqa tomonini biroz nazardar qoldirish yaramaydi.

### **2.3Labi Hovuz tarixiy obidasи haqida**

Buxoro Markaziy Osiyoning eng ko`xna shaharlardan biridir. Bugungi kunda dunyodagi ming-minglab sayyoohlarning e'tiborini o'ziga jalb etayotgan Sharqning ana shu afsonaviy shahrida saqlanib qolgan me'moriy

obidalarning aksari qismi olis moziyning bizga nisbatan yaqinroq, bosqichi – uyg`onish davrida bunyod etilgan. Lekin O`zbekiston Fanlar akademiyasi olimlari olib borgan me'morlik qazilmalaridan ma'lum bo`ldiki, bu obidalarning ostida "madaniy cho`kindilar"ning boy qatlamlari bor ekan. Ular bir paytlar yer yuzidan yuqolib ketib, keyin o`zining qonuniy o`rnida qayta bino bo`lgan manzilgohlarning qoldiqlaridir. Bu shahar bo`sh joylar hisobiga kengaygan emas. Aksincha,xamma vaqt sobit qolib yuksalib borgani aniq. Olimlar tuproqning qariyb 20 metr kulolchilik qatlamida hayoti va tarixining turli davrlariga tegishli turar-joylar, jamoat binolari, mudofaa inshootlarining xarobalarini topdilar. Ularning qaysi davrlarga taalluqli ekanini sopol idish-tovoqlar, o'choqlar, mo'jaz tasvir va yozuvlar zarb qilingan tangalar, zargarlik buyumlari, xunarmandlik qurollari, xullas, shuning kabi kishilik jamiyatni faoliyatini, binobarin, uning madaniyatini ham ta'riflab beradigan jami ashyolardan bilib olsa bo`ladi. Ayniqsa, shahar tuprog`ining antik davr (miloddan avvalgi III—IV asrlardan to eramizning V asrigacha) qatlamlari juda zich; yuqori qatlamlar XIX asr va XX asr boshlaridagi shahardan qolgan, quyi qatlamlar esa miloddan avvalgi birinchi ming yillik o`rtalariga tegishli. Qisqasi, Buxoroning yoshi ham, Samarqandniki kabi 2500 yildan kam emas!

Labi Xovuz majmuasi, o'z nomini shu erda 1620 yilda joylashgan katta hovuzdan olgan. Labi Xovuz Buxoro markazida joylashgan bo'lib, Ko'kaldash madrasasi, Nodir Devonbegi madrasasi va Xonakalardan iborat.

Shahar me'morchiligi uchun sun'iy suv havzalari bo`lgan hovuzlardan nafaqat amaliy maqsadlarda, balki shaharni yanada har tomonlama bezatish uchun ham foydalanish odatdagisi holdir.

Buxoroda saksontadan ortiq bunday obodonlashtirilgan hovuzlar bo'lib, shaharni ta'minlab turar edi. Ulardan eng mashhur bo`lgan hovuz Labi-Hovuzdir.

Buxoroning markazi (16-17 asrlar). Labi Hovuz – Buxoro ahli va mehmonlarining sevimli joyi. Siz bu joyda eski qadrdonlarni uchratishingiz va yangi do'stlar orttirishingiz, o'tmishni esga olishingiz va kelajak haqida fikr

yuritishingiz mumkin. Maydon o’rtasida katta xovuz bo’lib, uning atrofida turli binolar barpo etilgan: Ko’kaldosh madrasasi, Nodir Devonbegi madrasasi va xonaqosi.

Bu erda eng eski bino - Ko’kaldosh madrasasi. XVI asrda Ko’kaldosh ismli vazir Buxoroda O’rta Osiyodagi eng katta madrasani qurish haqida buyruq bergen.

Nodir Devonbegi madrasasi joylashgan hududda karvon saroy qurish ishlari boshlangan. Keyinchalik Nodir Devonbegining rejalari o’zgargan va karvon saroy madrasaga aylantirilgan. Bu salbiy oqibatlarga olib kelgan: bu erda talabalar uchun masjid ham, ma’ruza zali ham bo’lmagan – ular ko’zda tutilmagan. Lekin bu bino sirlangan sopol va chinni koshinlar bilan chiroyli bezatilgan. Buxoroda siz faqatgina shu madrasaning peshtoqida afsonaviy Semrug`qushi va inson yuzi aks etgan quyosh tasvirlarini ko’rishingiz mumkin. Yilning issiq faslida madrasa ichki hovlisida siz folklor tomoshasidan zavqlanishingiz mumkin. Tim qora tungi osmon, xazin va quvnoq maftunkor kuy. Siz “Ming bir kecha”ni boshqacha tasavvur eta olarmidingiz?

Hovuzning boshqa tomonida darvishlar uchun kichik mehmonxona - Nodir Devonbegi Xonaqosi joylashgan.

Markaziy Osiyo mintaqasida Buxoro islom markazi bo’lgan. Bu erga ko’plab ziyoratchilar kelishgan, ular tunda qoladigan qo’noqqa muxtoj bo’lganlar. Shu boisdan shaharda ko’plab kichik mehmonxonalar va karvon saroylar mavjud bo’lgan. Ehtimol, bu xonako dindorlar o’rtasida mashhur bo’lgan, chunki unda nafaqat uqlash uchun xonalar, balki namoz o’qish uchun katta masjid ham bo’lgan. Yuksak did bilan bezalgan eshik hovuz suvida aks etadi.

Buxoronning markazi (16-17 asrlar). Labi Hovuz – Buxoro axli va mexmonlarining sevimli joyi. Siz bu joyda eski kadrdonlarni uchratishingiz va yangi do’stlar orttirishingiz, o’tmishni esga olishingiz va kelajak xaqida fikr yuritishingiz mumkin. Maydon o’rtasida katta hovuz bo’lib, uning atrofida turli

binolar barpo etilgan: Ko'kaldosh madrasasi, Nodir Devonbegi madrasasi va xonakosi.

Bu yerda eng eski bino - Ko'kaldosh madrasasi. X1 asrda Ko'kaldosh ismli vazir Buxoroda O'rta Osiyodagi eng katta madrasani ko'rish xaqida buyruk bergen.

Nodir Devonbegi madrasasi joylashgan xududda karvon saroy qurish ishlari boshlangan. Keyinchalik Nodir Devonbegining rejalar o'zgargan va karvon saroy madrasaga aylantirilgan. Bu salbiy oqibatlarga olib kelgan: bu erda talabalar uchun masjid ham, ma'ruza zali ham bo'limgan – ular ko'zda tutilmagan. Lekin bu bino sirlangan sopol va chinni koshinlar bilan chiroyli bezatilgan. Buxoroda siz faqatgina shu madrasaning peshtoqida afsonaviy Semrug`qushi va inson yuzi aks etgan quyosh tasvirlarini ko'rishingiz mumkin. Yilning issiq faslida madrasa ichki xovlisida siz folklor tomoshasidan zavqlanishingiz mumkin. Tim qora tungi osmon, xazin va quvnok maftunkor kuy... Siz "Ming bir kecha"ni boshqacha tasavvur eta olarmidingiz?

Hovuzning boshqa tomonida darvishlar uchun kichik mexmonxona - Nodir Devonbegi Xonakosi joylashgan.

Markaziy Osiyo mintaqasida Buxoro islom markazi bo'lgan. Bu yerga ko'plab ziyyoratchilar kelishgan, ular tunda qoladigan qo'noqqa muxtoj bo'lganlar. Shu boisdan shaharda ko'plab kichik mexmonxonalar va karvon saroylar mavjud bo'lgan. Extimol, bu xonako dindorlar o'rtasida mashxur bo'lgan, chunki unda nafakat uplash uchun xonalar, balki namoz o'qish uchun katta masjid ham bo'lgan. Yuksak did bilan bezalgan eshik hovuz suvida aks etadi.

Labi Hovuzga keling. Bu erdag'i choyxonada bir piyola ko'k choy iching, kun bo'yisi shu joyda o'tirib, domino o'ynab, keksalar bilan suxbatlashing. Bu yerda siz shahar jamolini, uning aholisi mexmondo'stligini va milliy xarakteri xususiyatlarini boshqa joydagidan ko'ra ko'proq xisq qilasiz.

Ko'kaldosh madrasasi - Buxorodagi me'moriy yodgorlik. Buxoro xonining vaziri Qulbobo Ko'kaldosh qurdirgan (1568—69). Labi Hovuz

ansamblining shim.da joylashgan. Ikki qanatli bosh tarzi ansambl maydoniga qaratilgan. Peshtoqini bezatib turgan koshinlar saqlanib qolmagan. Madrasa peshtoqidagi darvoza girix va islamiy naqshlar bilan bezatilgan. Xotamqori uslubida terib mahkamlangan pilakchalaridan yasalgan darvoza tabaqasi yaxlit taxtadan tayyorlangandek ko'rindi. Madrasa hovlisiga 5 gumbazli miyonsaroy orqali kiriladi. Miyonsaroyning ichki gumbazlari va bag'allari, shipi o'ziga xos turli shakldagi murakkab to'rsimon, yulduzsimon, qolibqori va iroqi uslubida pishiq g'ishtdan ganch qorishmasida terilgan. Madrasa hovlisi uzun (42x37 m), o'rtaga yangi imorat 1929 y. qurilgan. Hovli tomondagi 2 qanatli ravoklar qatorini yuzma-yuz qilib solingan peshtoqli baland ayvonlar ajratib turadi. Har bir ravoqdan alohida hujraga kiriladi. Hovli atrofi 2 qanatli 160 hujra bilan o'ralgan. Yon tomonidagi hujralarning pastki qanatiga (tashqi devorlarida) xonani yoritish uchun panjaralar o'rnatilgan. Yuqori qanatiga esa qator qilib chuqur ravoklar ishlangan. Ravoqlar tepasini va ba'zi darcha panjaralarini bezatishda koshin ancha tejab ishlatilgan. Bosh tarzidagi peshtoq kitobasida yozuvlar saqlangan. Peshtoqining ikki yonidagi masjid va darsxona oldiga 2 qavatli 3 qismga ajratilgan chuqur ravoqlar va burchaklaridagi guldastalarda Buxoro me'morligiga xos qad. milliy an'analar aks ettirilgan.

Nodir devonbegi madrasasi - Buxorodagi me'moriy yodgorlik. Buxoro xoni Imomqulixonning vaziri Nodir devonbegi (Nodir mirzo Tog'ay ibn Sulton) qurdirgan (1622-23). N.d.m. Labi-hovuz ansamblining sharqiy qismida joylashgan. Dastlab karvonsaroy sifatida qurilgan, xonning qarori bilan madrasaga aylantirilgan. Unda madrasalarga xos ayvon, masjid va katta darsxona yo'q, hovli atrofi 4 tomondan 2 qavatli kichik hujralar bilan o'ralgan. Hujralarga o'ymakori usulida bezatilgan eshiklar, eshiklar tepasidagi tobadonga panjaralar o'rnatilgan. Hovliga pishiq g'isht yotqizilgan. Bosh tarzi maydonga qaragan. Old tomonida hovuz bor. Peshtog'i o'ziga xos mahobatli va serhashamdir. Undagi o'simliksimon naqshlar orasida quyoshga intilayotgan afsonaviy xumo qushi va bug'uning o'tlab yurgan tasviri koshinkori bezaklari yorqin bo'yoqlarda aks ettirilgan. Hoshiyalariga, kitobasiga arabi yozuvlar bitilgan. Ustungo'shasi

buramasimon. Peshtog’ining 2 yon qanotidagi 2 qavatli 3 tadan chuqur ravoqli peshayvon alohida zeb berib pardozlangan. Burchaklaridagi 2 guldasta ravokdardagi naqshlar bilan o’zaro uyg’unlashgan. Madrasa tarhi 52x49 m, hovli 34 x30 m. N.d.m. bir necha marta ta’mirlanib, gumbaz, ravoq va devorlaridagi namlik yo’qotilib, buzilib ketgan hujralari qayta tiklandi. Samarqand va Buxoro ustalarining sa’yharakatlari bilan bosh tarzi qayta jilolandi.

Nodir devonbegi xonakohi - Buxorodagi me’moriy yodgorlik. Buxoro xoni Imomqulixon vaziri Nodir devonbegi (Nodir mirzo Tog’ay ibn Sulton) qurdirgan (1620—21). Labi Hovuz ansamblida hovuz bilan birga bunyod etilgan. Peshtog’i hashamatli, ravog’ining qanosi ancha baland, ulug’vor, ayrim yerlarida koshinlarning parchalari saqlanib qolgan. 2 tomonidagi tagi qirrali guldasta-mezanalar old ko’rinishiga salobat beradi. Xonaqohning 2 yonidan ham hujralarga kiriladigan eshiklari bo’lgan. Devorlari bir necha bor ta’mirlangan (1914—16 y.larda Buxoronning oxirgi amiri Sayid Olimxon tomonidan ta’mirlangan) dan asl ko’rinishi o’zgargan. N.d.x. sim-metriktarqli (27,5X25 m), kiraverishda ayvon, xonaqoh (11,2 x11,2 m) va uning yon tomonlarida 2 qavatli darvishlar yotog’i bo’lgan. Guldastalar ichidagi aylana zina bilan bino tepasiga chiqiladi. Xonaqoh ulkan gumbazli, devorlariga taxmonlar ishlangan. Undagi serhasham naqshlar saqlanmagan. Peshtoq ravog’idagi 3 tobaddonni ganchkori panjaralar bezagan. N.d.x.ning hozirgi ko’rinishi o’zgarib muhtasham, salobatli, ko`rkam inshootga aylantirilgan.

Buxoro shahrining Labi hovuz majmuasining shimolida joylashgan Ko’kaldosh madrasasi Qulbobo Ko’kaldosh tomonidan bunyod etilgan.

Qulbobo Ko’kaldosh Abdullaxon II ning ko’kaldoshi bo‘lib, Buxoro xonligida xonning dushmanlari va do’stлari haqida ma’lumot yig’adigan hamda ularga oid tavsiyalarni xonga taqdim qilgan, shuningdek, mamlakat xavfsizligi uchun mas’ullardan biri bo’lgan ko’kaldosh mansabida faoliyat yuritgan.

Ko’kaldosh madrasasi shayboniyilar sulolasini hukmronligi davrida, so’nggi o’rta asrlarning dastlabki qismida, 1568-1569-yillar oralig’ida bunyod etilgan.

Me'moriy obida bunyod etilgan davrda shayboniylar o'rtasida siyosiy kurash avj olgan edi. Abdullaxon II 1557-yili mayda Buxoroni qo'lga kiritadi va uni o'z poytaxtiga aylantirdi. 1561-yilda otasi – Iskandarxonni davlat boshlig'i – xon deb e'lon qilib, uning nomidan mamlakatni o'zi boshqara boshlaydi. Markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortgan Shayboniy sultonlar bilan kurashib, Balx (1574-yil), Samarqand (1578), Toshkent, Sayram, Turkiston va Farg'ona (1583-yil)ni egallaydi. 1582-yilda shimolga yurish qilib, Ulug'tog'ga qadar borgan.

Me'moriy obidaning qurilishida (xom va pishiq) g'isht, loy, yog'och, maxsus "qir" qotishmasi va shu kabi qurilish ashyolaridan keng foydalanilgan.

Madrasaning ikki qavatli bosh tarzi ansambl maydoniga qaratilgan. Peshtoqini bezatib turgan koshinlar saqlanib qolmagan. Madrasa peshtoqidagi darvoza girrix va islimiylar naqshlar bilan bezatilgan. Madrasa hovlisiga 5 gumbazli miyonsaroy orqali kiriladi. Miyonsaroyning ichki gumbazlari va bag'allari, shipi o'ziga xos turli shakldagi murakkab to'rsimon-yulduzsimon, qolibkori va iroqi uslubda pishiq g'ishtda ganj qorishmasidan terilgan. Madrasa hovlisi uzun ( $42 \times 37$  m), o'rtaga yangi imorat 1929-yilda bunyod etilgan. Hovli tomonidagi 2 qavatli 160 hujra bilan o'rالgan. Yon tomonidagi hujralarning pastki qavatiga xonani yoritish uchun panjaralar o'rnatilgan. Yuqori qavatiga esa qator qilib chuqur ravoqlar ishlangan. Ravoqlar tepasini va ba'zi darcha panjaralarini bezatishda koshin ancha tejab ishlatilgan. Bosh tarzidagi peshtoq kitobasida yozuvlar saqlangan. Peshtoqining ikki yonidagi masjid va darsxona oldiga 2 qavatli 3 qismga ajratilgan chuqur ravoqlar va burchaklaridagi guldastalarda Buxoro me'morchiligiga xos qadimiy va milliy an'analarni aks ettirilgan.

Ko'kaldosh madrasasi "Chor" uslubda, eshik va g'ishtlarning terilishi xotamkori uslubida o'z aksini topgan.

Me'moriy obidaning o'ziga xos tomoni shundaki, u Labi hovuz ansamblidagi eng katta imorat va Buxoro shahridagi eng katta madrasa

hisoblanadi. Ko‘kaldosh madrasasida Sadriddin Ayniy tahsil olgan, hozirda u yashagan hujra muzeyga aylantirilgan va eksponatlar bilan jihozlangan.

Me’moriy inshoot ilm maskani, madrasa sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Madrasada 3 bosqichda ta’lim berilgan.

Me’moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapiradigan bo‘lsak, 1997-yil Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxoro shahridagi me’moriy obidalar qatorida Ko‘kaldosh madrasasi ham ta’mirlandi. Madrasa atroflari ko‘kalamzorlashtirildi. Obidaning hovlisi hisoblangan Labi hovuz majmuasi qayta ta’mirdan chiqdi.

Ko‘kaldosh madrasasi 1960-1970 va 1995-1997-yillarda ta’mirlangan. Hozirda Ko‘kaldosh madrasasida Buxoro viloyatining “Oltin meros” jamg‘armasi joylashgan. Inshoot mustaqillik yillarida bir necha bor ta’mirlandi. Inshoot YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. 2008-yil 12-sentabrda “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me’moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

Labi Hovuz ansamblı - Buxorodagi me’moriy yodgorlik (17-a.). Dastlab bozor maydoni bo`lgan. Maydon o`rtasida katta hovuz qazilib (1620 y.) atroflari sinchlari bilan mustahkamlangan, harsanglardan zinapoyalar, marmardan tarnovlar ishlangan. Shag`al va tuproq bilan to`ldirilib shibbalangan. Hovuz eni 36 m., bo`yi 45,5 m., chuq. 5 m. Uning g`arbida Nodir Devonbegi xonaqohi, sharqida Nodir Devonbegi madrasasi, shimda Ko‘kaldosh madrasasi va Ernazar elchi madrasasi (saqlanmagan) qad ko`targan. labi hovuz atrofiga chinorlar ekilib, choyxona qurilgan. Yodgorliklar ta’mirlangan.

### Nodir devonbegi madrasasi

Nodir Devonbegi madrasasi naqshbandiya tariqatining yirik vakillaridan biri, buyuk nazariyotchi va nufuzli shayx Xo`ja Ubaydulloh Ahror ziyoratgohiga yaqin joylashgan bo`lib, hijriy 1040 (melodiy 1631) yil

ashtarxoniyalar sulolasining namoyandasini Subhonqulixon sultanati davrida, Nadirbiy Tog`ay nomi bilan tanilgan Nodir Mirzo Tog`ay ibn Sulton Arlot tomonidan qurilgan.

Bu madrasa Xo`ja Ahror xonaqosi yonida joylashganligi bois, xalq orasi da “ Xo`ja Ahror madrasasi ” deb ham yuritiladi. Mazkur madrasanining Xo`ja Ahrori Valiy xonaqosining yonida barpo qilinishini Nodir Mirzo Tog`ay ibn Sultonning Xo`jaga bo`lgan cheksiz hurmati belgisi, deb tushunish mumkin.

Nodir devonbegi madrasasi loyihasini ishslashda Registonning Sherdor madrasasi binosi ko`rinishidan ijodiy foydalanilgan. “ Ikkinchi Sherdor ” madrasasi (xalq orasida shunday deb yuritiladi) 1978 yilda O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi Abdug’affor Haqqulovtashabbusi hamda rahbarligi ostida qayta ta’mirlangan. Madrasa peshtoqidagi sher suratining aks ettirilishi, katta hovlining chetlaridagi hujralarning joylashishi Registondagi Sherdor madrasasining nusxasini takrorlaydi va undan farqli o’laroq, bu erda minoralar yo’q. Madrasa bir qavatli qurilgan bo’lib, XVI-XVII asrlarda keng tarqalgan hashamatli va sharqona to’rt ayvonlilik usulida bunyod etilgan.

Madrasanining peshtoqida qurilishning boshlanish vaqtini ko’rsatuvchi yozuvlar bitilgan. Ular naqsh bezaklari bilan uyg`unlashib ketgan. Bu yozuvlarni naqshlar bilan hashamatlashtirish Xo`ja Hoshim va muhandis-quruvchi Do’stmuhammadlar ijodi va bezak san’atining namunasidir.

Madrasa katta masjid, darsxona vazifasini o’tagan zaldan, to’rtta darsxona va 28 ta hujralardan iborat. Katta zal ustida hashamatli gumbaz mavjud.

Xonaqoh — katta bino yoki uning asosiy xonasi: 1) diniy me`moriy inshootlar (masjid, Madrasa va b.)dagi katta xona (zal), ziyoratchilar uchun qurilgan jamoat xonalar, hujralar ham shunday ataladi; 2) sufiylar mashg`ulotlarini o’tkazishga mo`ljallangan katta xona va uning atrofiga qurilgan xujralardan iborat me`moriy maskan; 3) mahalla, qishloq masjidlarining tomi (yopmasi) gumbazli yoki tekis bo`lgan kishki kismi.

Xonaqoh odatda, murabba yoki to`rtburchak tarhli bo`lib, bir necha kirish eshigiga ega bo`lgan. Mujassamotida, ayniqsa, ochiq muhitda markaziylikka moyillik seziladi. Asosiy kirish eshigi an`anaviy usulda baland peshtoqli qilib qurilgan, eshiklar tobodoniga yog`och panjaralar o`rnatilgan, ichi oddiy, ravoqli, tokchali, mexrobi serhasham bezatilgan. Binolar tarkibidagi Xonakoh maqbara bo`lgan yoki shunga o`xshash vazifani bajargan (mas, Toshkent sh.dagi Baroqxon madrasasidati Suyunchxo`ja maqbarasi, Abulkosim madrasasidagi Mo`yi muborak X. va b.). Mahalla masjidlari Xonakohi gumbaz tomli qilib qurilsa ham, ayvonining shifti tekis bo`lgan. Ko`p holatlarda Xonakoh ham, ayvon ham bir xil to`sini qilib qurilgan. Yirik Xonakohlar amaliy bezak san`ati namunalar (ganch va yog`och o`ymakorligi, naqqoshlik va b.) bilan jozibador bezatilgan (Buxorodagi Xo`ja Zaynuddin, Chor Bakr, Qosim Shayx Xonakohlari diqqatga sazovor). Xonakoh maxsus bino sifatida O`rta Osiyoda Amir Temur davrida ham ma`lum bo`lgan, 16-a.dan keng miqyosda qurila boshlagan. Vaqt o`tishi bilan Xonakohning vazifasi o`zgarib borgan, so`nggi o`rta asrlarga kelib Xonaqoh darvishlar zikru samo` qiladigan maskanga aylana boshlagan.

Madrasa(Arab.: مدرسة - dars o`qitiladigan joy, darsxona) - islomda o`rta va oliy maxsus diniy o`quv yurti. Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlarida ulamolar va maktabdorlar, davlat idora xodimlarini tayyorlagan. Islom mamlakatlarida Madrasa haqidagi ilk ma`lumotlar 10-asrga oid bo`lib, ular Xuroson va Movarounnahrda joylashgan. 11-asrdan boshlab yetakchi o`quv yurtiga aylangan, bungacha ta`lim masjidlarda va xususiy uylarda, shuningdek, mehmonxonalar, kutubxonalar, kasalxonalarda olib borilgan. Madrasalar vaqf hisobiga ta`sis etilgan. Madrasada mudarrislar va boshqa xizmatchilar maosh, talabalar stipendiya, o`quv jihozlari (daftar, kitob, kalam va boshqalar) va turar joy bilan ta`minlangan. Madrasalar 11-12-asrlarda O`rta Osiyoning barcha yirik shaharlarida bo`lgan. Madrasaga maktabni tugatgan o`sprinlar qabul qilingan. O`rta Osiyodagi Madrasalarda arab va fors tilida yozilgan - Qur`on, hadislar, shariat qonunlari o`rgatilgan. Ayrim Madrasalarda tibbiyat, aruz ilmi, falsafa,

geografiya va boshqa fanlar o`qitilgan. Hozir jahondagi ko`p xorijiy musulmon mamlakatlarning Madrasalarida diniy ta`lim bilan birga dunyoviy bilimlar ham o`qitiladi.

Madrasa (arab, darasa—o`rganmoq) — musulmonlarning o`rta va oliy o`quv yurti. Ulamolar va maktabdorlar, Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlarida davlat organlari xizmatchilarini ham tayyorlaydi. 7—8-a.larda islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida arab davlatlarida paydo bo`lgan. 9—13-a.larda islom diniga e`tiqod qilinadigan mamlakatlarda, jumladan, O`rta Osiyoda tarqaldi. Madrasalarda milliy ziyorilar tayyorlangan. Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida aytib o`tilgan 937 y.gi yong`inda zarar ko`rgan "Forjak" Madrasasi O`rta Osiyodagi dastlabki Madrasalardandir. Madrasalarning xon Madrasalari, eshon Madrasalari, xususiy Madrasalar kabi turlari bo`lgan. Madrasa muassislari Madrasani ta`minlash uchun maxsus mulk — vaqf ajratishgan va bu mulkni boshqaruvchi mutavvalini tayinlashgan. Madrasalarning vaqf daromadlaridan bir qismi vaqf mulkini saklab turish, Madrasa binosini ta`mirlash uchun ajratilgan, ma`lum qismi mutavvali, mudarrislar, talabalar, masjid imomi, muazzini, sartaroshi, farroshi va b. xizmatchilarga berilgan.

Madrasaga maktabxona tugatganlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 dan 40 yoshgacha bo`lgan. Ular Madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo`lgan kunduzgi bo`lim va darslarga erkin qatnovchi sirtqi bo`lim talabalari toifalariga ajratilgan. Madrasa o`quv dasturining umumiyligi jihatlari 10—12-a.larda ishlab chiqilgan va keyinchalik takomillashib borgan. Mashg`ulotlar, odatda, sentabrda boshlanib, may oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta`tilga chiqilgan. Madrasada hafta kunlari tahsil (shanba, yakshanba, dushanba, seshanba) — mashg`ulot kunlari va ta`til (chorshanba, payshanba, juma) — o`tilganlarni takrorlash hamda dam olish kunlariga bo`lingan. Darslar quyosh chiqish payti (bomdod nomozidan keyinoq) boshlangan. Madrasada ta`lim 3 bosqichda: boshlang`ich (adno), o`rta (avsat) va yuqori (a`lo) guruhlarda

olib borilgan. Madrasalar musulmon olamida me`morlik inshooti sifatida 10—11-a.larda vujudga kelgan. Ilk Madrasalar bir qavatli, o`rtasi hovli va uning atrofi hujralardan iborat bo`lgan. Ba`zan gumbazli go`rxona qurilib, Madrasaga homiylik qilgan kishining sag`anasi qo`yilgan. 14—16-a.lardan boshlab hashamatli Madrasa binolari qurish avj oldi. Ular 2—3 qavatli qurilib, odatda, katta va go`zal peshtokli, atrofi hujralar bilan o`ralgan hovlisi, darsxona, kutubxona va mayejidi bo`lgan. Keyinrok, katta Madrasalar yoniga minora qurish rasm bo`lgan. Kirish peshtoqining ro`parasida, peshayvon bo`lib, u yozgi darsxona vazifasini bajargan hamda hovliga salobat bergan. Ba`zan Madrasalarda hujralarning hovli tomoni ravoqli ayvonlar bilan o`ralib, hovli o`rtasida hovuz qilingan. Madrasalarning tashqi va ichki qismi har xil rangli koshinkori va ganchkor bezaklar bilan pardozlangan. Qur`ondan oyatlar va hadislar ko`chirib yozilgan. Mas, Buxorodagi Ulug`bek Madrasasi eshiklariga "Bilim olmoq har bir musulmon erkak va ayolning burchidir" degan hadisi-sharif bitilgan.

Madrasa umumiy qurilish tipologiyasi (tasnifi) loyihasi va qurilmasiga ko`ra, ajralib turadi. O`rta Osiyo me`morligida masjid va darsxona qoidaga ko`ra, peshtoqning ikki yon qanotida joylashgan. Suriya va Misrda ular kiraverishda hovlining to`rida ko`ndalangiga ayvonli qilib qurilgan. Turkiyada hovli tepasi ham gumbaz bilan qoplangan. O`rta Osiyo va G`arbiy Osiyoda odatdagidek ravokli qilib yopish uslubi qo`llangan. Shim. Afrikada to`sinti tomlar bo`lgan. Arab mamlakatlarida dastlabki Madrasa vazir Nizomulmulk tomonidan Bag`donna (11-a.ning 2-yarmida) qurilgan. O`rta Osiyoda Madrasa maxsus me`morlik inshooti sifatida qurilgani haqida tarixiy ma`lumotlar saqlangan. Shohizinda tarkibida Samarqand hokimi Tamg`och Bug`roxon Ibrohim qurdirgan (11-a.) Madrasa qoldiqlari topilgan. Buxorodagi Mir Arab madrasasi, Abdullaxon madrasasi, Abdulazizzon madrasasi, Samarqanddagi Ulug`bek madrasasi, Sher dor Madrasa, Timakori madrasasi, Xivadagi Muhammad Rahimxon madrasasi, Muhammad Amin inots madrasasi, Toshkentdagi Ko`kaldosh madrasasi, Baroqxon madrasasi, Abulqosim

madrasasi, Qo`qondagi Kamol qozi madrasasi, Andijondagi gumbaz M. va b. me`moriy yodgorliklar sifatida mashhur.

Buxoroga borib, shu qadimiy shaharni ko'rgan kishilarning barchasi minoralarning tepalaridagi g'alati ko'rinishdagi «qalpoqlarga» e'tibor bergen bo'lsalar kerak. Bular laylak uyalaridir. Umidning timsoli bo'lgan bu oppoq qushlar shaharning ramzi, uning barqarorligi va sadoqatining ham ramzi bo'la oladi. Boy go'zal shahar juda ko'p marta turli-tuman dushmanlarning bosqinchilik hujumlarining maqsadi bo'lgan, mo'g'ul-tatarlarning bosqini eng og'ir, yer bilan yakson qiluvchi darajada bo'lgan edi. Lekin Buxoro har gal qaytadan aynan o'sha joyda tiklanib, o'z zamini-yu an'analariga sodiq bo'lib qaytadan barpo bo'lar edi

Buxoroga asos solinishi qadim-qadimgi asrlar tubiga borib taqaladi. 1997 yilda YuNESKO ning qaroriga ko'ra butun madaniy dunyo uning 2500-yilligini nishonlagan edi. Afsonalar shaharning paydo bo'lishini tarixiy shaxs obrazi bilan bog'liq Zardo'shtiylik xudolaridan biri – Siyovush bilan bog'laydi. Buxoroning eng qadimiy qismi uning qal'asi – Ark hisoblanadi, bu yerda arxeologlar eramizdan avvalgi IV - III asrlarga oid bo'lgan ba'zi topilmalar borligini aniqlashdi. Bu balandligi 20 metr bo'lgan katta tepalik bo'lib, u yerda ilgari Buxoro amirining saroyi, uning harami, xazinasi, qurol-yarog' saqlanadigan xonalari, o'ta xavfli jinoyatchilar uchun zindon bo'lgan edi. Hozirgi paytda ular tiklanmoqda.

Buxoroning eng qadimiy yodgorliklaridan biri X asrning boshida Somoniylar sulolasining asoschisi tomonidan qurilgan Ismoil Somoniy maqbarasidir. Maqbara usti yarim sfera shaklidagi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binodir. Somoniylar maqbarasi O'rta Osiyoning me'morchiligida bizgacha yetib kelgan, pishiq g'ishtdan qurilgan birinchi bino bo'lib, bunda g'ishtlar ham qurilish uchun, ham bezatish uchun ishlatilgan.

Shaharning asosiy va eng baland ko'tarilgan inshooti – 1127 yilda qurilgan Kalon minorasidir. Bu har tomonlama komil muhandislik inshooti, Buxoroning sathidan 47 metrga ko'tarilib turgan ulkan minoradir. O'zbekistonda

eng baland bo’lgan ushbu minora tepaga chiqqan sari sal ingichkalashib boradi, uning dumaloq aylanasidan o’rab turgan halqalar turli rangdagi sirlangan g’ishtchalar bilan bezatilgan. Shu bilan birga minoradagi naqshlarning turlitumanligi va takrorlanib kelishi sodda va komil me’morchilik shakllarini boyitadi.

Buxorodagi o’rta asrlar me’morchiligining alohida xususiyati – ko’cha yoki maydon bilan bir-biridan ajralib turgan va old yuzasi, darvozalari bilan bir-biriga qarab turgan ikkita ulkan inshootdan iborat bo’lgan majmualarning barpo etilishi edi. Shu asosda shaharning markaziy me’morchilik majmuasi yaratilgan – Poi Kalon («Ulkan inshoot osti») maydoni. Uning minorasi gumbazli o’tish yo’li bilan benihoya ulkan juma masjidi – Masjidi Kalon bilan bog’langan. Uning qarshisida XVI asrning boshida hatto bizning davrimizda ham ishlayotgan Mir-Arab madrasasi barpo etilgan.

Chashma-Ayub mozorining barpo etilishi ham XII asrlarga oid, deb hisoblanadi. Afsonalarga qaraganda, Injildagi payg’ambarlardan biri – Ayub (Iov) Buxoroning bu suvsiz qismidan o’tayotganda hassasi bilan yerga urgan – natijada bu yerda top-toza, shifobaxsh suvli buloq paydo bo’lgan. XIV asrda Amir Temur o’zining yurishlaridan birida olib kelgan xorazmlik ustalar buloq va quduq ustidan bino barpo etganlar hamda quduqdagi baland tortish qurilmasi ustidagi konus shaklidagi gumbazga Xorazm uchun xos bo’lgan shakl bergenlar. Ularga qaraganda mashhur Chor-Minor masjidi esa yangi qurilgan bino, deb atalishi mumkin – u XIX asrda qurilgan. Bu masjidda to’rtta uncha baland bo’lмаган minoralar hamda gumbazlar zangori rangda bo’lib, masjidga o’ziga xos qiyofa bag’ishlaydi.

Sharq me’morchiligi uchun sun’iy suv havzalari bo’lgan hovuzlardan nafaqat amaliy maqsadlarda, balki shaharni yanada har tomonlama bezatish uchun ham foydalanish odatdagi holdir. Buxoroda saksontadan ortiq bunday obodonlashtirilgan hovuzlar bo’lib, shaharni ta’minlab turar edi. Ulardan eng mashhur bo’lgan hovuz Labi-hovuzdir.

## **2.4Kartinada asosiy rang munosabatlarni idrok qilish va tasvirlash**

Asarni rangda tasvirlash jarayoni o’z qonun qoidalariga ega. Ishning boshlanish qismida nimalar qilish, o’rtasida qaysi masalalarni xal etish va oxirlab qolgandauniqanday yakunlash kerakligini bilish zarurdir. Umumiy tus va rang xolatlari va natura bo’yoqlarning bir-birga yaqinligidagi tus va rang munosabatlarini topa bilish;

- Katta rang-tusli munosabatlar chegarasidagi ranh-tuslarning «cho’zilishi», aloxida byumlarning xajmi shakilarining bat afsil rangli qayta ishlanishi;
- Butun tasvirning umumiyligi, yaxlitligi xamda kompozitsiya markazini ko’rsata bilish. Bu masalalarning har biri nima bilan yakunlanishi ketma-ketlikda ko’rib chiqamiz.

Tasvirlashning to’liq rangtasviri qurilishi, asosiy qisimlari oralig’idagi tus va ranglar munosabatining aniq va to’g’ri ko’rsatilishi bilan aniqlanadi. Manzarada –osmon oralig’dagi yer yuzasi va daryodagi suv, tarixiy obida oldingi,o’ta va orqa oraliqdagi ko’rinishlardir. Agarda bu asosiy rang-tuslar munosabati (farqlari) «etyud»da noto’g’ri tasvirlansa, manzaradagi obektlar yoki buyumlar shaklidagi rang tuslari, reflekslar va jism bo’laklari ustida xar qancha berilib ishlanmasin,yuqori saviyali mukammal rangtasvirga erishib bo’lmaydi.Qalamtasvirni ishlashda xam taxliliy bajariladi: dastlab «konstruktiv»-ichki qurilishi, nisbatlari,yaxlit umumiyl shakl topiladi. Rassom shunday sharoitda aslo bu masaladan chekinmaydi, tasvirni umumiyl va yaxlit ko’radi.H.H.Ge bejiz rassomlarni ogoxlantirmaydi: «Tasvir»dagi bosh qismlarni belgilab,nisbatlarni tekshirish uchun darxol asosiy soya va yorug’likni umumiyl sinchiklab o’rganib chiqing va har doim,har vaqt tasvirni boshidan oxirigacha umumlashtirgan holda chizing xamda mayda bo’laklarga oxista kirishing. “Mana sizlarga chizishning siri”.

Rangtasvirda xam,ish boshlashdan avval umumiyl rang munosabatlarini diqqat bilan o’rganib chiqish lozim. Shuning uchun bu masalaga 5-10 minut vaqt sarflab, umumiyl rang munosabatlarini tushunish kerak: eng och va eng to’q

(zich) dog' qaerda, tusi va rang kuchi bo'yicha asosiy farqlar (to'yinganligi) qanday ekanligini topish kerak. Masalan, sariq olmalar fondagi sariq tarihiy obida bilan solishtirilsa, olmalar ochroq ularning sariq tusi sariq obidaning gishtiga nisbatan yorqinroq (to'yingan)ko'rindi. Rangning uch xil o'ziga xosligi bo'yicha asosiy rangxususiyatliligmavjud. Ob'yeqtadagi umumiyligni topilishi rasomni ikkinchi darajali belgilar uning qayday bo'laklarga,koloritli masalaga mustasno xolda e'tibor berishdan, umumiy tus va rang xolatini,asosiy tus va rang munosabatlarini paydo qilishdan chalg'itishga xarakat qiladi. Shunday qilib ranglar qonuniyatlarida xam, asosiga echiladi, etyudning keyingi mayda detalli ishlariga poydevor yaratiladi.

Rang munosabatlarini eng avvalo och va intensiv ranglarni qidirishdan boshlash kerak,so'ng eng to'qini topib,qolganlarini esa shularga nisbatan aniqlash ma'qul. Keyingi tuslarga biroz to'qroq va biroz intensiv bo'lganlar va boshqalar kirasi. Murakkab kulrang tuslar oxirida beriladi. Dastlabki va yakunlovchi tuslarni har doim ham eng och va eng to'q hamda to'yingan qilib olinmaydi. Qo'yilmadagi eng och joy har doim ham oq bo'lavermaydi, eng to'q joy esa qora bo'lmaydi. Kuchli to'yingan yorqin ranglar ham kamdan-kam uchraydi. Hattoki bahorgi o't - o'lanlarni tasvirlashda juda ehtiyyotkor bo'lish lozim. Uning yorqinligini shunday kuchaytirib tasvirlash mumkinki, natijada u o'zining tabiiy ko'rinishidan boshqacha bo'lib chiqib qoladi. Shuning uchun ishga kirishishdan avval umumiy tus va ranglar kuchini aniqlab olish kerak: munosabatlarni qanday bo'yoqlar yig'indisida bajarish – och yoki to'q, yorqinlikning (to'yinganlik) qanday chegarasida bo'lishini ham aniqlash muhim. Qisqa qilib aytganda, umumiy tus va rang holatini bilish kerak. Bunday holatni saqlab qolish uchun balki ranglar munosabatini chegaralangan bo'yoqlarda tasvirlashga to'g'ri keladi. Ishni eng och, to'q va yorqin tuslardan boshlaganda politradagi barcha ranglardan, shu bilan birga eng yorqin va keskin bo'yoqlardan foydalanish shart emas.

Yorug'-soya va rang munosabatlarini aniqlashda umumiyyadan hususiyga qarab

berish lozim. Avvalo asosiy ob'ekt oralig'idagi tus farqlarini topish muhim. Manzarani tasvirlashda avvalo osmon va yerning alohida jismlarini bir-biriga va ularning yaxlitligida bo'lgan rang munosabatlarida aniqlash kerak. Inson qomati tasviri yoki portret ham xuddi shu tariqa bajariladi. Rassomlarning amaliy tajribasida shunday jumlalar mavjud : "katta yorug'lik" , "katta soya" , "katta shakl" , "katta ranglar munosabati". Bulardan maqsad ob'ektini yaxlit ko'rish va ularni barqaror qilib tasvirlashdir. Tasvirni yaxlit idrok etganda, yorug'lik tikka ta'sir etayotgan joydagi narsalar yagona bir qismni tashkil etadi va undagi dog'lar kuchliligi bo'yicha soya qismdagiga teng kela olmaydi. Xuddi shularni shaxsiy va tushayotgan soyalarga moslash mumkin: ular tus bo'yicha yarimsoya bilan yaxshi chiqishadi, yarimsoya esa tasvirning yorug'lik qismlaridagi kuchga teng kela olmaydi. Soyadagi refleks yarimsoyadan och bo'la olmaydi, ammo shaxsiy soyaning umumiy tusiga bo'ysunadi. Ob'ektdagi ushbu katta shakllar yoki buyumlar guruhi tusi va rangining to'g'ri saqlanishi tasvirga yaxlitlik va yoritilishining to'g'ri bo'lishiga turki bo'ladi.Umumiy ranglar munosabati va navbatdagi ishning davomi hos koloritini hisobga olgan holda borishi kerak. Tajribasiz rassomlar u yoki bu ranglavha etyudini, manzarani yoki portretni tasvirlayotganda har doim ham undagi yaxlitlik va bo'yoqlar birligini muvaffaqiyatli bajara olishmaydi. Ishlash jarayonida har bir aniq holatda koloritni tushunib yetish, tusli va rangli holat xususiyatini ko'rsata bilishlari zarur. Hamma gap bo'yoqlaridagi umumiy tus, rang holati va kolorit birligini ko'rish va tushunib yetishdadir.

Yirik plandagi tus munosabatlarini aniqlab olgandan so‘ng, yorug-soya qismlarini modellashtirishga ya’ni, har bir buyumning yorug-soyasi, yarim soya, shaxsiy hamda tushayotgan soyalarini topgan holda xajmli shaklini rang-barang qilib tasvirlashga o‘tish mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, buyumlarning ustki qismi ham rang-tusi bo‘yicha, ham yorug‘ligi bo‘yicha, ham to‘yinganligi bo‘yicha ham tushayotgan yorug‘lik nurining oraliq masofasiga, sinadi, burchagiga hamda atrofida o‘rab turgan reflekslariga va kontrast munosabatlariga bog‘liq holda o‘zgaradi. Yorug‘likka, yarim soyaga yoki soyaga

yonma-yon turgan qandaydir ikkita yuza jismlaridagi narsalarda bir xil yoritilish sharoiti mavjud emas. Barcha qismini palitrada topilgan rang bilan unga och yoki to‘q rangni qo‘sib ishlash mumkin emas. Har bir bo‘lagi uchun yangi va yana yangi bo‘yoq qorishmalarini topish kerak. Odatda lokal rangi yarim soyada sezilarliroq, chunki yarim soya yorug‘lik manbaining asosiy va aks etayotgan tomonlaridan ancha sust ta’sir etadi. Xajmli shaklini jozibadorligi va natura qo‘yilmasining yaxlitligini to‘g‘ri anglash uchun, issiq tuslar bilan yonma-yon aralash kontrast kuchida inson ko‘zi sovuq rangni ko‘radi. Bir rang boshqasiga qo‘sishimcha bo‘lgan rangni his qiladi. Buning natijasida sovuq ranglarga issiq ranglar hamisha yo‘ldoshdir. Agar biz buyumning sirtida zarg‘aldoq rangni ko‘rsak, yonida esa albatta havo rangni sezamiz.

Issiq va sovuq tuslar tasvir ohangdorligini oshiradi, tabiiy ko‘rinishni naomyonetadi. Katta shaklini modellashtirayotib, mayda bo‘laklarni chiza turib, shuni yodda tutish kerakki, katta shaklning ham yoritilgan, ham soyadagi yuzasida joylashgan ko‘plab kichik shakllarda aniqlanadigan tusni oshirib yubormaslik kerak. Yorug‘likda yoki soyada joylashgan mayda shakl tuslarining yaqinligini ilg‘ab olish uchun, ish jarayonida atrof - muhitga bog‘liq bo‘lmagan buyumlarga e’tibor berish shart emas. Aytib o‘tganimizdek, buyumlarni yaxlit ko‘rib, doimo ularni o‘zaro solishtirib turish zarur. Buyumning och qismini tasvirlay turib, qaysi nuqtada u yorug‘ligi va rangining eng quyuqligi va qaerda kuchliroq namoyon bo‘lishini, so‘ngra esa xajmli shaklning qolgan qismida topilgan tus bilan taqqoslab aniqlash kerak. Eslatib o‘tamiz, ranglarni uch xususiyat bo‘yicha taqqoslasmiz: yorug‘ligi, rang tusi va to‘yinganligi. Agar biror bir rang yorug‘ligi bo‘yicha to‘g‘ri topilib, boshqa xususiyatlari aniq bo‘lmasa,bu rangni to‘g‘ri deb bo‘lmaydi – munosabatlar rang tusi va to‘yinganligi bo‘yicha ham aniqlangan bo‘lishi kerak. Solishtirib, o‘xshashligini yoki ularning orasidagi farqlarini aniqlash shunday holatda yengillashadiki, agar havo rang buyumni boshqa bir tusi o‘zgacharoq buyum bilan solishtirsak. Bunday taqqoslash bizni sinchiklab qarashimizni charxlaydi hamda ulardagi rang tusini aniq ko‘rishga ko‘mak beradi.

Buyumlarni ranggi bo'yicha taqqoslashda yana bir holatni hisobga olish zarur. Ketma-ketlikdakni rang kontrasti tufayli, kulrangning nozik tuni nima bilan qiyoslashimizga bog'liq bo'lib, goh issiq, goh sovuq bo'lgan holda tuyuladi. Agar kulrangni qizil rang bilan solishtirsak, u sovuq tusda, havo rang bilan taqqoslasak, issiq tusda ko'rindi. Shu sababli buyumning nozik tunini aniqlashda xolis rangni xolis bilan, issiqni issiq bilan, sovuqni sovuq bilan, och rangni och bilan, to'q rangni to'q bilan o'zaro solishtirish kerak. Tasvirlanayotgan ob'ektning nafaqat asosiy yuqorida qayd etilgan rangning uchta xususiyati bo'yicha, balki tashqi ko'rinishining aniqligi bo'yicha ham taqqoslash zarur. Tasvirlanayotgan buyumlarning chegarasi hamma joyda ham bir xil aniq ko'rinxaydi. Bir xil joyda buyumning silueti yaxshi ko'rindi, boshqa joyda esa fon bilan birikib ketadi. Tushayotgan soyalar chegarasi ham barcha yerda bir xil ko'rinxaydi. Ish jarayonida doimo munosabatlar bilan fikrlash kerak: matoda tasvirlanayotgan bir necha buyumlarni xuddi shu guruh bilan qiyoslab borish maqsadga muvofiq. Faraz qilamiz, birinchi ko'rinishdagi guruhining ranglari ikkinchi ko'rinishdagi rangiga nisbatan juda ham yorqin va to'q tusdadir. Ularning bu farqlarini sezgach, palitrada ranglarni alohida bitta, bitta emas, balki birdaniga bir necha rangni munosabatlarda tanlash zarurdir.

Havaskor rassom manzara lavhani tasvirlayotganda old ko'rinishidan boshlashi ma'qul. Agar rang qatlamlarini orqa ko'rinishdan qo'ya boshlasa, uning rang va tus kuchlarini oshirib yuborib, birinchi ko'rinishni bo'rttirib ko'rsatishga bo'yoqlarning kuchi yetmaydi.

Matoning to'liq yuzasi bo'yoqlar bilan butkul qoplanib, munosabatlar to'g'ri olinmaguncha haqiqiy jarangdor bo'yoqlarni, yorug'lik kuchini va tasvirlanayotgan buyumlar moddiyilagini his qilib bo'lmaydi. Palitradagi yorqin bo'yoq - hali matodagi yorqin tus emas. Buyumlarning yoritilishi va materialligi munosabtalarning to'g'ri olinishiga bog'liq, aks holda yon tarafidagi tuslar to'g'ri topilmasa, qaysidir bir rangning jarangdorligiga erishib bo'lmaydi.

Rangtasvir ishslash jarayonida ranglar munosabatini to'g'ri aniqlash bilan birga, shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, biz faqat oddiy rang dog'lari

bilan emas, balki aniq bir shakl ustida ham ish olib borayapmiz. Ranglar munosabatini izlashdan maqsad, to‘g‘ri topilgan rang tuslari bilan, uning xajmli shaklini to‘g‘ri topish demakdir. Agar rang fazoviy joylashuvi, materialligi va aniq shaklini ifoda etmas ekan, u tasvirda o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Och va to‘q, rangli va rangsiz bo‘yoq surtmalari ma’lum bir buyum shakliga va ob’ektga tegishli bo‘lsagina, materiallik, ranglar uyg‘unligi va koloritni yaratadi.

Manzaraning fazoviy kengligini masalan, faqat havo perespektivasi tufayli ranglar o‘zgarishini ko‘rsatib beruvchi rangli dog‘lar emas, balki yer yuzasida joylashgan narsalar va ob’ektlar: daraxtlar, qurilishlar, to‘g‘ri to‘rtburchakli va notekis maydonlarni o‘lchamlari va chiziqlar aniqligi ranglarda o‘zgarib, manzaraning fazoviy uzoqlashishini yaratadi. Obidalarni, masalan, ikkinchi va olis ko‘rinishda umumiyligi rang dog‘larida ifoda etish mumkin emas. Rang bilan ularning rel’efini va o‘simliklar tuzilishini tasvirlash kerak.

Ishning yakunida tarixiy manzaraning u yoki bu joylari kerakli yorqinlikni olmay qolgan bo‘lishi mumkin yoki aksincha, haddan tashqari tusi va ranggi bo‘yicha kuchli, umumiyligi rang tusidan “ajralib” ko‘rinishi mumkin. Yoritilgan joylar tusi bo‘yicha o‘ta keskin bo‘lib, qog‘oz yoki mato yuzasidan “chiqib” ketishi mumkin. Ba’zan soyali joylar sezilarli mayda detallarga ega bo‘lib, maydalashib ko‘rinadi. Bu holatlarning hammasidan ham umumlashtirish masalasi hal etiladi: mayda bo‘laklarning keskin chegaralari mayinlashtiriladi, rangdorligi kuchaytiriladi yoki xiralashtiriladi, keskin tuslar ochlashtiriladi yoki to‘qlashtiriladi.

Umumlashtirish bosqichida ishning yaxlitligicha qarash, hamma narsani birdaniga ko‘rish ya’ni “tikilib qarash” kerak. Ob’ektlarning barchasi tarqoq bo‘lib tuyuladi, ammo shu paytda tus munosabatlarini, yaxlitligini tezroq tushunish mumkin. Navbatma-navbat naturaga ham, etyudga ham yaxlit qarash kerak, shunda qayerda qanday xatoga yo‘l qo‘yilganligini ilg‘ab olish mumkin. Butunligicha, yaxlitligicha ko‘ra olish qobiliyati, ishni umumiyyadan xususiyga qarab va undan yana umumlashtirishga tomon boriladi. Ish jarayonida yaxlit ko‘rish – rangtasvirda ishslash mahoratining asosidir. Faqatgina shu malakaga ega

bo‘lgan rassom, obrazli ko‘ripnishini to‘g‘ri ifoda etishi, undagi asosiy va har bir bo‘lakning o‘z o‘rnini topishini, ishning yakuniy darajasini hamda kompozitsiyaviy markazga bo‘ysundirishni samarali bajara oladi.

Tasvirdagi qismlar yig‘indisi yaxlitga teng emas, chunki yaxlitlik – bu qismlar yig‘indisiga birlik, shu qismlarning bir-biriga bo‘ysunganligi va jamlanganligi hisoblanadi. Akademik **Ye.A.Kibrik** tasvirlashning yaxlitligi haqida shunday yozgan: “*Yaxlitlik qonuniga bo‘ysunmasdan turib, naturadan na qalamda, na rangda tasvirlash mumkin emas. Shakl ham, rang ham o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lmaydi, faqat yaxlitlik qismi kabi yaxlitlikka nisbatan bo‘ladi*”.

Shu o‘rinda har bir bo‘lajak rassom yoki tasviriy san’atni o‘rganuvchi tasvirlash jarayonini narsani o‘ziga qarab chizishdan boshlashi, bundan ko‘proq foydalanishi lozimligi hamda ushbu usul tasavvur qilish qobiliyatini o‘stirishda samarali natijalarga olib kelishi haqida alohida to‘xtalib o‘tmoxchimiz.

### **Asarni moy bo‘yoqda bajarish texnologiyasi**

Xar qanday tasvir mayda qismlardan emas, yaxlitlikdan boshlanadi. Dastlab katta umumi shakl topiladi. Keyin esa mayda bo‘laklari ishlanadi. Shu munosabat bilan tasvirlash jaraeni qoidasi mavjud umumiydan mayda bo‘laklarga bu yana umumlashtirishga. Tarixiy manzara etyudini ishlash yaxlit asosiy munosabatlarni qo‘rishdan manzaraning asosiy ob‘ektlari (tarixiy ob‘ekt, osmon, er, suv, old o‘rta va olisdagi qo‘rinishlari bilan) asaridagi rang farqlaridan boshlanadi. Manzaraning ob‘ektlaridagi asosiy munosabatlarni to‘gri olinishi keyingi rang qurilish, mayda bo‘laklarni tasvirlashda ishni osonlashtiradi. Agarda asosiy rang munosabatlari noto‘gri topilgan bo’lsa, reflekslar va ranglardagi nozik farqlar, mayda qismlarni qanchalik sinchiklab (astoydil) bajarilmasin, mazmunli tasvir xosil bo‘lmaydi. Plenerda boshlangich ishlar jaraenida kichik etyudlar (15\*10 sm.) bajarish zarur. Manzaradagi keskin kontrastlar (tusli va rangdorlik) qo‘rish taasurotlari bo‘yicha taqqoslanadi. Birinchi navbatda old qo‘rinishi munosabatlari oldidagi nisbati aniqlashtiradi. Ish bo‘yicha kichik o‘lchamdagagi etyudlarda maydalangan qismlarni idroq etish

mumkin emas. Esh rassom naturani aynan “qo’chirmasdan”, balki yaxlit rang munosabatlarida tasvirlaydi.

Tus va rang munosabatlari metodi bilan etyudni bajarish aslida ochiq, intensiv va rang doglarni aniqlashdan boshalanadi. Ular oraliqdagi tus va rang doglarini kuchli jixatdan taqqoslanadi. Manzarada, masalan, quyosh nuri bilan eritilgan yashil balandlik eng erug va rang bo'yicha yorkin bo'lishi, toq tusda esa old qo'rinish.

Manzaraning umumiy rang munosabatlarini topish maksadida talaba vazifani yetarli darajada savodli uddalay olmasa qisqa vaqtli etyudlarni qo'p marta takrorlash zarur. Dastlab tasvirlash uchun uncha murakkab bo'limgan yopiq kenglikni (masalan qisman xovli o'yni va xokazo), ob'ektlar bo'lib xizmat qilishi mumkin. Keyin vazifani biroz murakkablashtirib, bir necha ko'rinishda (old, o'rtalig'i va uzoq) ega bo'lgan ochiq kenglikdagi manzarani tanlash zarur. Bu etyudlarda esa e'tiborni xavoiy perspektivaga, osmon rangi, manzaraning barcha ob'ektlarini noziq farqlari bo'yicha och – to'qligi va to'yingan ranglarining o'zgarishlariga qaratish kerak. Ularni barovar idroq qilishda manzarani barcha qo'rinishlarini taqqoslash yo'li bilan sezish mumkin.

Masalan, old qo'rinishdagi daryo qirgogini ikkinchi va yiroqdagi qo'rinishlari bilan bir vaqt o'zida osmonning suvdagi aksi bilan xam qiyoslanadi. Etyudning ranglar munosabatlari yaxlit belgilanmaguncha uning bir qismini tugatish mumkin emas. Xar bir etyud 30 daqikadan 1 soatgacha davom etadi.

Bulutli kunda ko'katlar rangi ancha quruq (qoramtil) va kam to'yingan bo'ladi. Xamma narsalar to'qlashadi, qizil, zargaldoq va sariq ranglar to'yinganligi jixatdan xiralashadi, yashil bilan zangori rang esa faollashadi. Shuning uchun bunday xolatlarni xisobga olmasdan manzarani tasvirlab bo'lmaydi. Kunning istalgan vaqtida yoki turli ob – xavo sharoitida tasvirlangan etyudlar, umumiy tus va rang jixatdan bir – biridan farq qilishni lozim.

“Manzarada” – deydi R. Falq, - asosiysi xavoiy muxitning rangli xolatidir”.

Manzara etyudining yoritilish xolatini o'rganish uchun bulutli, quyoshli kunda, yoz va qish aynan bir mavzuni bajarish juda foydali. Qator bajarilgan etyudlarni solishtirib, manzaraning turli xolatini jozibali xususiyatlarini sezish mumkin barcha etyudlarda eng yorin va ravshan doglar palitraning yorqin to'yingan bo'yoqlarida tasvirlangan.

**Tasviriy sa'nat darslarida manzara janri orqali ijodiy qobiliyatlarini  
shakllantirish.“Labi Hovuz” tarixiy obidalari misolida.**

<b>Maqsad va vazifalar</b>	<p><b>Darsni ta`limiy maqsadi.</b> Rangtasvirda manzara, unda obraz, kolorit, fazo va kompozitsion ifodalilik, atrof muhitdagi,san`atdagi g`o`zalliklar haqida ma`lumot berish.</p> <p><b>Darsni tarbiyaviy maqsadi.</b> Tabiat va san`atdagi g`o`zalliklarni ko`ra bilish, milliy iftixon, qadriyat sifatida e`tirof etish va muhofaza etishga o`rgatish.Ma`naviy barkamol avlod tarbiyasiga zamin yaratish.</p> <p><b>Darsni rivojlantiruvchi maqsadi.</b> O`quvchilarda estetik did, estetik ong, badiiy tasavvurni tarkib toptirish hamda rivojlantirish. Ijodiy – tasviriy qobiliyat va iste`dodlarini rivojlantirish.</p>
<b>O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi.</b>	<p><b>Uslug.Yangi bilimlar berish.</b> <b>Shakl. An`anaviy.</b> <b>Jihozlanishi.</b> Oq qog`oz, akvarel va guash bo`yoqlari, mo`yqalamlar,tabiatni obrazli manzarasi aks etgan rangtasvir asarlarining reproduksiyalari.</p> <p><b>Usul.</b> Bahs- munozara, savol - javob, muhokama, amaliy ish.</p> <p><b>Baholash.</b> Rag`batlantirish. 5 ball.</p>
<b>Mavzu rejasi.</b>	<p><b>1.Manzara janri haqida suhbat.</b> <b>2.Manzara kompozitsiyasi.</b> <b>3. Labi Hovuz ansanbili tarixiy obidalari tabiat manzarasini chizish qonun-qoidalari haqida tushuncha berish va amaliy ish.</b></p> <p><b>4.Mavzu yuzasidan savol javob.</b></p>
<b>Yangi mavzu mazmuni</b>	<p>Tasviriy san`atda tabiat, industrial sanoat, interer ko`rinishlarini tasvirlanishi manzara janriga ta`luqlidir. Manzara tasviriy san`atning qadimiy janrlaridan bo`lib, tarixiy maishiy asarlarda ham vosita, fon sifatida muhim ro`l o`ynaydi. Manzara janrida samarali ijod qilgan rassomlardan I. Levitan, I. Shishkin, O`.</p>

	Tansiqboyev, I.K.Ayvazovskiy, N. Karaxan kabilar tilga olinadi. Rashid Temurov
<b>O`quvchilar mustaqil ishlari.</b>	O`quvchilar mavzu asosida rasm chizadi. O`qituvchi parta oralab o`quvchilarga individual yordam beradi. Chizilgan ishlarni namuna qilib ko`rsatadi.
<b>Darsni mustahkamlash.</b>	Darsda yaxshi qatnashgan o`quvchilar rag`batlantiriladi. Yaxshi chizilgan o`quvchilar ishlari namuna qilib ko`rsatiladi.

### **Dars mavzusi. Labi Hovuz tarixiy obidalari.**

#### **Darsni ta`limiy maqsadi.**

Rangtasvirda manzara, unda obraz, kolorit, fazo va kompozitsion ifodaliylik, atrof muhitdagi, san`atdagi go`zalliklarhaqida ma`lumot berish.

#### **Darsni tarbiyavyi maqsadi.**

Tabiat va san`atdagi go`zalliklarni ko`ra bilish, milliy iftixon, qadriyat sifatida e`tirof etish va muhofaza etishga o`rgatish .Ma`naviy barkamol avlod tarbiyasiga zamin yaratish.

#### **Darsni rivojlantiruvchi maqsadi.**

O`quvchilarda estetik did, estetik ong, badiiy tasavvurni tarkib toptirish hamda rivojlantirish. Ijodiy – tasviriy qobiliyat va iste`dodlarini rivojlantirish.

#### **Darsni jihozlanishi.**

#### **O`qituvchi uchun:**

a). Mavzuga mos ko`rgazmalar.

b). Bosqichli rasmlar, tarqatmali materiallar, rangli reproduksiyalar, Axborot texnologiyasidan foydalanish uchun ekran.

#### **O`quvchi uchun:**

Algom, akvarel bo`yoqlari, format, qalam, mo`yqalam.

#### **Darsning tuzilishi.**

1.Tashkiliy qism. 2 daqiqa.

2.O`tilgan mavzuni so`rash. 7 daqiqa

3.Yangi mavzu bayoni 10 daqiqa.

4.Yangi mavzuni mustahkamlash va o`quvchilarni mustaqil ishlari 23 daqiqa

5.Darsni yakuni va uyga vazifa berish 3 daqiqa.

#### **Darsning borishi .**

1.Tashkiliy qism 2 daqiqa .

O`quvchilar bilan salomlashish.Davomatni aniqlash, o`quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish.

O`quv xonasini va o`quvchilarni darsga tayyorgarlik darajasini nazorat etish.

2.O`tilgan mavzuni so`rash 7 daqiqa.

- 1.Tasviriy sanatning turlarini ayting?
- 2.Rang tasvir deb qanday tasvirga aytildi?
- 3.Grafika san'ati va uning turlari haqida malumot bering?
- 4.Manzara janrida ijod qilgan qaysi rassomlarni bilasiz?



3.Yangi mavzuning bayoni 10 daqiqa.

Manzara janri.Tasviriy san'atda tabiat, shahar, industrial-sanoat, interer ko'rinishlarining tasvirlanishi manzara janriga taaluqlidir.Manzara janrdagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiatning haqiqiy,ya'ni hayotiy ko'rinishini tasvirlasa,boshqalarida borliq ijodiy tarzda,xayolan ifodalangan bo'ladi.Ba'zan bu ikki hol bir asarda kuzatilishi ham mumkin.Manzara janrining paydo bo'lishi juda uzoqlarga borib taqaladi.Manzara tasvirlarining keng tarqalishini qadimgi Sharq va Krit orollaridagi qadimgi arxeologik qazilmalar misolida ko'rish mumkin.

Masalan, eramizdan avvalgi davrlarga oid Beni-Hasandagi qabr toshda yovvoyi mushuk ovi tasvirlangan.Manzara janri mustaqil ravishda Xitoyda oltinchi asrda paydo bo'lgan bo'lsa, Yevropa san'atida Uyg'onish davrida ilmiy negizda, ya'ni chiziqli va havo perspektivasi asosida shakillangan.

Manzara janrining ikki xili mavjud.Birinchisi mustaqil manzara bo'lib, unda faqat manzara aks ettiriladi.Ikkinchi turda manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi.Masalan,

portretning orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlashi mumkin.

Manzara janrida samarali ijod qilgan va san'at ixlosmand-lariga manzur bo'lган rassomlardan I.levitan ,I.Shishkin , O'.Tansiqboyev ,I.K.Ayvazovskiy,N.Karaxan kabilarni tilga olish mumkin.

Manzara janrining alohida shakillaridan biri bu interer hisoblanadi .Interer binolarining ichki qismi ko'rinishlarini ifodalaydi.Bu janr qadimgi Misr,Xitoy rassomchiligidagi ko'p uchraydi. Qadimgi misrliklar va xitoyliklar o'z ishlarida intererni aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida tasvirlay olganlar.

Bu janrda ijod qilib Jotto,A.Verrokko,Leonardo da Venchi, Rembrandtlar shuhurat qozonganlar.

Manzara janrining ikkinchi bir ko'rinishi bu dengiznavislik janridir.Unda asosan dengiz ko'rinishlari va undagi hodisalar tasvirlanadi.Dengiz janrining shakllanishida I.Ayvazovskiy-ning xizmatlari katta bo'lган. Bu ulug` rassom o'zining umrini faqat dengiz ko'rinishlarini tasvirlashga bag`ishladi.

Uning "To'qqizinchi val", "Chesmen jangi", "Qora dengiz", "To'lqinlar orasida" kabi asarlari jahon tasviriy san`atida munosib o'rin egallaydi.

Dengiznavislik janridagi asarlarda boshqa janrlarga xos elementlar ham ifodalanishi mumkin. Masalan, portret, manzara, tarixiy, maishiy va hokazolar.

Manzara janrida ko`proq rangtasvida, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo'llaniladi. Haykaltaroshlikda manzara ko'rinishlari asosiy emas, balki to`ldiruvchi, qo'shimcha ahamiyat kasb etadi.

Manzara – peyzaj ma'lum bir joyning ko'rinishi, tasviri bu tasviriy san`at janri hisoblanadi. Manzarada tabiat, dengiz ko'rinishlari, daraxtzorlar, qirlar, shahar va qishloqlarning qiyofasi, umuman turli joylarning tasviri orqali kishining his-tuyg`ulari badiiy obrazlarda ifodalanadi.

O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi mohir pedagog P.P.Benkov o`z asarlari bilan o`zbek tasviriy san`atiga salmoqli hissa qo`shgan rassom. P.P.Benkov serquyosh, serfayz o`lkamizni sevib qolgan va umrining oxirigacha shu erda qolib ijod qildi. U yaratgan suratlarning har birida jonajon respublikamizning go`zal tabiatini, o`zbek xalqining hayoti va mehnati tasvirlanadi.

O`zbekistonning go`zal tabiatini taniqli rassom O`rol Tansiqboyevning ijodida markaziy o`rinni egallaydi. O` Tansiqboyevning ijodi asosan O`rta Osiyoning go`zal va nafis tabiat manzaralarini mo`yqalam yordamida haqqoniy aks ettirishga qaratilgan. Uning "Issiqko'l

oqshomi”, ”O`zbekistonda bahor”, ”Qayroqqum GESning tongi”, ”O`rik gullamoqda”, ”Kuz tongi” kabi ko`plab asarlari rassomning manzaranafislik san`atining mohir ustasi sifatida jahonga tanitdi. Abduvali Mo’mnov A.Mirsoatochning manzara janridagi asarlarini tomosha qilish va tahlil etish bizga me’moriy manzara elementlarini belgilashga zamin yaratadi. Ularda qishloqning past balanda uylati tog’ adirlar daryo va jilg’alar uzoq yaqinda tasvirlanishi mumkin bo’lgan me’moriy inshat ko’rinishlari daraxtlar va boshqa elementlar tasvirini ko’rish mumkin. Amaliy tasviriy faoliyatga kirishish oldidan o’z variantlarimizni eskezini ishlab olamiz. Bu eskez har xil ko’rinishda bo’lishi mumkin. Shuningdek me’moriy manzara janridagi ikki asarni tahlil etib ko’ramiz. Bular rassom Rashid Temurovning ”Bibixonimda bahor”, Samarqand asarlari.

### **Manzara kompozitsiyasi. Kompozitsyaning asosiy qonun qoidalari**

Tasviriy san`at amaliyotida kompozitsiyasning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o`xshatish qonuni, kontrast qonun vositalari mazmun va g`oyaga bo`ysunishi kompozitsyaning asosiy qonunlari hisoblanadi.

Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, hajm, ”dog”, oraliq xarakter nusha ishora bilan ifodalanadi.

Kompozitsiya haqiqat qonuni- asosan uchta belgi bilan ifodalanadi. Birinchi belgi bu badiiy asarda sdodir bo`layotgan voqeanning o`ziga xosligi, I.Levitanning ”Oltin kuz”, A.Kundjining ”Qayinzorda”, A.Rilovning ”Havo rang kenglikda manzaralarida mazmun, nafosat bilan birga tabiatning o`ziga hos obrazni tasvirlangan.

Kompozitsyaning asosiy qonunlaridan biri kontrastlik qonunidir. Leonardo da Binchi ”Rangtasvir qonunlari” ilmiy asarida o`lcham qarama-qarshiligi haqida, katta-kichik, past-balans, qalin-yupqa, xarakter, faktura, materiallar kontrasti to`g`risida yozadi.

Mikelandjelo tekislikdagi hajm kontrastlariga ko`p ahamiyat beradi. Inson predmetlar shaklini faqat soya va yorug` kontrastlik orqali sezadi va o`z ongiga singdiradi.

**Manzara kompozitsiyasi.** Manzara-tasviriy san`atning qadimiy janr turlaridan bo`lib, tarixiy maishiy asarlarda ham vosita-fon sifatida muhim rol o`ynaydi. Yevropada manzara janri tarixi XVI-XVII asrlarda taraqqiy etdi. Gollandiya manzarachi rassomlari tabiatni o`xshatib haqqoniy tasvirlashda katta muvoffaqiyatlarga erishdilar.

Manzara san`ati tashqi dunyoning go`zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta`sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun ham rassom tabiat olamini eng nozik, tipik xolatlarini rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo`lgan estetik munosabatini bildiradi.

Manzara asarida inson shaxsi, aql-zakovatini, ichki tuyg`ularini tasvir orqali qushiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. Misol

tariqasida I.Levitanning "Oltin kuz", "Abadiy sokinlik", I. Shishkinning "O'rmon yiroqliklari" asarlarini keltirish mumkin. Tasviriy san'atning manzara janriga oid asarlari insonda tabiatga muhabbat va go`zallik fazilatlarni shakllantiradi. Bunga misol qilib, O'zbekistonda manzara janrida ijod qilgan rassomlar O` Tansiqboyev "Issiq ko'l", "Ona o'lka", Qayroqqum suv ombori, N.Qoraxon "Nanay yo'li", "Sijjakda bahor", R.Temurovning "Samarqand" arxitektura manzaralari turkumini aytishimiz mumkin.

Manzara janrida G'.Abduraxmonov , F.Toxirov, R.Choriyev, M.Yesin kabi

rassomlar manzara janrda samarali ijod qilgan rassomlar hisoblanadi .

Hozirgi vaqtida A. Nuriddinov, O. Qozoqov ,A.Mo'minov ,A.Mirsoatov kabi rassomlar mustaqil O'zbekistonning g'o`zal tabiatini madh etuvchi maftunkor mazaralarni yaratib kelmoqdalar. Manzaraning bir necha turlari mavjud.

Shahar (Arxitektura), qishloq (tug') manzara, sanoat (zavod, fabrika , inshoat qurilish ), tarixiy , romantik , lirik , panorama (ko'rinishlarida ) manzaralari shular jumlasidandir.

Bularning har biri negizida ifodalovchi mazmun, g'oya yotadi

Shahar manzarasida shahar hayoti bilan bog'li, arxitektura , trasport vositalari odamlar, oramgoh bog'lar hamda yer osti o'tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo'la oladi.

Qishloq manzarasi, bepoyon kenglik , tug' manzarasi , yaylovlar, qoya tosh , o'simliklar , vodiyyagini jilvakor suvlar tsviri kompozitsiya negizini tashkil etadi. Sanoat manzarasi katta zavod hovlisi, suv ombori , ko'prik, metro qurilishi , texnika qurilishi vositalari bilan bog'langan.

Lirik manzarada tabiatni "Erta tong ", "Bahor" kabi mavzudagi tabiatni nozik, sokin go'zalligini , uning uyg'omish holatini aks ettiruvchi, insonga olam-olam quvonch baxsh etuvchi asarni ko'z oldimizga keltiramiz.

**Manzaraning kompozitsiya vositalari (belgilari):** joyni tanlash, ko'rinish nuqtasi,ko'rinish chizig'i,fazoviy masofa,format,prespektiva,ritm,kolorit,yorug',refleks,kompozitsiya markazi shular jumlasidandir.

Bu janrda kompozitsiya yaratish uchun,qalamtasvir rangtasvir sohalarida mukammal bilimga ega bo'lish kerak.Naturadan dastlabki chizilgan chizg'i rangli etyudlar manzara kompozitsiyasini tuzishda asosiy mavzu bo'lishi mumkin.Qishloq manzarasini kompozitsiyasini tasvirlamoqchi bo'lsak avval tabiatdagi quyoshli,bulutli kunlar,peshin,oqshom xolatini xarakterli xususiyatlarini sinchiklab ko'zatish lozim.

Formatni aniqlab, ufq chizig'i,ko'rinish nuqtasini belgilab olish kerak.So'ngra havo va yerni tekislikda nisbatlariuni belgilab,oldingi,keyingi,orqa

planni va predmetlar mashtabini topish darkor. Kompozitsiyani bir necha variantlarini sangina, ko'mir kabi yumshoq materiallarda bajarish tavsiya etiladi.

Bajarilgan xomaki eskiz variantini rangda tasvirlash asar xolatini aniqlashga yordam beradi.

Sifatli bajarilgan eskiz asosida manzara kompozitsiyasini yakuniy nusxasini amalda bajarish kerak. Uni qog'oz, karton,



xolst, akvarel, guash, moybuyoq orqali amalga oshiriladi.

Bo'lajak rassom uchun hayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizg'i va etyudlarni bajarish mashqlarini qilishga kirishsa maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

Manzara janridagi asarlar inson uchun ma'naviy ozuqa beradi, uni ruhlantiradi, hayotga shodlik va quvonch bag'ishlaydi.

O'rol Tansiqboyevning "Oqshom pallasi" asarini tahlil qilar ekanmiz ko'z o'ngimizda gullab yashnayotgan o'zbek diyori, uning dilga orom beruvchi tabiat, kishining mehnati bilan bog'-bo'stonga aylanayotgan yerlar gavdalanadi.

O'zbek milliy rang tasvir mактабining tаниqli rassomi G'ofur Abduraxmonov ko'pgina asarlarida manzara janriga dadil muroajaat qila olgan va manzara janriga nisbatan qiziqishi shakllanganligidan dalolat beradi.

Rassom yaratgan kompozitsiyalari keng qamrovliligi va rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Bulardan, ayniqsa "Qo'shiq" asarini tomosha qilar ekanmiz tabiatning jozibali ohanglari bilan inson qalbidagi

tuyg'ular hamohang jaranglayotganini tinglagandek bo'lamiz. Bahor gullari to'shalgan qirlar, unga mahliyo bo'lgan qizlarning nafis harakati, tog' cho'qqlari, shuningdek, olisdagi bulutlarning bir biri bilan uzviy bog'liq bo'yoqlarda tasvirlanishi kishini o'ziga sehrlab qo'yadi.

G'. Abduraxmonovning "Baxmalda tong" nomli manzarasida esa tabiatda yangilanayotgan holat rassom tomonidan ilg'ab olingan. Asarda erta tongdagi jonlanish, yer bag'ridagi barcha borliqning uyg'onayotganligi yaqqol sezilib turadi. Bu asarlar tomoshabinda yaxshi kayfiyat uyg'otish bilan birga maroqli dam olishga yordam beradi. Tabiatga bo'lgan muhabbatni uyg'otadi va estetik zavq bag'ishlaydi. Rassom ijodida manzara janriga bo'lgan qiziqish ko'rtaklarini uning dastlabki etyudlaridayoq ko'rishimiz mumkin.

Tasviriy san'atning tur va janrlari ichda manzara janri tabiat va inson munosabatlari, kayfiyatlarini tasvirlashda keng imkoniyatga ega manzaralar ham tabiat, insonlar kabi turli ko'rinish va kayfiyatga egaa bo'ladi. Ular charog'on kun, bulutli kun, quyoshli oqshom, yomg'r va qor, bo'ronlarni tasvirlash, shahar manzarasi, qishloq manzarasi, tog' manzarasi ko'rnishida bo'ladi. Rassom Abduvali Mo'minov, Anvar Mirsoatovlarning manzara janridagi asarlarini tomosha qilish va tahlil etish bizga me'moriy manzara elimitlarini belgilashga zamin yaratadi. Ularda qishloqning pas-balad uylari, tog'u-adirlar, daryo va jilg'alar uzoq yaqinda tasvirlanishi mumkin bo'lgan me'moriy inshoat ko'rinishlari, daraxtlar va boshqa elementlar tasvirini ko'rishimiz mumkin.

Amaliy tasviriy faoliyatga kirishish oldidan o'z vriantlarimizni eskitclarini ishlab olishimiz mumkin. Rassom G'. Abduraxmonovning "Oydin kecha" asarini kuzatib tahlil qilamiz.

Tabiatning obrazli manzarasi –shamolsiz, tinch issiq tun osmonda to'lin oy nur sochib, butkul dalaga yorug'lik berib turubdi. Suv yuzasida oyning shu'lesi ko'lni ko'kish, sariq ,oltin rangga bo'yab, jilvalanib turibdi. Daraxtlar bir biri bilan asta shivirlashib, uyquli tunning tinchligiga quloq solayotgandik. Tabiatning shu kurinishini qogozga tasvirlashda suratning asosiy mavzusini yechish lozim. Demak, tasviriy sanat tilida tabiat manzarasini tasvirlash degani.

Ko'l, oy, daraxtzor – buning hammasi bit butun ko'rinishni tashkil qiladi .

Tabiatning go'zal manzarasini tasvirlash naqadar qiyin ekanligiga qaramay, rassom o'z fikrini bizga mohirlik bilan yetkaza olgan. Bulut orasidan chiqqan oy suv yuzasiga yorug' shu'la sochib qirg'oqlar qizil qo'ng'ir ranga bo'yalib, oldingi ko'rinishdagi daraxtlar quyuq bo'yoqlar bilan bo'yalgan . Barchasi o'z o'rnini topib, havo, bo'shliq, makon alohida e'tibor bilan ko'rsatilgan.

Suratni akvarel yoki guash buyoqlari bilan tasvirlash mumkin. Bu rassomchilik qurollari bilan tabiat manzarasini go'zal va mazmunli qilib bajarish mumkin.

## **Labi Hovuz tarixiy obidalari manzarasini ishlash.**

Labi Hovuz tarixiy obidalari manzarasini ishlash uchun bo`yoqlar yordamida chizishdan avval qalam yordamida uning alohida qismlari chizib olinadi. Tasvirning mazmunli va ifodali bo`lishi uchun manzara elementlari: daraxtlar, bulutlar, tog`lar, joyning tuzilish shakllari chiziladi. Shuningdek, manzarani chizishda tabiatni sinchiklab o`rganib chiqish talab qilinadi.

Rassom A.Muminovning "Buronli kun" asarida tabiat obrazining bir ko`rinishini kuzatishimiz mumkin.

Tabiatni obrazli manzarasini chizishda chiziqli va favoviy perspektiva qoidalariga rioya qilish lozim. Har bir narsa uzoqlashgan sari kichrayib havoda ko`rinmay xiralashib boradi, ularning ko`rinishi, chiziqlari, yorug`ligi, rangi o`zgaradi. Tabiatdagi narsalar bizga qanchalik yaqin bo`lsa ular shunchalik aniq va ravshan ko`rinadi.

Manzarani maromida tasvirlab berish katta ahamiyatga ega. Manzara-kunduzi, ertalab, yoki kechqurun o`z ko`rinishiga ega. Ertalab atrof go`yoki tutun bilan qoplangandek bo`ladi. Demak, ertalabki manzarani chizganda orqa ko`rinishi biroz xiralahtirilib tasvirlanadi. Oldida joylashganlarning tuzilishini biroz aniqroq qilib chizish karak. Kechqurun esa aksincha, osmon tusida narsalarning hamma tuzilishi aniqroq ko`rinadi. Havo bulut bo`lgan kunda yer, undagi narsalar bilan birga osmon xiraroq va qoraroq bo`lib ko`rinadi.

Tabiatning obrazli manzarasini chizishda yoki uning biron- bir bo`lagini tasvitlashda alohida qoidalar yo`q, Manzarani tasvirlash ham boshqa narsalarning asl nusxasini chizish kabi bajariladi.

Tabiat obrazi ta`sirchanligini oshirish, uning aniq holatini ifoda etish maqsadida ishni kontrastli yoki mayin, iliq yoki sovuq, ochroq yoki to`qroq, yaqqol yoki umumlashgan tarzda bajarish mumkin. Jonli tabiatni his qilish, uning g`oyat ko`rkamligini ilg`ay olish, shuningdek, qiziquvchanlik har bir tabiat manzarasini tasvirlashning yechimiga mezon bo`ladi.

## **4.Yangi mavzuni mustahkamlash va o`quvchilarining mustaqil ishlari.**

### **23 daqiqa**

Labi Hovuz ansanbili tarixiy obidalari manzarasini ishlash uchun buyoqlar yordamida chizishdan avval qalam yordamida uning alohida qismlari chizib olinadi. Tasvirning mazmunli va ifodali bo`lishi uchun manzara elementlari: obida daraxtlar, bulutlar, tog`lar, joyning tuzilish shakllari chiziladi. Shuningdek, manzarani chizishda tabiatni sinchiklab o`rganib chiqiladi.

Labi Hovuz tarixiy obidalari manzarasini ishlash manzarasini chizishda chiziqli va fazoviy perspektiva qoidalariga rioya qilib chiziladi. Har bir narsa uzoqlashgan sari kichrayib havoda ko`rinmay xiralashib borishi, ularning ko`rinishi, chiziqlari, yorug`ligi, rangi o`zgarishi, tabiatdagi narsalar bizga qanchalik yaqin bo`lsa ular shunchalik aniq va ravshan ko`rinishi hisobga olinib chiziladi.

**1-bosqich.** Formatnianiqlab qalamtasvirda ufq chizig'i, ko'rish nuqtasini belgilab olish, havo va yerni tekislikdagi nisbatlarini belgilash, oldingi va keyingi, orqa plandagi bino predmetlar masshtabini topish.

**2-boshqich.** Format sathida manzaradagi, obidanı birinchi, ikkinchi, o'rtaligida qator va uchinchi plandagi detallarni yaqqol tasvir holatiga holatiga keltirish, soya yorug'liliklarni belgilash.

**3- bosqich.** Manzaraning uchinchi orqa qatoridagi havo, tog', daraxtlarni sovuq va ko'k rangda ranglash, o'rtaligida qatoridagi qir-adir, uylarni o'rtacha och iliq ranglarda, birinchi qatoridagi daraxt, shox-shabba va yo'l-yo'laklar issiq sariq, qizil-jigar ranglarda ranglash.

**4- bosqich.** Tasvirlanayotgan manzaradagi obidaning barcha detallarning soya va yorug'liliklari asosida uyg'unlashgan holatda to'qroq ranglarda ranglash. Tabiatning obrazli manzarasini butun bir g'oya va mazmun asosida yakunlash.

#### **Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Manzaraning bosh g'oyasi nima?
2. Manzarachi rassomlar kimlar va ularni qanday asarlarini bilasiz?
3. Labi Hovuz ansabili kartinasining tasviriy kompozitsion yechimimning umumiyligi nimadan iborat.

#### **Tasviriy san`at fanidan testlar.**

1.Rangtasvir xususiyatlari va uning texnologiyasiga oid eng qadimgi qo`lyozma qachon yozilgan?

- a) XI asrda;
- b) O'rta asrlarda;
- v) Yuqori Uyg'onish davrida;
- g) IX asrda.

Javob: v) Yuqori Uyg'onish davrida;

2.Qaysi qatordagи ranglar "issiq ranglar" ga kiradi?

- a) Ko'k, havo rang, yashil, safsar;
- b) Sariq, qizil, noranji, qirmizi;
- v) sariq, yashil, jigarrang, ko'k;
- g) pushti, siyohrang, binafsha, zumrad;

Javob: b) Sariq, qizil, noranji, qirmizi;

3.Qaysi ranglar "sovuj ranglar" turkumiga kiradi?

- a) Qizil, oq, qora, jigarrang;
- b) Qizil, sariq, jigarrang,qora;
- v) Ko'k, safsar, yashil, moviy,havorang;

g) oranjiviy, oxra, targ`il, ko`k.  
Javob: v) Ko`k, safsar, yashil, moviy, havorang.

4. Akvarel ishni bajarganda, eng muhim nima?

- a) Qog`oz planshetda bo`lishi;
- b) Mo`yqalam, qog`oz, bo`yoq sifatli soz bo`lishi;
- v) Mo`yqalam yumshoq, qog`oz sifatli bo`lishi;
- g) Qalam, o`chirg`ich, mo`yqalam soz bo`lishi.

Javob: b) Mo`yqalam, qog`oz, bo`yoq sifatli soz bo`lishi.

5. "Akvarel" so`z iborasi mazmunan nimani anglatadi?

- a) Fransuzcha suyuq bo`yoq ma`nosida;
- b) Lotinchadagi "akva" so`zidan suv ma`nosi, "rel" bo`yoq ma`nosi;
- v) Nemischa "rel" so`zidan kelib chiqadi;
- g) Espancha suv mazmunidagi tushuncha.

Javob: b) Lotinchadagi "akva" so`zidan suv ma`nosi, "rel" bo`yoq ma`nosi.

**5. Darsning yakuni va uyga vazifa berish.** Me'moriy manzara tasvirlangan etyud chizish.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki, rangtasvir va rang texnologiyalarini o'zlashtirishda biz avvalo kuzatuvchan va rangni his qila oladigan darajaga erishish uchun xarakat qilishimiz zarur bo'ladi. Ma'lumki tasviriy san'atning barcha turlarida rang muhim ro'l o'ynaydi. Rang gammasi deganda tasvirlarni ishlash jarayonida qo'llanadigan tus va ranglarning o'zaro muvofiq kelishini tushunamiz. Bu xolatni quyidagi jonli misol bilan izoxlasak o'rinnlidir, masalan, musiqa san'atidagi ovozlar ma'lum notalar yordamida belgilanadi va foydalaniladi. Ular o'z xolicha aloxida-aloxida bir-biri bilan uyg'unlashtirilmay chalinsa manosiz uzuq-yuluq ovozlardan iborat bo'lib qoladi. Agar ma'lum bandlikda va tartibda uyg'unlashtirib chalinsa, yoqimli bo'lib eshitiladi. . Ma'noli tasavvurlar zavq berish qudratiga ega bo'ladi. Ularning sifati ovozlari o'rtasidagi vaqt masofasi, ovozlar yo'g'on-ingichkaligiga ham bog'liq. Rangtasvirda ishslash jarayonida ham xuddi keltirgan misolimiz kabitdir, ya'ni har bir rang va tusning o'z yorqinligi va to'q - ochligi mavjud. Ularni nechog'lik bir-biriga mosini

topib, o‘zaro muvofiq tarzda qo‘llasak shunchalik tasvir sifatida aksini beradi, ma’no tashish quvvatiga ega bo‘ladi. Agar bo‘yoqlarni tasvir ob’ektiga zid holda birini juda yorqin, boshqasini nursiz qilib o‘zaro bog‘liqligiga moslamay ishlatsak, rangtasvir ma’nosiz va ta’sirsiz chiqib qoladi. Ranglarning yorqinlik kuchi va to‘q-ochligi xuddi tabiatdagidek qilib olish va tasvirlashda qo‘llash juda qiyin. Shu sababdan ham ular ochroq yoki to‘qroq gammalarda tasvir obektlariga mos tarzda, ma’lum nisbatlarda qilib olinadi. Mo‘ljaldagi olingan gammaga moslab tasvirning eng to‘q va eng och qismlari darajasi belgilab olinadi. Shunda ishlangan tasvirlar yaxlitlik, qiziqlarlilik kasb etadi, ta’sirchan chiqadi.

Har bir narsa va xodisa tasvir etilar ekan, uni xuddi aslidagidek qilib aks ettirish mumkin emas. Buni ko‘pchilik san’at nazariyotchilari va rassomlar, amaliyotchilar doimo ta’kidlab keladilar. Zero, tabiatni tasvirlash undan olingan tasavvurning qay darajadaligiga bog‘liq, muhim tabiat ko‘rinishi realligi tasavvurini obrazli tarzda ifoda etsa ishonarli bo‘lsa shuning o‘zi kifoya, o‘zbek rassomlari ichida ham rangga juda etiborli munosabatda bo‘ladigan, uning go‘zal uyg‘unligini ifodalab bera oladiganlari ko‘p. Bunday usta, mahorat egalari mo‘yqalam soxiblaridan M.Nabiev, R Axmedov, R.Choriev, B.Burmakin, B.Boboev, J.Umarbekov, A.Mirzaev, A.Ikromjonov, M.Toshmurodov, A.Nuriddinov, A.Qozoqov. va boshqalarning nomlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ularning ko‘plab ajoyib asarlari fikrimizni tasdiqlab turibdi.

Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchi yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy va estetik jihatdan tarbiyasini yuksaltirish muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Respublikamiz prezidenti tomonidan qabul qilinib, xalq ommasi muhokamasiga taklif etilgan qator qarorlar, farmonlar, jumladan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” amaliy san’atni rivojlanterish va davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash, akademik listey va kasb-hunar kollejlarida ta’lim va tarbiyani zamona talabiga mosligini ta’minalash kabilarning barchasi yoshlarni turli tarbiya vosita shakllari komil inson darajasiga yetaklovchi omillar bo’lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilarga amal qilgan tarzda men ham tariximizni puxta bilishimiz zarurligini anglab, mavzuga taalluqli dolzarb muammoni tariximizga bog'lab hal etishni nazarda tutdim.

Qolaversa, tarix o'z-o'zidan yaratilmagani kabi, ota-bobolarimiz yaratgan meros anchagina mehnat evaziga yuzaga kelganligini his etdim. Ayniqsa, yuksak tarixiy mavqega ega bo'lgan ulkan inshootlar ularning naqshu-nigorlari bobolar yashagan tarixiy jarayondan, turmush tarzidan hikoya qiladi.

Shunday ekan ularning qo'l mehnati, aql-idroki evaziga yaratilganligini inobatga olib, yoshlarni ta'lim va tarbiya jarayonida eng yaxshi sifatlarini singdirish bilan tarbiyalash usullarini singdirishni nazarda tutamiz. Aynan shu kabi sifatlar tarixiy shaharni, yurtni, elni sevishga chorlaydi.

Darvoqe, barchaning e'tirofiga sazovor bo'lgan juda ko'p niyatlar bilan ulkan tarixga va madaniyatga ega bo'lgan xalqimizni eng yaxshi taqdirga munosib ekanligini xis etamiz va bobolar orzularini amalga oshishi uchun bilim berish borasida kuchimizni sarflaymiz.

Shu bois ham men himoyaga tavsiya qilayotgan mavzu ham nazariy jihatdan, ham amaliy jihatdan aynan Vatanni sevish, yurtni ardoqlash kabi xususiyatlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Shular yuzasidan "Buxoro manzarasi" mavzusida malakaviy ishni bajarishga harakat qildim. Har bir bajargan ishimda kichik-katta qoralamalar, ranglavhalar faqat yurak qo'ri, shukuhi bilan sug'orishni ta'minlashga qaratdim.

Kelgusida bu ishni mактабда sinfdan tashqari ishlarda va kecha yoki tadbirlar o'tkazishda qo'llashni nazarda tutdim.

Mening nazarimda bitiruv malakaviy ish orqali o'quvchilarda ona shahrimga bo'lgan mehr va muhabbatni uyg'ota olaman degan umiddaman. Ularni Ona yurtni sevishga va ota-bobolarimiz qo'li bilan yaratilgan ulkan merosni asrab-avaylashga chorlayman.

## **Tasviriylar san'atda lug'aviy iboralar**

<b>Etyudnik</b>	Etyud ishslashga moslashtirilgan ko'chma dastgoh.
<b>Qo'shimcha ranglar</b>	Qizil, sariq va zangori bo'yoqlarning aralashuvidan hosil bo'ladigan omuhta ranglar.
<b>Xolst</b>	Rangtasvir uchun maxsus tayyorlangan mato.
<b>Arxitektura</b>	Memorchilik inshooatlar tarixi bilan shug`ullanuvchi soha.
<b>Gamma</b>	Rang gammasi ma`nosida, rangning turli tuslari, masalan, iliq, sovuq, rang tuslari, ularning darajasi.
<b>Grafika</b>	Tasviriylar san`atning bir turi bo`lib, gravyura, litografiya kabilalar grafik asarlardir. Grafika o`zining yo`nalishi va mazmuniga ko`ra kitob grafikasi va amaliy etiketka; faxriy yorliq, pochta markalariga bo`linadi.
<b>Janr</b>	Tasviriylar san`atda qo'llaniladigan uslub, mavzu. Rangtasvir san`atda tarixiy, maishiy, botalik, portret, manzara, notyurmort kabi mavzular mavjud.
<b>Kompazitsiya</b>	Badiiy asarning tuzilishi asarda tasvirlangan narsalarning tartibli yig`indisi, bog`liqligi, tasvirlanayotgan barcha buyumlarni yagona qonunga bo`ysundirish.
<b>Minora</b>	Me`morchilikda maschidning so`fi azon aytadigan mezanasi (Buhorodagi Minorai Kalon minorasi)
<b>Malbert</b>	Surat chizish uchun tayyorlangan planshet, rom kabilarni qo`yadigan taglik.
<b>Perespektiva</b>	Narsalarni tekislikda tasvirlash qonun- qoidalarini o'rganuvchi amaliy fan
<b>Fon</b>	Fon, tag suratlarda eng oxirgi reja rangini bildiruvchi atama
<b>Eskiz</b>	Mo'ljallangan ishga xomaki rasmlar chizish
<b>Etyud</b>	San`atda bo'lajak asar mazmuniga tegishli biror qism yoki detallarni sinchiklab o'rganish maqsadida alohida ishlangan rasmlar

## XULOSA

Mamlakatimiz tomonidan 2010 yilni «Barkamol avlod yili» deb nom berilishi bilan yoshlarga oid siyosat davlat siyosatining asosiy yo’nalishlaridan biri ekanligi yana bir bor o’z tasdiqini topdi.

Barkamol avlod – jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Shu bois yurtimizda mustaqillik yillaridanoq ham jismoniy ham ma’naviy jixatdan barkamol avlodni tarbiyalash davlatning o’z oldiga qo’yan vazifalaridan biri sifatida boshlandi. Mamlakatimizda sog’lom muhitni shakllantirish va oila, o’quv muassasalarida yuksak ma’naviy, axloqiy muxitni qaror toptirish, mamlakat va yurt obodonligi uchun jonini fido kiladigani avlodni etishtirish bizning ma’suliyatimizga kiradi. Xayot saboqlaridan tajriba ortirish, Vatanni muqaddasligini shuningdek vatanimizda yaratilgan va bunyod qilingan barcha nodir buyum ashayolarini asrab avaylashga yo’naltirilgan tarbiya shakliniishga solish muhimligini his etmoq zarur.

Ta’lim - tarbiya nazariyasi tajribasidan shu narsa ma’lumki, umumiylar ta’limning asosiy bosqichi boshlang’ich sinflar (I-IV sinflarda) davri bo’lib, bu davrda bola asosan shakllanadi. Chunki, bu davrda bola ham jismoniy, ham aqliy, ham ma’naviy jihatdan g’oyat tez rivojlanadi. Bu davrda bolalar barcha bilimlar zaminini o’zida mujassam qiladi va barcha fanlardan boshlang’ich ma’lumot oladi. Bolalar bu davrda moddiy olamni ko’rishni, kuzatishni, ulardan olgan taasurotlarni tekshirishni o’rganadi. Bu malakalar boshlang’ich sinflarda o’rganadigan o’quv fanlari darslari asosida amalga oshiriladi. Shu boisdan boshlang’ich sinflarda o’qitiladigan o’quv fanlari zimmasiga juda katta mas’uliyatlar yuklanadi. Boshlang’ich sinflarda o’rganiladigan tasviriy san’at o’quv fani ham bugungi bolalarimizni ta’limiy va tarbiyaviy sohalarida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilarni inobatga olib yigit – qizlar tafakkuri, ongini yangicha o’z garishlarga alohida e’tibor ajratilmoqda.

Rassomlar asarlarida tabiatni o’z borlig’icha real holatini tasvirlash bilan birga, unda alohida e’tiborga molik, harakterli ko’rinishlarni tanlab oladilar, e’tiborimizdagidek tuyulgan narsalarni ikkinchi darajada, asosiy larni esa bo’rttirib tasvirlab, badiiylik hosil qiladilar. Rassom borliqni shunchaki biladigan

va aks ettiradigan emas, balki unga asoslanib, nimalarnidir o'zi o'ylab ham topadi, tasavvur etadi, borliqni his qiladi. Demak, manzara asarlari o'z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmay, ayni paytda ular g'oyalarini ifodalaydilar, tomoshabin ongini boyitadilar. Manzara asarlari insonlar ruhiyatiga ta'sir etib, ularning ma'naviy olamini, boyitadi va rassomlarning esa ijodiy tajribasini kengaytiradi.

Aynan bunday o'zgarishni yurtning milliy farovonligini oshirishning asosidir. Bu kelgusida ommaviy madaniyatning yuksalishiga qaratilgan yagona omil bo'lib hisoblanadi.

Men ham bitiruv malakaviy ishimda zamonaviy manzara kompazistiyasida Ona Vatanimning zamonaviy binolatini tasvirlashni maqsad qilib, yuqorida qayd qilingan tarbiya vositalaridan imkon darajasida foydalanishga harakat qildim.

Zero zamonaviy manzara kompazitsiyasi o'zida tabiat chiroyini tarannum etish bilan birga ko'ngillarga orom-zavq bagishlaydi.

Yurtning go'zal jamoli, yangi qiyofasi, va albatta tinchligini his etib biz yoshlarning qalbiga muhrlanib qoladi.

Xulosa qilib aytgandau qaysi yurt, qaysi millat farzandi ekanligini to'la his qiladi. Ota - bobolarimiz tomonidan yaratilgan antik inshootlarni asrab-avaylashimiz. Va shu bilan birga har bir o'zbek yoslari, o'z sohasida ulkan orzular og'ushida shu kabi bunyodkorlik ishlarini bajarish niyatida faoliyat ko'rsatadi.

O'z tabiatini, o'z elini, o'z shaxrini sevib ardoqlab yashaydi. Men bajargan bitiruv malakaviy ishimda o'zbek rassomlari ularning ijodlari va ijod mahsullari, mashhur asarlari orqali o'z ishimni bajardim. Bitiruv ishimni tasviriy san'at o'qituvchilari tasviriy san'at mashgulotlarida, darsdan tashqari ishlarda ham foydalanib, ularda estetik sifatlarni shakllantirish nazarda tutilgan.

## **Adabiyotlar ro'yxati.**

1. G.M. Abduraxmonov "Tasviriy san'at kompozitsiyasi" 1996 yil Toshkent.
2. G.M. Abduraxmonov "Tasviriy san'at kompozitsiyasi" 1996 yil Toshkent.
3. Egamov X. Buyoqlar bilan ishslash. Toshkent. O'qituvchi 1981 yil.
4. M. I. Zemskaya "Aleksandr Volokov Master granatovoy chayxani" Xudojnik 1975 yil.
5. V. Shoroxov "Osnovi kompozitsii" Moskva "Prosvesheniye" 1979 yil.
6. A. Egamberdiev "Stankovaya jivopis Uzbekistana" Gofur Gulom Toshkent 1989 yil.
7. A. R. Umarov "Abdulxaq Abdullaev" izd. Xudojnik 1971 yil.
8. M. Sokolova P. Benkov vospominaniyasi, perepiski G. Gulyama Toshkent 1981 yil.
9. Abdullaev N.I. "San'at tarixi"- Toshkent, O'qituvchi, 1986 yil.
10. Abdullaev N.I. "San'at tarixi"- Toshkent, San'at, 2001 yil.
11. Azimova B.Z. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. Toshkent, O'qituvchi, 1984 yil.
12. Azimova B.Z, Rajabov R, Abdurasilov S.G. Tasviriy san'atga oid atamalarning zoxli lugati. Toshkent 1994 yil.
13. Barsh I.O. Naroski i zarisovki. M., 1970 yil.
14. Boymetov B. Qalamtasvr o'qitishning ilmiy asoslari. Metodik tavsiyalar. Toshkent 1995 yil.
15. Kuzin V.S. Nabroski i zarisovki. M., 1970 yil.
16. Kuzin V.S. Voprosi izobrazitel'nogo tvorchestva. M., 1971 yl.
17. Smirnov G. V. Izobrazitelnoye iskusstvo. M., Prosvesheniye, 1977 yil.
18. Terentev A. E. Izobrajenie jivotnih i ptis sredstvami risunka i voprosy. M., 1980 yil.
19. Shoroxov E.V. Osnovi kompozitsii. M., Prosvesheniye, 1976 yil.
20. Abdullayev N.U. San'at tarixi. T., O'qituvchi, 1986.
21. Abdullayev N.U. San'at tarixi. 2/1 T., San'at, 2001.
22. Abdurahmonov G.M. Rangtasvir va kompozitsiya. T., 1995.

23. Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. T.: O'zbekiston, 2006.
24. Azimova B.Z. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. T., O'qituvchi, 1984.
25. Abdirasilov S.F. Tasviriy san'at atamalari. T., 2003.
26. BarshL.O. Nabroskiizarisovki. M., 1970.
27. Boymetov B., Abdirasilov S. Chizmatasvir. T.: .ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004.
28. KuzinV.S. Nabroskiizarisovki. M., 1970.
29. N.Oripova. Moybo'yoqda portret ishlash. T., 2010.
30. ShoroxovE.V. Osnovi kompozitsii. M., prosveshenie, 1980.
31. Egamov A. Rangtasvir. T., San'at, 2004.
32. Egamov A. Kompozitsiya asoslari. T.: San'at, 2005.

Ziyonet.uz

ngbt.uz

## ILOVALAR

